

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
YOSHLAR SIYOSATI VA SPORT VAZIRLIGI**

**JISMONIY TARBIYA VA SPORT BO‘YICHA MUTAXASSISLARNI  
QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

**2.3.**

**“ INNOVATSION TA’LIM TEXNOLOGIYALARI”  
MODULI BO‘YICHA**

**O‘QUV-USLUBIY MAJMUA**

**Malaka oshirish yo‘nalishi:**

“Jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi”

**Tinglovchilar kontingenti:**

Kasb-hunar maktablari jismoniy tarbiya  
fani o‘qituvchilari

**Toshkent – 2023**

Mazkur o'quv-uslubiy majmua O'zbekiston Respublikasi Sportni rivojlantirish vazirligi tomonidan 2022-yil 29-dekabrda tasdiqlangan namunaviy o'quv reja va o'quv dasturga muvofiq ishlab chiqilgan.

**Tuzuvchilar:**

- A. Akmalov - JTSBMQTMOI "Pedagogika va psixologiya" kafedrası professori v.b., p.f.n., dotsent
- J.A. Pulatov - Institutning "Pedagogika va psixologiya" kafedrası mudiri, dotsent (PhD)

**Taqrizchilar:**

- G. Yeldasheva - JTSBMQTMOI "Pedagogika va psixologiya" kafedrası dotsenti, p.f.n., dotsent
- G. Karimova - PROFI UNIVERSITY xususiy olim ta'lim muassasasining "Pedagogika ba psixologiya" kafedrası mudiri, p.f.f.d. (PhD), dotsent

*Ushbu o'quv-uslubiy majmua "Pedagogika va psixologiya" kafedrasining 2023 yil -yanvardagi 1-sonli yig'ilishida ko'rib chiqildi va institut Ilimiy Kengashning 20\_\_yil \_\_ \_\_\_\_\_da o'tkazilgan \_ sonli qarori bilan nashr qilishga tavsiya qilingan.*

## MUNDARIJA

<b>I.</b>	<b>Ishchi dastur .....</b>	<b>4</b>
<b>II.</b>	<b>Modulni o'qitishda foydalaniladigan interfaol ta'lim metodlari.</b>	<b>12</b>
<b>III.</b>	<b>Nazariy materiallar .....</b>	<b>18</b>
<b>IV.</b>	<b>Amaliy mashg'ulot materiallari .....</b>	<b>57</b>
<b>V.</b>	<b>Testlar to'plami .....</b>	<b>99</b>
<b>VI.</b>	<b>Glossariy .....</b>	<b>102</b>
<b>VII.</b>	<b>Adabiyotlar ro'yxati .....</b>	<b>115</b>



## ISHCHI DASTUR

## KIRISH

Hozirgi paytda O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportga bo'lgan e'tibor yanada kuchaymoqda. Shu bois, sport ta'limi muassasalari mutaxassislarining aqliy salohiyatiga, ma'naviy qiyofasiga hamda kasbiy mahoratiga nisbatan alohida mas'uliyatlar yuklangan.

Sport ta'limi muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan mutaxassislar mashg'ulotlarni optimal darajada tashkil etish shakllarini, barkamol shaxsni shakllantirishni, turli yangi g'oyalar bilan boyitishni puxta bilishi lozim. Zero, O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonunini amaliyotga tatbiq etish, mamlakatimiz sport ta'limi tizimida olib borilayotgan islohotlar muvaffaqiyatini ta'minlash sport ta'limi muassasalarida faoliyat olib borayotgan mutaxassislarning innovatsion pedagogik texnologiyalardan samarali foydalana olishiga ko'p jihatdan bog'liq.

Hozirgi kundagi global o'zgarishlar, fan-texnika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining kun sayin rivojlanib borishi, jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga qaratilgan tadbirlar XXI asr sport bo'yicha pedagoglardan kasbiy-pedagogik mahoratni, o'tkir irodani, pedagogik-psixologik bilimlarni, o'z sport turining nazariyasi va metodikasini chuqur bilishini, siyosiy savodxonlikni, fikrlash doirasi keng va mulohazali bo'lishni talab qiladi.

Sport ta'limi muassasalarida faoliyat olib borayotgan mutaxassislar barkamol avlod ta'lim-tarbiyasi uchun javobgar shaxs bo'lib, nafaqat ma'naviy-axloqiy madaniyati bilan atrofdagilarga o'rnak bo'lishi, shu bilan birga, pedagogik mahoratini ham namoyon eta olishi, yetuk o'qituvchi sifatida malakali kadrlarni tayyorlash ishiga o'zining munosib hissasini qo'shishi zarur.

Shu bilan birga, innovatsion pedagogik texnologiyalarni ish faoliyatida samarali foydalana olish trener-o'qituvchi uchun ta'lim-tarbiya samaradorligini ta'minlovchi zamin bo'libgina qolmasdan, ayni vaqtda uning jamiyatdagi obro'e'tiborini ham oshiradi, o'quvchilarda unga nisbatan hurmat yuzaga keladi.

## Modulning maqsadi va vazifalari

### Modulning maqsadi:

- tinglovchilarda jismoniy tarbiya darslarining sifat va samaradorligini oshirishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirish.

### Modulning vazifasi:

- jismoniy tarbiya va sportda pedagog faoliyatining vazifalari bilan tanishtirish;
- jismoniy tarbiya darslarini o'tkazishda innovatsion pedagogik texnologiyalarning o'ziga xosligi va qo'llanilish sohalari bo'yicha ma'lumotlar berish;
- jismoniy tarbiya darslari samaradorligini oshirishda interfaol metodlardan samarali foydalanish bo'yicha ko'nikmalarini rivojlantirish.

## Modul bo'yicha tinglovchilarning bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetentsiyalariga qo'yiladigan talablar.

“Innovatsion ta'lim texnologiyalari” modulini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

### Tinglovchi:

- jismoniy tarbiya va sportda pedagog faoliyatining vazifalari;
- pedagogning o'quv mashg'ulotiga qo'yiladigan didaktik talablar;
- kompetentlik va kompetensiya tushunchasi;
- pedagog kasbiy kompetenligining rivojlantirishning nazariy asoslari;
- kasbiy kompetentlik va uning sifatleri;
- innovatsiya va novatsiya tushunchalari;
- pedagogik texnologiyalar va ularning turlari;
- innovatsion ta'lim texnologiyasining mohiyati;
- shaxsga yo'naltirilgan ta'limning o'ziga xos xususiyatlari;
- muammoli ta'lim texnologiyalarining ahamiyati;
- jismoniy tarbiya darslari samaradorligini oshirishda interfaol metodlarning o'rni va imkoniyatlari bo'yicha ***bilimlarga*** ega bo'lishi lozim.

### Tinglovchi:

- pedagogning o'quv mashg'ulotiga qo'yiladigan didaktik talablarga rioya qilish;
- “Innovatsiya” va “novatsiya” tushunchalarini bir-biridan farqlay olish;
- ta'lim texnologiyasi turlarini bir-biridan farqlay olish;
- innovatsion ta'lim texnologiyasi turlaridan samarali foydalana olish;
- jismoniy tarbiya darslarida shaxsga yo'naltirilgan ta'limning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish;
- jismoniy tarbiya darslari uchun faol va interfaol metodlarni maqsadga muvofiq tanlay olish;
- faol va interfaol ta'lim metodlardan jismoniy tarbiya darslarida samarali foydalana olish ***ko'nikmalarga*** ega bo'lishi lozim.

### Tinglovchi:

- jismoniy tarbiya darslarini o'tkazishda innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida o'quv jarayonini tashkil etish;
- jismoniy tarbiya fani o'qituvchisining o'z innovatsion faoliyatini tashkil eta olish;
- jismoniy tarbiya darslarini o'tkazishda innovatsion pedagogik texnologiyalarni oqilona tanlab olish;
- jismoniy tarbiya darslarini o'tkazishda muammoli ta'lim texnologiyalarini qo'llay olish;
- interfaol ta'lim metodlarini o'quv jarayoniga samarali tatbiq eta olish **malakalariga** ega bo'lishi lozim.

### **Tinglovchi:**

- jismoniy tarbiya darslarini o'tkazishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish;
- muammoli ta'lim texnologiyalar orqali jismoniy tarbiya darslarida o'quvchilarning mustaqil va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish;
- jismoniy tarbiya darslarini o'tkazishda faol va interfaol metodlarni qo'llay olish;
- jismoniy tarbiya darslarini o'tkazishda innovatsion pedagogik muhitni boshqarish bo'yicha **kompetensiyalariga** ega bo'lishi lozim.

### **Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan o'zaro bog'liqligi va uzviyligi**

“Innovatsion ta'lim texnologiyalari” moduli bo'yicha mashg'ulotlar o'quv rejasidagi “Kasbiy keativlik va uni rivojlantirish metodikasi”, “O'quv jarayonini tashkil etishda pedagogik kompetentlik”, “Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati” o'quv modullari bilan uzviy aloqadorlikda olib boriladi.

### **Modulning sport ta'limidagi o'rni**

Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar jismoniy tarbiya darslarida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo'ladilar.

**Modul bo'yicha soatlar taqsimoti**

T/r	Modul mavzulari	Tinglovchining o'quv yuklamasi, soatlari					
		Hammasi	Auditoriya o'quv yuklamasi				Mustaqil tayyorgarlik
			Jumladan				
			Jami	Nazariy	Amaliy mashg'ulot	Ko'chma mashg'ulot	
1	Jismoniy tarbiya va sportda pedagog faoliyatining vazifalari	2	2	2			
2	Pedagog kasbiy kompetenligining rivojlantirishning nazariy asoslari	2	2	2			
3	Innovatsion ta'lim texnologiyalarining ahamiyati	2	2		2		
4	Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim va uning turlari	4	2		2		2
5	Muammoli ta'lim texnologiyalaridan jismoniy tarbiya darslarida foydalanish	2	2		2		
6	Jismoniy tarbiya darslarida interfaol ta'lim	4	2		2		2
	<b>Jami:</b>	<b>16</b>	<b>12</b>	<b>4</b>	<b>8</b>		<b>4</b>

**NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI.**

**1-mavzu. Jismoniy tarbiya va sportda pedagog faoliyatining vazifalari.**

**Reja:**

- 1.1. Jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarining pedagogik faoliyati.
- 1.2. Pedagogning o'quv mashg'ulotiga qo'yiladigan didaktik talablar.

Jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarining vazifalari. Jismoniy tarbiya fani o'qituvchisining pedagogik mahorati. Pedagogik qobiliyat va pedagogik texnika. O'quv mashg'ulotiga qo'yiladigan didaktik talablar.

**2-mavzu. Pedagog kasbiy kompetenligining rivojlantirishning nazariy asoslari.**

**Reja:**

- 2.1. Kompetentlik va kompetensiya tushunchalari mohiyati.
- 2.2. Kasbiy kompetentlik va uning sifatlari.

Kompetentlik tushunchasi. Kompetensiya tushunchasi. Kasbiy kompetentlik. Kasbiy kompetentlik sifatlari. Kasbiy kompetentlikni rivojlantirish bosqichlari.



## AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

### **3-mavzu. Innovatsion ta'lim texnologiyalarining ahamiyati.**

#### **Reja:**

- 3.1. Kasb-hunar ta'limi tizimida pedagogning innovatsion faoliyati.
- 3.2. Innovatsion ta'lim texnologiyasi va uning ahamiyati.

“Innovatsiya” va “novatsiya” tushunchalari. Pedagogning innovatsion faoliyati. Pedagogik texnologiya. Pedagogik texnologiya turlari. Innovatsion ta'lim texnologiyasi.

### **4-mavzu. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim va uning turlari.**

#### **Reja:**

- 4.1. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning o'ziga xos xususiyatlari.
- 4.2. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim turlari.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning ahamiyati. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning o'ziga xos xususiyatlari. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim turlari. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi. O'yin texnologiyasi. Pedagogik o'yinlar.

### **5-mavzu. Muammoli ta'lim texnologiyalaridan jismoniy tarbiya darslarida foydalanish.**

#### **Reja:**

- 5.1. Muammoli ta'lim texnologiyasi mohiyati.
- 5.2. Muammoli vaziyatlarni yaratish.

Muammoli ta'lim texnologiyasi. Muammoli ta'lim texnologiyasi - o'quvchilarning mustaqil va ijodiy fikrlashini rivojlantirish omili sifatida. Muammoli vaziyatlarni yaratish yo'llari. Jismoniy tarbiya darslarida muammoli ta'lim texnologiyasidan foydalanish.

### **6-mavzu. Jismoniy tarbiya darslarida interfaol ta'lim.**

#### **Reja:**

- 6.1. Interfaol ta'lim va uning imkoniyatlari.
- 6.2. Jismoniy tarbiya darslarida qo'llaniladigan interfaol metodlar.

Interfaol ta'limning ahamiyati. Ta'lim metodlari va ularni tanlash mezonlari. Jismoniy tarbiya darslarida qo'llaniladigan metodlar. Jismoniy tarbiya darslarida faol va interfaol metodlardan samarali foydalanish.

### **Mustaqil tayyorgarlik mazmuni**

Tinglovchilar “Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim va uning turlari” mavzusi bo'yicha shaxsga yo'naltirilgan ta'lim turlari va ulardan jismoniy tarbiya darslarida foydalanish bo'yicha ma'lumotlarni o'quv adabiyotlari va internet resurslaridan foydalangan mustaqil o'zlashtiradilar.

“Jismoniy tarbiya darslarida interfaol ta'lim” mavzusi bo'yicha faol va interfaol metodlar, didaktik o'yinlardan jismoniy tarbiya darslarida foydalanish bo'yicha ma'lumotlarni o'quv adabiyotlari va internet resurslaridan foydalangan holda mustaqil o'zlashtiradilar.

### **Dasturning axborot - metodik ta'minoti**

Modulni o'qitish jarayonida ishlab chiqilgan o'quv-metodik materiallar, tegishli soha bo'yicha ilmiy jurnallar, Internet resurslari, multimediya mahsulotlari, turli elektron hamda qog'oz variantdagi manbalardan foydalaniladi.



**MODULNI O‘QITISHDA  
FOYDALANILADIGAN INTERFAOL  
TA’LIM METODLARI**

### “TUSHUNCHALAR TAHLILI” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod tinglovchilarni mavzu bo'yicha tayanch tushunchalarni o'zlashtirish darajasini aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo'llaniladi. Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg'ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- tinglovchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo'lgan so'zlar,
- tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi ( individual yoki guruhli tartibda);
- tinglovchilar mazkur tushunchalar qanday ma'no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo'llanilishi haqida yozma ma'lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga etgach o'qituvchi berilgan tushunchalarning to'g'ri va to'liq izohini o'qib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan tug'ri javoblar bilan o'zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o'z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

**Namuna:** “Moduldagi tayanch tushunchalar tahlili”

Tushunchalar	Sizningcha bu tushuncha qanday ma'noni anglatadi?	Qo'shimcha ma'lumot
Innovatsiya		
Novatsiya		
Innovatsion ta'lim		
Innovatsion jarayon		
Kreativlik		

**Izoh:** Ikkinchi ustunchaga tinglovchilar tomonidan fikr bildiriladi. Mazkur tushunchalar haqida qo'shimcha ma'lumot glossariyda keltirilgan.

**“FSMU” metodi**

Ushbu metod munozarali masalalarni hal etishda, bahs-munozara o'tkazishda yoki o'quv reja asosida biron bo'lim o'rganib bo'lingach qullanilishi mumkin, chunki bu metod tinglovchilarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda baxslashishga, shu bilan qatorda Tinglovchilarni, o'quv jarayonida egallagan bilimlarni tahlil etishga, qay darajada egallaganliklarini baholashga hamda tinglavcholarni bahslashish madaniyatiga o'rgatadi. Ushbu metod tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z fikrlarini aniq, qisqa xolatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

Bu metod quyidagicha amalga oshiriladi:

Mashg'ulotda avval har bir tinglovchi yakka tartibda berilgan vazifani bajaradi, keyin esa kichik guruhlarda ish olib boradi va dars oxirida jamoa bo'lib ishlaydilar.

Har bir tinglovchiga FSMU metodining 4 bosqichi yozilgan tarqatma material tarqatiladi. Tarqatma materialda o'tilgan mavzu bo'yicha erkin fikr bildiriladigan savol yoziladi.

***Namuna:***

***Savol: Sport mashg'ulotlarida interfaol metodlardan foydalanish qayday samara beradi?***

**F - fikringizni bayon eting.**

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

**S - fikringizning bayoniga *sabab* ko'rsating.**

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

**M - ko'rsatilgan sababingizni isbotlab *misol* (dalil) keltiring.**

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

**U - fikringizni *umumlashtiring*.**

\_\_\_\_\_

Har bir tinglovchi yakka tartibda tarqatilgan qog'ozdagi FSMU ning 4 bosqichida o'z fikrlarini yozma bayon etadi. So'ngra tinglovchilar kichik guruhlariga ajratiladi va guruhlariga FSMU yozilgan katta qog'oz beriladi. Kichik guruhda har bir tinglovchi o'zining yozgan javobini o'qib tanishtiradi, so'ngra guruh azolari birgalashib, muhokama qilib, umumiy javoblarini yozadilar va uni himoya qiladilar.

### “SWOT-TAHLIL” metodi

**Metodning maqsadi:** mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

<b>S-(strength) kuchli tomonlari</b>	<b>W-(weaknes) kuchsiz tomonlari</b>
<b>O-(opportunitu) to'siqlar</b>	<b>D-(tnreat) imkoniyatlar</b>

**Namuna:** Sport turlari bo'yicha trenerning professional kompetentligini rivojlantirish bo'yicha SWOT tahlilini ushbu jadvalga tushiring.

<p>S - Jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarining professional kuchli tomonlari</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>•</li> <li>•</li> <li>•</li> </ul>	<p>W- Jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarining professional kompetentligini rivojlantirish bo'yicha sport maktabining kuchsiz tomonlari</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>•</li> <li>•</li> <li>•</li> </ul>
<p>O- Jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarining professional kompetentligini rivojlantirish bo'yicha imkoniyatlar</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>•</li> <li>•</li> <li>•</li> </ul>	<p>T - Jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarining professional kompetentligini rivojlantirish bo'yicha to'siqlar</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>•</li> <li>•</li> <li>•</li> </ul>

### **“KICHIK GURUHLARDA ISHLASH” metodi**

**“Kichik guruhlarda ishlash” metodi** - ta'lim oluvchilarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlarga ajratgan holda o'quv materialini o'rganish yoki berilgan topshiriqni bajarishga qaratilgan darsdagi ijodiy ish.

Ushbu metod qo'llanilganda ta'lim oluvchi kichik guruhlarda ishlab, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rovida bo'lishga, bir-biridan o'rganishga va turli nuqtai- nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo'ladi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi qo'llanilganda ta'lim beruvchi boshqa interfaol metodlarga qaraganda vaqtni tejash imkoniyatiga ega bo'ladi. Chunki ta'lim beruvchi bir vaqtning o'zida barcha ta'lim oluvchilarni mavzuga jalb eta oladi va baholay oladi.

**“Kichik guruhlarda ishlash” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:**

1. Faoliyat yo'nalishi aniqlanadi. Mavzu bo'yicha bir-biriga bog'liq bo'lgan masalalar belgilanadi.

2. Kichik guruhlar belgilanadi. Ta'lim oluvchilar guruhlarga 3-6 kishidan bo'linishlari mumkin.
3. Kichik guruhlar topshiriqni bajarishga kirishadilar.
4. Ta'lim beruvchi tomonidan aniq ko'rsatmalar beriladi va yo'naltirib turiladi.
5. Kichik guruhlar taqdimot qiladilar.
6. Bajarilgan topshiriqlar muhokama va tahlil qilinadi.
7. Kichik guruhlar baholanadi.





## NAZARIY MATERIALLAR

## 1-MAVZU. JISMONIY TARBIYA VA SPORTDA PEDAGOG FAOLIYATINING VAZIFALARI.

### Reja:

- 1.1. Jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarining pedagogik faoliyati.
- 1.2. Pedagogning o'quv mashg'ulotiga qo'yiladigan didaktik talablar.

### 1.1 Jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarining pedagogik faoliyati.

«Ta'lim to'g'risida» gi Qonunda ta'lim sohasida amalga oshiriladigan ishlarning maqsadi, vazifalari va yo'nalishlarini belgilab berdi. “Ta'lim to'g'risidagi” Qonunning 5-bobi, “Ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlarining huquqiy maqomi” va 44-moddasida “Pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqi” Tegishli ma'lumoti, kasbiy tayyorgarligi bo'lgan va ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega. Magistraturani tamomlagan shaxslar va diplomli mutaxassislar o'z mutaxassisligi bo'yicha pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega.

Agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, pedagogik oliy ma'lumotga ega bo'lmagan shaxslarga qayta tayyorlash kurslaridan o'tganidan keyin ta'lim tashkilotlarida (bundan oliy ta'lim tashkilotlari mustasno) pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqi beriladi.

Ishlab chiqarish ta'limi ustalari qayta tayyorlash kurslaridan o'tmasdan professional ta'lim tashkilotlarida pedagogik faoliyat bilan shug'ullanishga haqli.

Zarurat bo'lganda professional ta'lim tashkilotlari ishlab chiqarish ta'limi ustalarini, shuningdek tegishli bilim hamda amaliy ko'nikmalarga ega bo'lgan, oliy ma'lumoti bo'lmagan boshqa mutaxassislarni amaliy va qo'shimcha mashg'ulotlarni olib borish uchun jalb etishi mumkin.

Shuningdek, “Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida (yangi tahrirda)”gi Qonunning 36-moddasida “Tegishli ma'lumotga va kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lgan shaxslarning jismoniy tarbiya va sport sohasida, shu jumladan davolash jismoniy tarbiyasi sohasida pedagogik faoliyat bilan shug'ullanishiga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yo'l qo'yiladi” deb belgilab qo'yilgan.

Xususan, 2018 yil 5 martda O'zbekiston Respublikasi Prezidentning “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan

takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi *PF-5368-sonli* Farmoni imzolandi. Ushbu Farmonda quyidagilar ommaviy sportni rivojlantirish va iste'dodli yoshlarni saralash (seleksiya) sohasida ta'lim muassasalarining ustuvor yo'nalishlari etib belgilandi:

**Kasb-hunar maktablarida-** o'quvchilar orasidan jismoniy tarbiya o'qituvchilarini jalb qilgan xolda iste'dodli yoshlarni saralab olish (seleksiya) xamda bolalar va o'smirlar sport maktablari sport zaxirasini shakllantirish maqsadida keyinchalik mintaqaviy sport musobaqalarida ishtirok etish uchun sinfdan tashqari sport to'garaklari va seksiyalari mashg'ulotlarini tashkil etish (haftasiga kamida 4 soatdan) shu Farmon asosida belgilab quyilgan;

"Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida" (yangi tahrirda) gi Qonunning 29-moddasi "Ta'lim tizimida jismoniy tarbiya va sportni tashkil etish" ga qaratilgan bo'lib, unda quyidagilar belgilab berilgan: "Ta'lim tizimida jismoniy tarbiya va sportni tashkil etish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- asosiy ta'lim dasturlari doirasida davlat ta'lim standartlari bilan belgilangan hajmlarda jismoniy tarbiya va sport bo'yicha majburiy mashg'ulotlarni, shuningdek qo'shimcha ta'lim dasturlari doirasida qo'shimcha (fakultativ) jismoniy mashqlar va sport mashg'ulotlarini o'tkazish;

- ta'lim oluvchilarni jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlariga jalb etish uchun shart-sharoitlar yaratish, shu jumladan yoshlarning jismoniy tarbiya-sport tayyorgarligi bo'yicha tadbirlar majmuini o'tkazish uchun sport jihozlari va anjomlari bilan ta'minlash;

- ta'lim oluvchilarda individual qobiliyatlari va sog'lig'i holatini hisobga olgan holda jismoniy tarbiya va sport ko'nikmalarini shakllantirish;

- o'quv mashg'ulotlari paytida jismoniy tarbiya tadbirlarini amalga oshirish;

- ta'lim oluvchilarning jismoniy tarbiyasi tashkil etilishi ustidan tibbiy nazorat olib borish;

- ota-onalarda yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarda bolalarining sog'lig'i va ularning jismoniy tarbiyasiga nisbatan mas'uliyatli munosabatni shakllantirish;

- bolalar va yoshlarning jismoniy tayyorgarligini hamda jismoniy rivojlanishini har yili monitoring qilish;

- ta'lim oluvchilar ishtirokida sport tadbirlarini, shu jumladan xalq ta'limi tizimining ta'lim muassasalari o'quvchilari («Umid nihollari»), o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'quvchilari («Barkamol avlod») hamda oliy ta'lim muassasalari talabalari («Universiada») ishtirokida uch bosqichli sport musobaqalari tashkil etilishi va o'tkazilishiga ko'maklashish”.

“Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida (yangi tahrirda)”gi Qonunning *Z-moddisida* quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

**jismoniy tarbiya** — madaniyatning insonni jismoniy tarbiyalash, jismoniy rivojlanish va jismoniy tayyorgarlik orqali jismoniy hamda intellektual jihatdan kamol toptirish, uning qobiliyatini va harakat faolligini takomillashtirish, sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirish, ijtimoiy moslashtirish maqsadida jamiyat tomonidan yaratiladigan hamda foydalaniladigan qadriyatlar, normalar va bilimlar yig'indisidan iborat bo'lgan qismi;

**jismoniy tarbiyalash** — yuksak madaniyatga ega bo'lgan har tomonlama yetuk hamda jismonan sog'lom insonni shakllantirish maqsadida shaxsni tarbiyalashga, insonning jismoniy imkoniyatlarini rivojlantirishga, uning jismoniy tarbiya va sport sohasida malaka va bilimlarini orttirishga qaratilgan jarayon;

**jismoniy tarbiya yoki sport tadbiri tashkilotchisi** — o'z tashabbusi bilan jismoniy tarbiya yoki sport tadbiri o'tkazayotgan va (yoki) bunday tadbirni tayyorlash hamda o'tkazishni tashkiliy, moliyaviy va moddiy jihatdan ta'minlashni amalga oshirayotgan yuridik yoki jismoniy shaxs;

**Quyidagilar jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi faoliyatining asosiy maqsadi hisoblanadi:**

- bolalarga sportga muhabbatni singdirish;
- o'sib kelayotgan avlodda sport bilan shug'ullanish, sog'lom turmush tarzini olib borish, jismoniy va ma'naviy komillikka intilish muhimligi tushunchasini shakllantirish;
- bolalarni salbiy ta'sirlardan himoya qilishga va zararli odatlardan xalos etishga

doir chora-tadbirlar majmuini amalga oshiradi.

**Quyidagilar kasb-hunar maktablarida jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi faoliyatining asosiy vazifalari hisoblanadi:**

- bolalarni jismoniy tarbiyalashning zamonaviy shakllari xamda usullarini;
- bolalarning jinsi va yoshiga qarab ularga sport ko'nikmalarini singdirishning;
- sportga qobiliyatli bolalarni ixtisoslashtirilgan sport ta'lim muassasalarida o'qitish uchun tanlab olishning ilmiy asoslangan tizimlarini ishlab chiqishni xamda joriy etishga ko'maklashishni tashkil etadi.

**Kasb-hunar maktablarida jismoniy tarbiya o'qituvchisining asosiy vazifasi** hisoblangan mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazish Davlat talablari (o'quv reja, dastur, darslik va qo'llanma) asosida belgilanadi.

O'quv mashg'ulotlari ta'lim-tarbiya ishlarining asosiy tashkiliy shakli ekan, bu jarayonda quyidagilarga amal qilinishi lozim:

1. Mashg'ulot qat'iy jadval bo'yicha belgilangan aniq muddatda olib borilishi kerak.
2. Mashg'ulot o'qituvchi rahbarligida butun guruh bilan va alohida o'quvchilar bilan ishlash shaklida olib boriladi.
3. Mashg'ulot o'quv dasturi mazmuniga qarab turli metod va vositalarda olib boriladi va ta'lim tizimining bir qismi sifatida tugallangan bilim va ko'nikma beradi va navbatdagi bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirmoq uchun zamin yaratadi.

**Dars** – ta'limning asosiy shakli ekan, u ilmiy, tizimli, tushunarli, ongli va faol bo'lishi, bilimlar mustahkam o'zlashtirilishi va amaliy ko'nikmalar shakllanishi o'quvchining shaxsiy xususiyatlari e'tiborga olingan holda tashkil etilishi mashg'ulot oldiga qator didaktik talablarni qo'yadi.

**Jumladan:**

1. Har bir dars aniq maqsadni ko'zlagan holda puxta rejalashtirilmog'i lozim. Bu jarayonda jismoniy tarbiya o'qituvchisi darsning ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsadini belgilaydi.

2. Mashg'ulot bosqichlarini to'g'ri taqsimlay olish lozim. Ya'ni mashg'ulotni qanday boshlash, uni o'tkazish va qanday tamomlash oldindan hal qilib olinishi kerak.

3. Mashg'ulot o'tiladigan joy sanitar-gigienik talablarga javob berishi kerak.

4. Har bir o'quvchi texnika xavfsizligi qoidalari bilan tanishtirilishi shart.

5. Har bir mashg'ulot mavzuga mos ravishda o'quvchilar soni va yoshiga mos ravishda kerakli vositalar bilan jihozlanmog'i lozim.

6. Har bir mashg'ulot aniq g'oyaviy, mafkuraviy izlanishga ega bo'lishi lozim. O'qituvchi esa ulardan tarbiyaviy maqsadda tarbiya metodlaridan samarali foydalanmog'i lozim.

7. Har bir mashg'ulot xarakteriga mos usul, shakl va vositalardan samarali foydalanilgan holda tashkil etilishi lozim.

8. Mashg'ulot uchun ajratilgan soat va daqiqalarni tejash va unumli foydalanish darkor.

9. Dars jarayonida o'qituvchi va o'quvchi o'zaro faol munosabatda bo'lishi lozim.

10. Mashg'ulotlar butun guruh bilan va har bir o'quvchi bilan, ularning shaxsiy xususiyatlari e'tiborga olingan holda olib borilish kerak.

11. Mashg'ulotning mazmuni va xarakteriga qarab xalqimizning boy ma'naviy merosidan va ma'naviy qadriyatlaridan samarali foydalanish.

Oldimizda turgan dolzarb vazifa — mustaqil hayotiy pozitsiya, ijtimoiy faollik, yuksak aqliy va ma'naviy salohiyatni shakllantirishga qaratilgan shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, ya'ni ta'lim-tarbiya berishning noyob tizimi — “o'zbek modeli”ni hayotga yanada kengroq tatbiq etishni taqozo etadi.

## 1.2. Pedagogning o'quv mashg'ulotiga qo'yiladigan didaktik talablar.

O'quvchilarning o'quv mashg'ulotiga egallab olishi lozim bo'lgan hamda tizimga solingan bilim, malaka va ko'nikmalarning aniq belgilangan doirasi tushuniladi

“Didaktika” so'zi grekcha “Didasko” so'zidan olingan bo'lib, “Uqitish, o'rgatish” degan ma'noni bildiradi. Didaktikaning o'rganish ob'ekti o'quv jaraèni, o'quv jaraèining rivojlanish qonuniyatlari, o'qitish tamoyillari, metodlari va shakllaridir. Didaktika“ atamasi ilk bor Yevropada 17-asrda o'qitish va ta'lim jarayoni haqida asarlar yaratgan olimlar tomonidan qo'llanila boshlagan. Chex pedagogi Yan Amos Komenskiy o'zining “Buyuk didaktika” asarida (1657) bolalar va o'smirlarni ma'lumotli qilish va ularga ta'lim berishning didaktik jihatlarini ishlab chiqdi. Nemis pedagogi Adolph Diesterweg o'zining „Nemis o'qituvchilarini o'qitish uchun yo'riqnoma“ (1834 -35) asarida didaktikaning pedagogikada ta'lim nazariyasini bayon etuvchi alohida qism ekanligini ta'kidlagan. Shundan keyin didaktikaga ta'lim nazariyasi haqidagi fan sifatida qarash keng yoyildi. 19-yuzyillikning so'ngi va 20-yuzyillikning boshlarida didaktikaga oid maxsus monografiyalar yaratila boshlandi. Hozirgi zamon pedagogikasida didaktikaga ta'lim va ma'rifat berish nazariyasi bilan shug'ullanadigan alohida soha sifatida qaraladi. Ta'lim mazmunini aniqlash, ta'lim jarayoni qonuniyatlarini ochish hamda o'qitishning eng samarador usul va yo'llarini topish didaktikaning asosiy muammolaridir. Didaktikaning mohiyatini belgilash, yo'nalishini aniqlashda falsafiy-nazariy asosning o'rni katta. Didaktika umumiy psixologiya, o'qitish psixologiyasi hamda bilish nazariyasi bilan uzviy bog'liq. Bu fanlarning har biri bolaning bilish faoliyati va uni amalga oshirilish jarayoni to'g'risida alohida bilim beradi. Ta'lim mazmuni va usullarini belgilash borasida ham mazkur aloqadorlik katta ahamiyatga ega. Didaktika har qanday alohida predmetni o'qitish va uning mazmunini tayin etish qonuniyatlarini aniqlaydigan fan sifatida ta'lim va ma'rifat ishlarini samarali tashkil etishning

umumiy usullarini belgilab berishi lozim. Ayni vaqtda, alohida predmetlarni o'qitish metodikasi maktab amaliyotining aniq tajribalaridan kelib chiqqanligi uchun didaktikaning tamoyillari ta'lim jarayonida uchraydigan har xil favqulodda hodisalarning o'ziga xosligini hisobga olgan holda tuziladi. O'zbek milliy pedagogikasi tarixida ham didaktikaning asosiy xususiyatlarini aks ettirishga bag'ishlangan ko'pgina tadqiqotlar mavjud. Garchi turkiy mutafakkirlarning asarlarida didaktika hozirgi nom bilan atalmagan bo'lsada, lekin ular ta'lim jarayonining qonuniyatlarini belgilashi, uni tashkil etishning yo'l-yo'riqlarini ko'rsatishi jihatidan beqiyos ahamiyatga ega. Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ahmad Al-Farg'oniy, Marg'inoniy, Davoniy, Alisher Navoiy, Munis singari mutafakkirlarning ta'limni uyushtirish, uning samaradorligini oshirish, o'qitish jarayonida o'qituvchi va o'quvchi munosabatlari borasidagi qarashlari jahon ped. taraqqiyotining o'ziga xos bosqichini tashkil etadi. Muayyan yoshdagi bolalarni jamoa tarzida bir joyda o'qitishning samaradorligi ilk bor Ibn Sino tomonidan ko'rsatib berilgan bo'lsa, muallimning o'zida ezgu insoniy sifatlar bo'lmasa, bolalarda bunday hislatlarni shakllantirish mumkin emasligi Navoiy asarlarida aks etgan. Marg'inoniy esa, bilimlarni o'zlashtirish yuzasidan umumiy tavsiyalar beribgina qolmay, o'rganilgan tushunchalarni bolalar xotirasida uzoqroq saqlash yuzasidan aniq metodik usullar ham tavsiya etgan. O'zbek milliy didaktikasining shakllanishida jadidchilik harakati, xususan, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abduqodir Shu kuriy, A. Ibodiyev, M. Behbudiy, A. Avloniy, S. Saidazizov, R. Yusufbekov kabi ma'rifatparvar-pedagoglarning faoliyati alohida muhim bosqich bo'ldi. 20-asr boshlarida vujudga kelgan jadidchilik turkiy xalqlarning kad. shonu shuxratini tiklash uchun uni ma'rifatli qilishdan o'zga yo'l yo'kligini to'g'ri belgiladi. Jahon ped. sining eng so'nggi yutuklaridan xabardor bo'lgan, ayni vaqtda ta'limni tashkil etishda ko'p asrlik milliy tajribalarni hisobga olgan, didaktikaning metodologik asosi sifatida islomiy e'tiqodni belgilagan jadidlar o'qitish borasida yuksak natijalarga erishdilar. Jadid mutafakkirlar ta'limni uyushtirishning amaliy jihatlari b'ngina shug'ullanib qolmay, uning nazariy masalalarini ham tadqiq etganliklari diqqatga sazovordir. Jadidlarning didaktik



karashlari ularning ko'plab pedagogik asarlari, darelik va qo'llanmalarida aks etgan. Didaktikaning predmeti - ta'lim-tarbiya muassasasi sharoitida muallimning rahbarligi ostida amalga oshadigan o'quv jarayonidir. Didaktikada ana shu jarayonning qonuniyatlari tadqiq qilinadi, har xil tipdagi ta'lim-tarbiya muassasalarida u yoki bu darajada beriladigan ta'lim mazmunini belgilashning ilmiy asoslari, o'qitish vositalari va metodlarining samaradorligini oshirish yo'llari hamda ta'limning tashkiliy shakllari ishlab chiqiladi.

O'qitish nazariyasi bilimlar, ma'lumotlar va faktlarning katta zaxirasiga ega, ularning bir qismi tizimlashtirilgan, tartibga solingan. O'qitish jarayonining strukturaviy komponentlari - maqsadli rag'batlantirish - motivlashtirish, mazmuniy, harakat - faoliyat o'qitishning shakl va metodlarining ajratilishi alohida ahamiyat kasb etadi. Mana shu komponentlarning ajratilgani o'qituvchi bilan o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati qonuniyatlarining tabiatini chuqurroq tushunish imkonini beradi. Pedagogik yechimlarni tanlash nazariyasi ishlab chiqishning metodologik asosi - o'qitish jarayonining mavjud barcha qonuniyatlarini hisobga olish fikri bilan muntazam aloqada bo'ladi. Boshqacha aytganda, o'qitish jarayonining mavjud hamma qonuniyatlarini albatta kompleks holda hisobga olish bilangina ta'lim masalalarini to'g'ri hal qilish mumkin. Pedagogik va psixologik shart-sharoitlarni aniqlash asosida o'qitishning optimalligi mezonlarining asoslari tarkib toptirilgan va ularning eng ahamiyatlilari quyidagilardan iboratdir: O'qitish optimal bo'lishi uchun har bir o'quvchi o'zining haqiqiy o'qish imkoniyatlariga muvofiq darajada o'zlashtirishi, tarbiyalanishi va kamol topishi shart; O'qitish optimal bo'lishi uchun o'quvchilar va o'qituvchilar darsdagi va uydagi ishlar vaqtining o'zlari uchun gigienik jihatdan belgilangan normasiga ega bo'lishi kerak. Rejalashtirishni optimallashtirishning asosiy yo'llari o'qitishning vazifalarini ta'lim berish, tarbiyalash va kamol toptirish bilan birgalikda loyihalashga kompleks yondosh ish hamda o'qitish vazifalarini u amalga oshadigan tizimining xususiyatlarini hisobga olgan holda muayyanlashtirishdir. Ishni rejalashtirishda quyidagi usullardan foydalaniladi: o'qitish mazmunining qo'yilgan vazifalarini eng muvafaqiyatli hal qilishni

“Pedagogika va psixologiya” kafedrası

ta'minlaydigan optimal variantini tanlash; o'qitishning qo'yilgan vazifalarni belgilangan vaqt ichida muvaffaqiyatli hal qilishni ta'minlaydigan metodlari va vositalarini tanlash; masalalarni muvaffaqiyatli hal qilishni, shu jumladan o'quvchilarga tabaqali yondoshishni ta'minlaydigan tashkiliy shakllarini tanlash. Hozirgi paytda ta'limning muhim jihatlar, masalan, ta'limning mazmunini ishlab chiqish va tanlash, muammoli kamol toptiruvchi o'qitish, o'quvchilarning o'qishini faollashtirish, o'qitish metodlari va ularning tarkibiy qismlari; o'quvchilar o'quv-bilim faoliyatining metodlari; o'quv materialini tashkil qilish va strukturalashtirish va hokazolar jadal o'rganilmoqda.

Didaktikada ishlab chiqilgan o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish nazariyasi muammoli - kamol toptiruvchi o'qitish nazariyasiga juda yaqindir. Faollik nazariyasining asosiy g'oyasi ham maxsus tashkil etilgan ta'lim muhitida (o'qitishning mazmuni, shakllari va metodlari bilan) o'quvchilarning faolligini tobora oshirib borishdan iboratdir. Ishlab chiqilgan faollik nazariyasi o'quv jarayonida bilimlarni o'zlashtirish, ularni qayta imtixonlash va qo'llashning (muammoli va reproduktiv) usullarini o'rganish bo'yicha tashkil etiladigan o'zini-o'zi boshqariladigan faollikdan iboratdir. Didaktika ta'lim usullari muammosini ham qamrab oladi. O'qituvchi biror predmet bo'yicha o'quvchilarning tizimli bilim olishini ta'minlash maqsadi sari intilar ekan, ma'lum ishlarning bajarilish namunasini ko'rsatadi. Ayni vaqtda, u ta'limning barcha bosqichlarida o'quvchining faolligi va mustaqilligini ta'minlaydi. O'quvchilar o'qituvchi rahbarligida tajriba va kuzatuvlari asosida yangi bilimlarni o'zlashtiradi. Ularga chuqur va mustaqil o'zlashtirishlari, o'rgangan bilimlarini amaliyotda ijodiy qo'llashlari uchun maxsus topshiriklar beriladi.

### **NAZORAT SAVOLLARI**

1. Jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarining pedagogik faoliyati.?
2. Pedagogning o'quv mashg'ulotiga qo'yiladigan didaktik talablar?
3. Faoliyat qisqa muddatli, faqatgina tizimdagi ayrim elementlarni o'zgartirishga xizmat qilsa u nima deb yuritiladi?
4. Muayyan tizimning rivojlanishiga yoki uni tubdan o'zgartirishga xizmat qiladigan faoliyat natijasi qanday nomlanadi?

5. Ta'lim sohasida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qo'llanilishi nima deb nomlanadi?

6. Pedagogik muammo nima?

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 4-sentabrdagi O'RQ-394-son "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi Qonuni
3. Akmalov A. Sport, malaka oshirish ta'limida innovatsiya va interfaol texnologiyalar – Toshkent: "Umid Dezgin" – 2022., 72b.
4. Avliyoqulov N.X. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari. –Toshkent: O'qituvchi, 2001. – 69 b.
5. Tursualiyev I.A., Amonov A.N., Yeldasheva G.V., Dexkambayeva Z.A. Murabbiy-o'qituvchning pedagogik kompetensiyasi va mahorati. Uslubiy qo'llanma.- T.: Ilmiy –texnika axborot-press nashriyoti, 2019 .- 92 b.
6. Yeldasheva G., Karimova G. Ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiya elementlaridan foydalanish. Metodik qo'llanma. / T.: Lesson press, 2020

## 2-MAVZU. PEDAGOG KASBIY KOMPETENLIGINING RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.

### Reja:

- 2.1. Kompetentlik va kompetensiya tushunchalari mohiyati.
- 2.2. Kasbiy kompetentlik va uning sifatlari.

### 2.1.Kompetentlik va kompetensiya tushunchalari mohiyati.

Jamiyat, fan va madaniyatning rivojlanishi ta'lim va tarbiya ishlarining qay yo'sinda olib borilishiga bog'liqdir. Bu falsafiy aqida davlat ahamiyatiga ega bo'lgan ijtimoiy qonuniyat hisoblanadi. Davlatning buyuk kelajagi, albatta, yoshlarni chuqur bilimli va barkamol shaxs taqdiri bilan bog'liqligini unutmagan holda, ushbu muammoni mahoratli, bilimli pedagoglar faoliyatiga tayanib echish mumkinligini unutmashimiz lozim.

O'zbekiston Respublikasidagi ta'lim turlarining barchasida pedagoglar faoliyat olib boradi. Shu bois, "Ta'lim to'g'risidagi" Qonunda pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqi belgilab berilgan.

"Ta'lim to'g'risidagi" Qonunning "Ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlarining huquqiy maqomi" nomli 5-bobining **44-modda**si: "Tegishli  
"Pedagogika va psixologiya" kafedrasi

ma'lumoti, kasbiy tayyorgarligi bo'lgan va ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega" deb belgilangan.

Demak, ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan har bir pedagog kompetensiyaga ega bo'lishi muhimdir.

**“Kompetensiya”** – lotincha *competere* degan so'zdan olingan bo'lib, “loyiq”, “mos kelmoq” ma'nosini beradi.

Pedagogika ensiklopediyasida “kompetensiya” so'ziga quyidagicha izoh berilgan: “Kompetensiya (lotincha *competo-erishyapman*, munosibman, loyiqman) – 1) muayyan davlat organi yoki mansabdor shaxsning qonun, ustav yoki boshqa hujjat bilan belgilangan vakolatlari, huquq va burchlari doirasi; 2) u yo bu sohadagi bilimlar, tajribalar; 3) shaxsning biror-bir sohadan xabardorligi, shu sohani bilishi darajasi”.

**Kompetensiya** – olingan nazariy bilim, amaliy ko'nikma, malaka va shaxsiy fazilatlar majmuasini amaliyotga mustaqil va ijodiy qo'llay olish layoqati.

Umuman olganda, kompetensiya *muayyan shaxs* doirasida o'rganilganda, insonning rivojlantirishi zarur bo'lgan kuchli tomonlarini, sifatlarini yuzaga chiqarishda va ishni eng yaxshi, samarali bajarish mumkin bo'lgan usullarini aniqlashda yordam bersa, *tashkilot* miqyosida esa hamkasblarni o'qitishga bo'lgan ehtiyojlarni va berilgan maslahatlar natijasida to'lmay qolgan “bo'shliq”larni to'ldirishda asqotadi.

Albatta, trener-o'qituvchi nafaqat ma'lum bir sport turi bo'yicha o'quvchilarda ko'nikma va malakalari shakllantiruvchi ta'lim beruvchi, shu bilan birga u tarbiyachi hamdir. Trener-o'qituvchi ma'lum sport turini o'rgatish orqali o'quvchini tarbiyalaydi. U o'quvchilarda jismoniy sifatlarni rivojlantirish orqali ularni ham jismonan sog'lom, ham ma'nan yetuk shaxs bo'lib shakllanishida muhim rol o'ynaydi va ularda mehnatsevarlik, mas'uliyatlilik, vatanparvarlik, intizomlilik va shu kabi boshqa sifatlarni ham shakllantiradi.

Shu o'rinda buyuk mutafakkirimiz Abduraxmon Jomiyning quyidagi fikrlarini havola etmoqchimiz: “Muallim bilimli, aqlli, adolatli, o'zida butun yuksak

fazilatlarni mujassamlashtirgan bo'lishi kerak. O'zini nomunosib tutgan odam hech vaqt bolalarga bilim va odob bera olmaydi”.

Ayrim trener-o'qituvchilar pedagogik kompetensiyaga ega bo'lishi uchun, avvalo ta'lim-tarbiya metodlarini takomillashtirishga intiladilar. Bu tabiiy hol, chunki aynan metodlar yordamida trener-o'qituvchi o'z o'quvchilarini turli o'quv faoliyatiga jalb qiladi. Shu bilan birga, o'quvchilarni bilim olishga qiziqtirishda o'qituvchi tomonidan tanlangan metodlar, usullar va topshiriqlardan boshqa sabablar ham ta'sir etadi. Trener-o'qituvchi faoliyatining muvaffaqiyatli kechishi uning shaxsi, xarakteri, o'quvchilar bilan muomalasiga ham ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Odatda bularning ta'lim-tarbiya jarayoniga ta'siri ahamiyatsizdek tuyuladi. Ammo tajribali trener-o'qituvchi, uning xatti-harakati o'quvchilarga qanday ta'sir ko'rsatayotganligiga ahamiyat berib, unga kerakli tuzatishlar kiritib, takomillashtirib boradi. Shuning uchun ham pedagogik kompetensiyani o'qituvchi shaxsi sifatlarini majmui sifatida qaralib, uni o'qituvchi yuqori darajada psixologik-pedagogik tayyorgarlikka ega bo'lishi bilan bog'liq bo'lishini unutmash lozim.

Buning uchun jismoniy tarbiya va sport ta'limi muassasalarida faoliyat olib borayotgan har bir trener-o'qituvchining tayanch kompetensiyalarga ega bo'lishi o'ta muhim jarayondir.

Pedagogikada “kompetentlik” atamasi ham ishlatiladi.

**Kompetentlik** – *aniq vaziyatda kompetentni namoyon qilish hisoblanadi.*

**Kompetentlik** – (lotincha “competens” – “layoqatli”, “qobiliyatli”) deganda faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish tushuniladi.

Kompetentlik tarkibiga mustaqillik, tashabbuskorlik, hamkorlik, vaziyatni real baholay olish, mantiqiy fikrlash, axborotni saralash va undan oqilona foydalanish xususiyatlari ham kiradi. Demak, kompetensiyaviy yondashuv bilim, ko'nikma va malakani inkor etmagan holda, egallangan bilimlarni amalda qo'llay olish qobiliyatini rivojlantirishga katta e'tibor qaratadi.

Shu bilan birga Pedagogika ensiklopediyasida “kompetentlilik” atamasiga quyidagicha izoh berilgan: “Kompetentlilik – 1) ma'lum holat hususida to'g'ri mulohaza yuritishga imkon beradigan bilimga ega bo'lish, dalil-isbotli fikr, kishining muayyan sohadagi saviyasi; 2) pedagogning barcha imkoniyatlardan foydalana olishi, o'ziga va o'z ishiga nisbatan talabchanligi, maktab, oila va mahalla hamkorligini yo'lga qo'ya olishi, o'z ishining ustasi bo'lgan, sohaning sirlarini har tomonlama chuqur bilgan, o'zini o'zi rivojlantiruvchi hamda o'z qobiliyati va imkoniyatlarini to'la ishga sola oladigan pedagog layoqati.”

Trener-o'qituvchining kompetentligi pedagogik qobiliyatning shakllanganiga bog'liq bo'ladi va qobiliyat, malaka va uddaburonlikdan farq qiladi. Malaka va uddaburonlik mashq, o'qish natijasi hisoblansa, qobiliyatning rivojlanishi uchun esa yana iste'dod, layoqat va zehn, ya'ni inson nerv tizimida anatomo-fiziologik asos bo'lishi ham zarur.

Demak, kompetentlik sport ta'lim muassasasi trener-o'qituvchilarining ma'naviy dunyoqarashi, psixologik-pedagogik va tashkiliy texnologik salohiyati, ya'ni uning kasbiy imkoniyatlari salohiyatini ifodalaydi. Mazkur salohiyatni sport ta'lim muassasalari pedagogik faoliyati jarayonini o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, ular tomonidan tashkil etilayotgan pedagogik jarayonlarning holati va samaradorligi orqali aniqlash mumkin bo'ladi.

Ta'lim muassasasi trener-o'qituvchilar pedagogik jarayonlarini ilmiy asosda tashkil etish va uni boshqarishda innovatsion yondashuvlarga asoslanish, kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy sifatlarga ega bo'lish, ixtiyoriy vaziyatlarda o'z-o'zini nazorat qila olish, shuningdek, ta'lim muassasasida hukm suruvchi tarbiyaviy munosabatlarni e'tiborga olgan holda faoliyat olib borish, turli xil masalalarni va muammolarni hal etishda mavjud huquqiy-me'yoriy mezonlarga asoslanish zarur bo'lib, bular trener-o'qituvchining kasbiy kompetentligini ifodalaydi.

Trener-o'qituvchi professional kompetentlikka quyidagi bosqichlarda erishishi mumkin:

- pedagogika, psixologiya fanlarini chuqur o'rganish;

- maxsus fanlar, ularni o'qitish metodikasini chuqur bilish;
- o'z kasbiga qiziqish, pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish;
- o'z faoliyatini doimo tahlil qilib, unga nisbatan tanqidiy munosabatda bo'lish;
- o'z ustida mustaqil ishlash, shaxsiy malakasini muntazam oshirib borish;
- o'z-o'ziga talabchanlik, mas'uliyatni teran his etish;
- pedagogik jarayonni to'g'ri tashkil etish, o'quvchilar jamoasini faolligini oshirish, jamoani birlashtirish, o'quvchilar orasida shaxslararo munosabatni to'g'ri yo'lga qo'ya olish;
- murakkab va muammoli vaziyatlarda ta'lim oluvchini ruhlantirib borishi;
- trener-o'qituvchi va o'quvchi orasidagi qaytar aloqani to'g'ri ta'minlay olish;
- ta'limning sermahsul, interfaol va innovatsion metod va usullarini bilishi, mashg'ulot jarayonida qo'llay olishi.

Trener-o'qituvchi o'zini egallab turgan lavozimi darajasida professional kompetentlikka ega ekanligini his etgandagina pedagogik jarayonni muvoffaqiyatli tashkil etishi mumkin, degan xulosaga keldik. Zotan uni kasbiy bilimdonlik, halollik, rostgo'ylik, izlanuvchanlik, tinimsiz sermahsul mehnat, ijodkorlik va yaratuvchanlik kabi fazilatlar yuksaltiradi. Uning bilimdonligi, faolligi, mehnatkashligi, kamtarligi, m'naviyati va madaniyati, ma'rifatliligi o'quvchilari, bo'lajak kasb egalarining hurmat-ehtiromiga sazovor etadi.

Pedagogik jarayonlarni tashkil etish, boshqarish, sifat va samaradorligini barqaror rivojlantirishda trener-o'qituvchilarning faoliyati samaradorligi asosan ularning pedagogik jarayonlari va ularni tashkil etish va boshqarish yo'nalishidagi tushunchalari, bilimi, ko'nikma va malakalari darajasiga hamda ularning shaxsiy xususiyatlari va kasbiy amaliyotga ega bo'lgan shaxsiy sifatleri shuningdek qobiliyatlari, mahorati va kasbiy tajribasiga bog'liq bo'ladi.

Chunki trener-o'qituvchi shaxsi pedagogik jarayonlarini tashkil etish, boshqarish, sifat va samaradorligini oshirish hamda o'quvchilarning sport

---

“Pedagogika va psixologiya” kafedrası

faoliyatini muvofiqlashtirishga boshqaruvchi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, trener-o'qituvchi pedagogik jarayonlarni ham boshqaruvchisi, ham ishtirokchisi sifatida tegishli ma'lumotga, kasbiy tayyorgarlikka va yuksak axloqiy fazilatlariga ega bo'lish zaruriyati bejiz belgilanmagan.

## 2.2. Kasbiy kompetentlik va uning sifatlari.

**Professional kompetentlik** – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishi.


Professional kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Professional kompetentlik quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo'ladi:

- murakkab jarayonlarda;
- noaniq vazifalarni bajarishda;
- bir-biriga zid ma'lumotlardan foydalanishda;
- kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo'la olishda.

Professional kompetentlikka ega mutaxassis:

- o'z bilimlarini izchil boyitib boradi;
- yangi axborotlarni o'zlashtiradi;
- davr talablarini chuqur anglaydi;
- yangi bilimlarni izlab topadi, ularni qayta ishlaydi va o'z amaliy faoliyatida samarali qo'llaydi.

Professional kompetentlik bir necha sifatlardan iborat bo'ladi.





## 21-rasm. Professional kompetentlik sifatleri

Quyida professional kompetentlik negizida aks etuvchi sifatlarning mohiyati qisqacha yoritiladi.

1. **Ijtimoiy kompetentlik** – ijtimoiy munosabatlarda faollik ko'rsatish ko'nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda subyektlar bilan muloqotga kirisha olish.

2. **Shaxsiy kompetentlik** – izchil ravishda kasbiy o'sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o'z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish.

3. **Texnologik kompetentlik** – kasbiy-pedagogik bilim, ko'nikma va malakani boyitadigan ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish.

4. **Ektremal kompetentlik** – favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, travma olish holatlari, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to'g'ri harakatlanish malakasiga egalik.

5. **Maxsus kompetentlik** – kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash, bilim, ko'nikma va malakani izchil rivojlantirib borish bo'lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko'zga tashlanadi.

Ular o'zida quyidagi mazmuni ifodalaydi:

a) **psixologik kompetentlik** – pedagogik jarayonda sog'lom psixologik muhitni yarata olish, o'quvchilar va ta'lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o'z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish;

b) *metodik kompetentlik* – pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta'lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to'g'ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo'llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo'llash;

c) *informatsion kompetentlik* – axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma'lumotlarni izlash, yig'ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o'rinli, samarali foydalanish;

d) *kreativ kompetentlik* – pedagogik faoliyatga nisbatan tanqidiy va ijodiy yondoshish, o'zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish;

e) *innovatsion kompetentlik* – pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta'lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g'oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etish;

f) *kommunikativ kompetentlik* – ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari, jumladan, o'quvchilar bilan samimiy muloqotda bo'lish, ularni tinglay bilish, ularga ijobiy ta'sir ko'rsata olish.

Mashhur biznes-murabbiy, SBA (*Student of Business Administration*) universiteti asoschisi Vladislav Shipilovning “Professional kompetentlikni rivojlantirish darajalari”ga ko'ra ularga mos xususiyatlarini tahlil qilgan.

## 2-jadval

DARAJA	DARAJA TASNIFI
<p><b>5. Mohir (professional) mutaxassis</b> (Mahoratni rivojlantirishning oliy (eng yuqori) darajasi)</p>	<p>O'z sohasida yuqori darajadagi professional, ekspert (avtoritet) darajasiga erishgan mutaxassis. Muayyan yo'nalish (kasb, ixtisoslik) bo'yicha malakalarni rivojlantirish, yanada takomillashtirish, boshqalarga o'rgatish kompetensiyalariga ega shaxs</p>
<p><b>4. Ilg'or mutaxassis</b> (Mahoratni rivojlantirishning yuqori darajasi)</p>	<p>Yuqori malakaga ega bo'lgan, o'z ko'nikmalarni murakkab jarayonlar va nostandart holatlarda ham to'g'ri qo'llash tajribasiga ega mutaxassis</p>
<p><b>3. Tajribali mutaxassis</b> (Mahoratni rivojlantirishning</p>	<p>O'z sohasi bo'yicha yetarli bilim va malakaga, tajribaga ega bo'lgan va bu bilimlarini amaliyotga</p>

o'rta darajasi)	samarali qo'llay oluvchi mutaxassis
<b>2. Rivojlanayotgan mutaxassis</b> (Mahoratni rivojlantirishning past darajasi)	Muayyan malaka va ko'nikmalarni egallash jarayonidagi shaxs. Uning ahamiyati va mohiyatini anglagan, bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishga harakat qilayotgan, ammo uni amaliyotda barqaror qo'llay olmayotgan shaxs
<b>1. Malakasiz daraja</b> (Mahoratni rivojlantirishning eng past darajasi)	Malaka darajasiga ega bo'lmagan, uning ahamiyati va mohiyatini tushunmagan, bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishga harakat qilmayotgan shaxs

Trener-o'qituvchilarning professional kompetentligi ta'lim muassasasi faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish va boshqarish yo'nalishidagi tushunchalar darajasi, uning tashkilotchilik, tadqiqotchilik, boshqaruvchilik va pedagogik qobiliyat va ko'nikmasi, uning o'z-o'zini rivojlantirishga va uzluksiz mustaqil ta'lim olishga bo'lgan moyilligi, intilishlari, shuningdek, zamonaviy talablar asosida pedagogik jarayonlarni tashkil etish, unda o'quvchilar faolligini ta'minlash va faoliyatini takomillashtirish imkoniyatlari orqali aniqlanadi.

Demak, ta'lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy asoslarda tashkil etish, o'quvchilar faolligini ta'minlash va faoliyatini muvofiqlashtirish asosida pedagogik jarayonlarning sifat va samaradorligini ta'minlashda zamonaviy yondashuvlarga asoslanadigan, yuksak axloqiy sifatlarga ega bo'lgan, o'z-o'zini va o'z faoliyatini o'zi tahlil qiladigan va ob'ektiv baholay oladigan, boy falsafiy va ma'naviy dunyoqarashga, psixologik-pedagogik va tashkiliy-texnologik salohiyatga ega bo'lgan, shuningdek, axborotlar to'plash, tahlil qilish, ob'ektiv baholash, qayta ishlash va axborotlar almashtirish, pedagogik jarayonlarda vujudga kelgan muammoli vaziyatlarda ta'lim oluvchilar faolligini ta'minlash va faoliyatini muvofiqlashtirish, pedagogik jarayonlar samaradorligi va o'quvchilar faolligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni oldindan aniqlash asosida ta'lim-tarbiya

jarayoni samaradorligini oldindan ko'rish ko'nikmalariga ega bo'lgan hamda ta'lim-tarbiya jarayoni sub'ektiv faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish va boshqarish, muvofiqlashtirish faoliyatni ta'minlash yo'nalishida zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lgan pedagogni kompetentli trener-o'qituvchi deyishimiz mumkin.

Trener-o'qituvchining pedagogik kompetentligi yo'nalishida qo'yilayotgan eng asosiy talablaridan biri ona-yurtga muhabbat va sadoqat, Vatan va vatanparvarlik tuyg'ularini o'quvchilar qalbi va ongiga singdirish, o'quvchilarda mustaqil O'zbekiston ramzlarining mazmun va mohiyati, milliy an'analar va o'yinlar, urf-odatlar va qadriyatlar, mustaqillik, uning mazmun-mohiyati, ahamiyati va zaruriyati yo'nalishidagi tushunchalarni shakllantirish va rivojlantirish yo'nalishlarida sport bilan bog'lagan holda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish va boshqarish bilan bog'liq funksiyalarni bajarish yo'nalishidagi tashkilotchilik, tadqiqotchilik va ijodkorlik qobiliyatlari hamda muhim ahamiyat kasb etuvchi shaxsiy sifatning shakllanganlik zaruriyatlarini o'z ichiga oladi.

Dunyoda pedagogning professional kompetentligi va uning ilmiy-metodik ta'minotini shakllantirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning pedagogik-psixologik mexanizmlarini takomillashtirishga oid qator, jumladan,

- pedagogda professional kompetentlikni shakllantirish asosida mutaxassislarning individual imkoniyatlarini takomillashtirish;
- pedagoglarda kasbiy, kommunikativ, intellektual kompetentlikni rivojlantirish bo'yicha psixologik ilmiy izlanishlar;
- kasbiy kamolotni tatbiq etishda tadqiqotga yo'naltirilgan ta'lim;
- kompetentlikni rivojlantirish asosida ta'lim jarayonini loyihalash ko'nikmalarini rivojlantirish yo'nalishlarida tadqiqotlar olib borilmoqda.

Kasbiy mahorat, professionalizm, xususan, pedagog-o'qituvchilar

professional xususiyatlarining rivojlanishiga ta'sir etuvchi psixologik omillar hozirgi kungacha bir qator mamlakatimiz va xorij olimlari tomonidan ko'plab tadqiqotlarning predmetiga aylangan.

O'zbekistonda pedagog faoliyati xususiyatlarini har tomonlama o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar juda ko'p. Pedagog professional faoliyatining psixologik muammolari mamlakatimiz olimlari **M. Davletshin, E. G'oziev, V. Tokareva, R. Gaynutdinov, A. Jabborov, Z. Nishonova, D. Muxamedova, Y. Asadov, A. Rasulov, S. Sirliev, SH. Abdullaeva** va boshqalar tadqiqotlarida o'z ifodasini topgan. Jumladan, **A. Jabborov** o'qituvchining psixologik va etnopsixologik xususiyatlarini tadqiq etgan bo'lsa, **R. Gaynutdinov** uzluksiz ta'lim tizimida o'zbek milliy maktabi o'qituvchisi shaxsi shakllanishi xususiyatlarini yoritib bergan. **Y. Asadov** o'qituvchining individual-psixologik xususiyatlari uning professionalizmini oshirish omili ekanligini o'z tadqiqotlarida isbotlagan.

Professional kompetentlik mohiyati **E. Zeer, V. Karimova, E. G'oziev, R. Uayt, V. Naperov, L. Panina, A. Karpov, E. Safonova, A. Smirnov, V. Spiridonova, I. Shtobbe, T. Bazarov** va hammualliflari tomonidan talqin etilgan.

Zamonaviy psixologiyada pedagog shaxsi shakllanishi **B. Ananev, A. Kovalev, A. Rean, Y. Kolominskiy, V. Slastenin, S. Arxangelskiy** va boshqalar tomonidan o'rganilgan.

**I. Zimnyaya, N. Kuzmina, L. Mitina, L. Petrovskaya, A. Markova** pedagog professional kompetentligining maxsus, ijtimoiy, shaxslilik, individual turlarini ajratgan holda, pedagog faoliyati samaradorligida uning kompetentligini shakllantirish ahamiyatini ta'kidlaydilar.

Pedagog professional kompetentligining shakllanish shart-sharoitlari **O. Abdulina, Y. Babanskiy, V. Kan-Kalik, K. Levitan** tadqiqotlarida o'z ifodasini topgan.

Pedagog kasbiy muhim sifatlarining psixologik tahlili **Y. Kulyutkin, F. Golobolin, V. Slastenin** va boshqa olimlar tomonidan o'rganilgan.

Pedagog professional kompetentligi muammosi bilan shug'ullangan

---

“Pedagogika va psixologiya” kafedrası

*SH. Abdullaeva* (2019) tadqiqot natijalariga ko'ra quyidagi ilmiy yangiliklarni qo'lga kiritgan:

- pedagogning professional kompetentligini belgilovchi predmetli-faoliyatlilik komponenti (faoliyatni erkin tanlashga intilish, insonlar bilan ishlashga yo'nalganlik, o'zga kishilar uchun o'zini safarbar etish, natijalar uchun to'siqlarni bartaraf etish va mas'uliyatni o'z zimmasiga olish, muvaffaqiyatga intilish, tavakkal qilishga tayyorlik, yangilik yaratishga intilish), shaxslilik komponenti (sodir bo'ladigan voqea-hodisalarga javob berish, o'zga kishilarni qo'llab-quvvatlash va ko'maklashishga qobiliyatlilik, emotsional holatlarini nazorat qilishga o'quvlilik), ijtimoiy-kommunikativlik komponenti (muloqotdagi qayishqoqlik, tolerantlik, muomalada o'zini nazorat qilish malakasini rivojlanganligi) aniqlangan;

- pedagogda professional kompetentlikning shakllanishi unda noaniqlikka tolerantlikni, muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasini, o'zini omadli shaxs ekanligi haqidagi tasavvurini rivojlanishiga hamda rigidlikni, xavotirlanish va innovatsion faoliyatga nisbatan qarshiliklarni pasayishiga olib kelishi asoslangan;

- pedagog professional kompetentligining professional-faoliyatli ong, "Men-pedagog" konsepsiyasining professional jihatdan aniqligi, faoliyatni amalga oshirishga axborot va vositalar bilan tayyorlik kabi tarkibiy tuzilmalari aniqlangan;

- sintezlovchi refleksiya qobiliyatlilik, faoliyatni loyihalash va amalga oshirishga qobiliyatlilik, ijobiy "Men konsepsiyasi" pedagogda professional kompetentlikni tarkib toptirishning psixologik shart-sharoitlari ekanligi isbotlangan;

- pedagog professional kompetentligining maxsus (o'qituvchilik faoliyati bilan bog'liq bilim, ko'nikma, malakalar), ijtimoiy (muomalaga kirisha olish, o'zaro ta'sir malakasi) va shaxslilik (individual va kasbiy-muhim sifatlar, emotsional barqarorlik, qiyin vaziyatlardan chiqib keta olish malakasi) komponentlari shakllanishi o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik aniqlangan.

Shaxsning savodxonlik darajasi katta hajmdagi akademik bilimlarni egallash bilan emas, kompetentli yondashuvga ko'ra o'z bilimlaridan amalda samarali

---

"Pedagogika va psixologiya" kafedrası

foydalana olish qobiliyatiga qarab baholanadi. Negaki, fan, texnika, ishlab chiqarish, sport va ijtimoiy munosabatlar shiddat bilan rivojlanib borayotgan ayni davrda axborot (bilimlar) shu darajada ko'pki ularning hammasini o'zlashtirishga inson qodir emas.

**Pedagogik maqsad**ning o'ziga xosligini quyidagilarda bilish mumkin:

**1.** Pedagogik faoliyatning maqsadi jamiyat tomonidan belgilanadi, ya'ni jismoniy tarbiya instruktoriga faoliyatining natijasi jamiyat manfaatlari bilan bog'liqdir. Uning mehnati yoshlar shaxsini har tomonlama kamol toptirishga yo'naltirilgan. Pedagogik faoliyat avlodning ijtimoiy uzviyligi (ketma-ketligi)ni ta'minlaydi. Bir avlod tajribasini, ikkinchi avlodga o'tkazadi, ijtimoiy tajriba orttirish uchun insondagi tabiiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqaradi.

**2.** Jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarining faoliyati doimo shaxs faoliyatini boshqarish bilan bog'liq. Bunda pedagogik maqsad tarbiyalanuvchi maqsadiga aylanishi muhimdir. Jismoniy tarbiya instruktoriga o'z faoliyati maqsadini va unga erishish yo'llarini aniq tasavvur qilishi va bu maqsadga erishish tarbiyalanuvchilar uchun ham ahamiyatli ekanligini ularga anglata olishi zarur. Gyote ta'kidlaganidek: "Ishonch bilan gapir, ana shunda so'z ham, tinglovchilarni mahliyo qilish ham o'z-o'zidan kelaveradi".

**3.** Pedagogik (ta'lim-tarbiya) jarayonida tarbiyalanuvchi faoliyatini boshqarish shuning uchun ham murakkabki – jismoniy tarbiya instruktoriga maqsadi doimo tarbiyalanuvchi kelajagi tomon yo'naltirilgan bo'ladi. Buni anglagan holda, mohir jismoniy tarbiya instruktorlari o'z faoliyatini mantig'ini tarbiyalanuvchilar ehtiyojlariga muvofiq holda loyihalaydilar. Hamkorlik pedagogikasining tub mohiyati ham ana shundan iborat.

**Pedagogik faoliyatning o'ziga xosligi** quyidagilarda namoyon bo'ladi.

**1.** Inson tabiatning jonsiz moddasi emas, balki o'zining alohida xususiyatlari, ro'y berayotgan voqealarning idrok qilishi va ularga o'zicha baho

beradigan takrorlanmaydigan faol mavjudotdir. Psixologiyada ta'kidlanganidek, har bir shaxs takrorlanmasdir. U pedagogik jarayonning o'z maqsadi, ishtiyoqi va shaxsiy xulqqa ega bo'lgan ishtirokchisi hamdir.

**2.** Jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari doimo o'sib-o'zgarib boradigan inson bilan ishlaydi. Ularga yondoshishda bir xil qolip, shakllanib qolgan xatti-harakatlardan foydalanish mumkin emas. Bu esa jismoniy tarbiya instruktoridan doimo ijodiy izlanib turishni talab qiladi.

**3.** Tarbiyalanuvchilarga jismoniy tarbiya instruktoridan tashqari, atrof muhit, ota-ona, maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi tarbiyachilar, ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy hayot ham ta'sir etadi. Shuning uchun ham jismoniy tarbiya instruktori mehnati bir vaqtning o'zida jamiki ta'sirlarga va tarbiyalanuvchilarning o'zida paydo bo'lgan fikrlarga tuzatishlar kiritib borishni nazarda tutadi.

Pedagog professional kompetentligining **maxsus, ijtimoiy** va **shaxslilik-tipologik** komponentlari o'rtasida korrelyasion aloqadorlik mavjud bo'lib, mazkur komponentlarning mutanosibligi *professional kompetentlik shakllanishida* muhim rol o'ynaydi.

*Pedagog professional kompetentligining* tarkibiy komponentlariga uning *motivatsiyasi, individual-tipologik xususiyatlari, emotsional barqarorligi, kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlari, yangiliklarni qabul qila olish va moslashish imkoniyatlari, kutilmagan vaziyatlarda o'zini boshqara olishi va vaziyatdan chiqqa olish qobiliyati* kiradi.

Bo'lajak va faoliyat yuritayotgan *pedagoglarda professional kompetentlikning* maxsus, ijtimoiy va shaxslilik komponentlarini o'rganish mazkur komponentlar geteroxron ravishda rivojlanishini ko'rsatdi, bunda maxsus komponentning nisbatan yuqori ko'rsatkichlarida ijtimoiy va shaxslilik komponentlari past ko'rsatkichlarga ega ekanligi namoyon bo'ldi. Mazkur holatga shakllantiruvchi korreksion tadbirlarda alohida e'tibor qaratish lozim



### **NAZORAT SAVOLLARI**

1. Kompetentlik va kompetensiya tushunchalari mohiyati?
2. Kasbiy kompetentlik va uning sifatlari?
3. “Kreativlik” tushunchasining lug‘aviy ma’nosi nimani bildiradi?
4. “Kompetentsiya” so‘zining lug‘aviy ma’nosi nima ?
5. Kompetentsiyaga berilgan ta’rifni toping?
6. “Kompetentlik” deganda nima tushuniladi?
7. “Professional kompetentlik” deb qanday faoliyatga aytiladi?
8. Professional kompetentlik qanday sifatlardan iborat?

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Akmalov A. Sport, malaka oshirish ta’limida innovatsiya va interfaol texnologiyalar – Toshkent: “Umid Dezgin” – 2022., 72b.
2. Avliyoqulov N.X. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari. –Toshkent: O‘qituvchi, 2001. – 69 b.
3. Dexkambayeva Z.A., Pulatov J.A. Sport ta’limida innovation pedagogik texnologiyalar. T.: Printerhaus, 2021 .- 134 b.
4. Golish L. V. Ta’limning faol usullari: mazmuni, tanlash, amalga oshirish. – Toshkent: Tasis, 2001. – 69 b.
5. Golish L.V. Ta’lim shakllari: mazmun, tanlash va amalga oshirish. - Toshkent: Tasis, 2001. – 43 b.
6. Golish L.V. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari: mazmun, loyihalashtirish va amalga oshirish - Toshkent: Tasis, 2001. – 59 b.
7. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To‘raev A. B. Innovatsion ta’lim texnologiyalari .- T.: “Sano standart” nashriyoti, 2015.

# AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

### **3-mavzu. Innovatsion ta'lim texnologiyalarining ahamiyati.**

#### **Reja:**

3.1.Kasb-hunar ta'limi tizimida pedagogning innovatsion faoliyati.

3.2.Innovatsion ta'lim texnologiyasi va uning ahamiyati.

#### **3.1.Kasb-hunar ta'limi tizimida pedagogning innovatsion faoliyati**

Lug'aviy jihatdan “**innovatsiya**” tushunchasi ingliz tilidan tarjima qilinganda (“*innovation*”) “yangilik kiritish” degan ma'noni anglatadi.

Innovatsiya – muayyan tizimning ichki tuzilishini o'zgartirishga qaratilgan faoliyat.

“O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi”da ko'rsatilishicha, innovatsiya quyidagicha mazmun va tushunchalarga ega: “Innovatsiya (ingl. “*innovations*” – kiritilgan yangilik, ixtiro) – **1.** texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta'minlash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag'lar; **2.** ilmiy-texnika yutuqlari va ilg'or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalardagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalar va faoliyat doiralarida qo'llanishi”.

**A. Prigojinning** fikriga ko'ra, innovatsiya maqsadga muvofiq ravishda muayyan ijtimoiy birlik – tashkilot, aholi, jamiyat, guruhga nisbatan munosabatga yangicha yondashish, bu munosabatni bir qadar turg'un elementlar bilan boytib borish tushunilishi lozim. Bu o'rinda anglanadiki, muallifning qarashlari bevosita ijtimoiy munosabatlar, ularga nisbatan innovatsion yondashish mohiyatini ifodalaydi. Shundan kelib chiqqan holda har bir shaxs fuqaro, mutaxassis, rahbar, xodim, qolaversa, turli ijtimoiy munosabatlar jarayonining ishtirokchisi sifatida o'ziga xos innovator faoliyatni tashkil etadi.

Amerikalik psixolog **E. Rodjers** o'z tadqiqotlarida innovatsion xarakterga ega ijtimoiy munosabatlarning ijtimoiy-psixologik jihatlari, ijtimoiy munosabatlarga yangilik kiritish, bu jarayonda ishtirok etuvchi shaxslarning toifalari, ularning yangilikka bo'lgan munosabatlari, yangilikni qabul qilish, mohiyatini anglashga bo'lgan tayyorlik darajasi hamda muayyan shaxslar toifalari o'rtasidagi innovatsion xarakterga ega ijtimoiy munosabatlarning tasnifi

masalalarini o'rgangan.


**Innovatsion ta'lim** (ingl. "innovation" – yangilik kiritish, ixtiro) – ta'lim oluvchida yangi g'oya, me'yor, qoidalarni yaratish, o'zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg'or g'oyalar, me'yor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta'lim

Innovatsion ta'lim jarayonida qo'llaniladigan texnologiyalar innovatsion ta'lim texnologiyalari yoki ta'lim innovatsiyalari deb nomlanadi.

**Ta'lim innovatsiyalari** – ta'lim sohasi yoki o'quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondoshuv asosida yechish maqsadida qo'llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar.

Ta'lim innovatsiyalari "innovatsion ta'lim" deb ham nomlanadi. "Innovatsion ta'lim" tushunchasi birinchi bor 1979-yilda "Rim klubi"da qo'llanilgan.

Ta'lim innovatsiyalari bir necha turga ajratiladi (1-rasmga qarang).



### 1-rasm. Ta'lim innovatsiyalarining asosiy turlari

Innovatsiyalar turli ko'rinishga ega. Quyidagilar innovatsiyalarning asosiy ko'rinishlari sanaladi:

- yangi g'oyalar;
- tizim yoki faoliyat yo'nalishini o'zgartirishga qaratilgan aniq maqsadlar;
- noan'anaviy yondoshuvlar;
- odatiy bo'lmagan tashabbuslar;
- ilg'or ish uslublari.

Ta'lim tizimida yoki o'quv faoliyatida innovatsiyalarni qo'llashda sarflangan mablag' va kuchdan imkon qadar eng yuqori natijani olish **maqsadi** ko'zlanadi. Innovatsiyalarning har qanday yangilikdan farqi shundaki, u boshqarish va nazorat qilishga imkon beradigan o'zgaruvchan mexanizmga ega bo'lishi zarur.

Barcha sohalarda bo'lgani kabi ta'limda ham "*novatsiya*", "*innovatsiya*" hamda ularning mohiyatini ifodalovchi faoliyat to'g'risida so'z yuritiladi.

**Agar faoliyat qisqa muddatli, yaxlit tizim xususiyatiga ega bo'lib, faqatgina tizimdagi ayrim elementlarni o'zgartirishga xizmat qilsa u *novatsiya* (yangilanish) deb yuritiladi. Bordi-yu, faoliyat ma'lum konseptual yondoshuv asosida amalga oshirilib, uning natijasi muayyan tizimning rivojlanishiga yoki uni tubdan o'zgartirishga xizmat qilsa, u *innovatsiya* (yangilik kiritish) deb ataladi.**

Ilmiy adabiyotlarda "*novatsiya*" (yangilanish, yangilik) hamda "*innovatsiya*" (yangilik kiritish) tushunchalarining bir-biridan farqlanishiga alohida e'tibor qaratiladi. Misol uchun, **V. Zagvyazinskiy**ning e'tirof etishicha, "yangi", "yangilik" tushunchasi nafaqat muayyan g'oyani, balki hali amaliyotda foydalanilmagan yondoshuv, metod hamda texnologiyalarni ifodalaydi. Ammo bunda jarayon elementlari yaxlit yoki alohida olingan elementlaran iborat bo'lib, o'zgarib turuvchi sharoit va vaziyatda ta'lim va tarbiya vazifalarini samarali hal etish g'oyalarini o'zida aks ettiradi.

## Novatsiya va innovatsiyalar o'rtasidagi asosiy farqlar

Asosiy farqlar			
NOVATSIYA		INNOVATSIYA	
1) amaldagi nazariya doirasida		1) tizimli, yaxlit va davomli bo'ladi;	
qo'llaniladi;		2) ma'lum amaliyotda yangi faoliyat	
2) ko'lam va vaqt bo'yicha		tizimini loyihalaydi;	
chegaralanadi;		3) sub'ektlarning faoliyati to'la	
3) metodlar yangilanadi;		yangilanadi;	
4) natija avvalgi tizimni		4) yangi texnologiyalar yaratiladi;	
takomillashtiradi		5) faoliyatda yangi sifat natijalariga	
		erishiladi;	
		6) amaliyotning o'zi ham yangilanadi	

Darhaqiqat, *yangilik* – vosita sanalib, u aksariyat holatlarda yangi metod, metodika, texnologiya va boshqa ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Mohiyatiga ko'ra *novatsiya* va *innovatsiya* o'rtasida muayyan farqlar mavjud.

**I. Podlasiyning fikriga ko'ra, ta'lim innovatsionlari quyidagi o'zgarishlarga olib keladi:**

- pedagogik tizimning tamomila o'zgarishi;
- o'quv jarayonining o'zgarishi;
- pedagogik nazariyaning o'zgarishi;
- o'qituvchi faoliyatining o'zgarishi;
- o'quvchi (tinglovchi) faoliyatining yangilanishi;
- pedagogik texnologiyaning o'zgarishi;
- ta'lim mazmunining yangilanishi;
- o'qitish shakl, metod va vositalarining o'zgarishi;
- ta'lim tizimi boshqaruvning o'zgarishi;
- ta'lim maqsadi va natijalarning o'zgarishi.

## **Jismoniy tarbiya fani o'qituvchisining innovatsion faoliyati**

Zamonaviy ta'limga xos muhim jihatlardan biri – pedagog faoliyatining innovatsion xarakter kasb etishiga erishish sanaladi. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda pedagog faoliyatining innovatsion xarakter kasb etishiga erishish masalasi o'tgan asrning 60-yillaridan boshlab jiddiy o'rganila boshlagan.

Mohiyatiga ko'ra innovatsiyalar munosabat yoki jarayonga yangilik kiritishning dinamik tizimi sanaladi. O'z-o'zidan tizim sifatida yangilik kiritirish munosabat yoki jarayonning, birinchidan, ichki mantig'ini, ikkinchidan, kiritilayotgan yangilikning muayyan vaqt oralig'ida izchil rivojlanishi va atrof-muhitga ko'rsatadigan o'zaro ta'sirini ifodalaydi.

**V. Slastenin** innovatsiyani yangilik yaratish, keng yoyish va foydalanishga qaratilgan maqsadga muvofiq, yo'naltirilgan jarayoni majmui deb biladi. Muallifning fikriga ko'ra har qanday innovatsiya yangi vositalar yordamida ijtimoiy sub'ektlarning ehtiyojini qondirish va intilishlarini rag'batlantirish maqsadini ko'zlaydi.

Har qanday innovatsiyada “yangi”, “yangilik” tushunchalari muhim ahamiyatga ega. Turli munosabat va jarayonlarga kiritilayotgan yangilik mazmunan xususiy, sub'ektiv, mahalliy va shartli g'oyalar tarzida namoyon bo'ladi.

**Xususiy yangilik** munosabat, ob'ekt yoki jarayonga tegishli elementlardan birini o'zgartirish, yangilashni nazarida tutadi.

**Sub'ektiv yangilik** ma'lum ob'ektning o'zini yangilash zaruriyatni ifodalaydi.

**Mahalliy yangilik** alohida olingan ob'ekt uchun kiritilayotgan yangilikning amaliy ahamiyatini tavsiflash uchun xizmat qiladi.

**Shartli yangilik** esa munosabat, ob'ekt yoki jarayonda murakkab, progressiv yangilanishning sodir etilishini ta'minlovchi ma'lum elementlarning yig'indisini yoritishga xizmat qiladi.

**R. Yusufbekova** innovatsiyalarni pedagogik nuqtai nazardan ko'rib chiqishga e'tiborni qaratadi. Xususan, pedagogik innovatsiyalar muallif tomonidan

---

“Pedagogika va psixologiya” kafedrası

ta'lim va tarbiya jarayonida avval ma'lum bo'lmagan, qayd qilinmagan holat yoki natijaga olib boruvchi pedagogik hodisaning o'zgarib turishi mumkin bo'lgan mazmuni ekanligi ta'kidlanadi.

Rossiyalik olimlar **A. Prigojin, B. Sazonov, V. Tolstoy, N. Stepanov** va boshqalar esa innovatsion jarayon hamda uning tarkibiy qismlarini o'rganishga e'tiborni qaratgan. Bu o'rinda ular innovatsion jarayonning tashkil etilishiga nisbatan quyidagi **ikki yondoshuv** mavjud ekanligini e'tirof etadi:

**1** - yangilikning individual mikro darajasi (unga ko'ra qandayir yangi g'oyaga amaliyotga joriy etiladi);

**2** - alohida-alohida kiritilgan yangiliklarning o'zaro ta'sirini ifodalovchi mikro daraja (bu o'rinda alohida-alohida kiritilgan yangiliklarning o'zaro ta'sirlanishi, birligi, raqobati va birining o'rnini ikkinchisi tomonidan egallanishi ahamiyatli sanaladi).

**A. Prigojin, B. Sazonov** va **V. Tolstoy**lar o'z tadqiqotlarida yangilik kiritishning tizimli konsepsiyani asoslashga uringan. Bu o'rinda mualliflar innovatsion jarayonlarning quyidagi **ikki muhim bosqichini** bir-biridan ajratib ko'rsatishadi:

**1.** Yangilik sifatida namoyon bo'ladigan g'oyalarni ishlab chiqish (m: korxonada, tashkilot tomonidan muayyan turdagi mahsulotni ishlab chiqishning rejalashtirilishi).

**2.** Yangilik (muayyan mahsulot)ni keng ko'lamda ishlab chiqish.

**Innovatsion faoliyat** – yangi ijtimoiy talablarning an'anaviy me'yorlarga mos kelmasligi yoki yangi shakllanayotgan g'oyalarning mavjud g'oyalarni inkor etishi natijasida vujudga keladigan majmualari muammolarni echishga qaratilgan faoliyat. Mohiyatiga ko'ra innovatsion faoliyat ilmiy izlanishlar, ishlanmalar yaratish, tajriba-sinov ishlari olib borish, fan-texnika yutuqlaridan foydalanish asosida yangi texnologik jarayon yoki yangi takomillashtirilgan mahsulot yaratishdan iborat.

Shu o'rinda trener-o'qituvchining innovatsion faoliyati quyidagilar bilan belgilanadi:



- o'quv-trenerovka jarayoniga yangilikni qo'llashga tayyorgarligi;
- o'quv-mashg'ulotga oid yangiliklarni qabul qilishi;
- novatorlik darajasi;
- kommunikativ qobiliyatning rivojlanganligi;
- kreativligi.

Innovatsion faoliyat pedagogning ruhiy, aqliy, jismoniy kuchini ma'lum maqsadga yo'naltirish asosida nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni egallash, amaliy faoliyatni nazariy bilimlar bilan to'ldirib borish, bilish, loyihalash, kommunikativ nutq va tashkilotchilik mahoratini rivojlantirishni talab etadi.

**M. Jumaniyozov**ning e'tirof etishicha, pedagogik innovatsion faoliyati quyidagi belgilar asosida namoyon bo'ladi:

- ijodiy faoliyat falsafasini egallashga intilish;
- pedagogik tadqiqot metodlarini egallash;
- mualliflik konsepsiyalarini yaratish qobiliyati;
- tajriba-sinov ishlarini rejalashtirish va amalga oshira olish;
- o'zidan boshqa tadqiqotchi-pedagoglar tajribalarini qo'llay olish;
- hamkasblar bilan hamkorlik;
- fikr almashish va metodik yordam ko'rsata olishlik;
- ziddiyatlarning oldini olish va bartaraf etish;
- yangiliklarni izlab topish va ularni o'z sharoitiga moslashtirib borish

**V. Slastenin**ning fikriga ko'ra innovatsion yondoshuv quyidagilarga ega bo'lishni ifodalaydi:

- ijodiy faollik;
- faoliyatga yangilik (o'zgartirish) kiritishga texnologik va metodologik jihatdan tayyorgarlik;
- yangicha fikrlash;
- yuksak muomala madaniyati

**R. Yusufbekova** pedagogik nuqtai nazardan innovatsion jarayon tuzilmasi uch blokdan iborat deb hisoblaydi. Ya'ni:

**1. Sohada** namoyon bo'layotgan yangilikni ajratib ko'rsatuvchi blok (unda

---

“Pedagogika va psixologiya” kafedrası

pedagogikadagi yangi g'oyalar, pedagogik yangiliklarning tasnifi, ularni asoslashga xizmat qiladigan shart-sharoitlar, yangilik darajasini belgilovchi me'yorlar, pedagoglarning yangiliklarni o'zlashtirish va unan amaliyotda samarali foydalanishga tayyorliklari, an'analar va novatorlik tashabbuslari, sohada yangiliklarni yaratish bosqichlari aks etadi).

2. Pedagoglar tomonidan yangilikning idrok qilinishi, o'zlashtirilishi va baholanishi ifodalovchi blok (unda pedagogik jamoalar tomonidan yangiliklarning baholanishi va o'zlashtirilishi – turli innovatsion jarayonlar, konservatorlik va novatorlik, innovatsiya muhiti, pedagogik jamoalarning yangilikni idrok etish va baholashga tayyorliklari aks etadi).

3. Yangilikdan foydalanish va uni joriy etish bloki (unda yangilikni amaliyotga tadbiiq etish va ulardan samarali foydalanish hodisasi ro'y beradi).

Pedagogik innovatsiyalarning davriy takrorlanishi va qaytarilishi qonuniyati yangiliklarning yangi, yanada qulay sharoitlarda qayta tiklanishini ifodalaydi.

Odatda trenerlik faoliyatidagi innovatsiyalarning amaliyotga tadbiiq etilishi *ikki xil* kechadi:

1. Pedagogik innovatsiyalarning amaliyotga tadbiiqi stixiyali kechadi, ya'ni, innovatsion jarayonda pedagogik yangiliklarga bo'lgan ehtiyoj hisobga olinmaydi, ularni amaliyotga tadbiiq etishda mavjud shart-sharoitlar, metod va yo'llariga ongli munosabat bildirilmaydi.

2. Pedagogik innovatsiyalarning amaliyotga tadbiiqi stixiyali kechadi, ya'ni, pedagogik yangiliklar innovatsion jarayonda ongli, maqsadga muvofiq, ilmiy asoslangan faoliyat mahsuli sifatida amaliyotga joriy etiladi

Bugungi kunda trener-o'qituvchilarning innovatsion faoliyati ko'nikma, malakalariga ega bo'lishlari muhim ahamiyatga ega. Trener-o'qituvchi tomonidan innovatsion faoliyat ko'nikma, malakalarini o'zlashtira olishlarida ularning innovatsion yondoshuvga ega bo'lishlari talab etiladi. O'z mohiyatiga ko'ra trener-o'qituvchilar tomonidan innovatsion faoliyat ko'nikma, malakalarining o'zlashtirilishi ularda innovatsion yondoshuvni qaror topishi asosida kechadi.

Jismoniy tarbiya -o'qituvchilarda innovatsion yondoshuvning qaror topishi  
"Pedagogika va psixologiya" kafedراس

ham murakkab jarayon bo'lib, u bir necha bosqichda kechadi.

**Jismoniy tarbiya -o'qituvchisining innovatsion faoliyati-** zamonaviy innovatsion g'oya, me'yor, loyiha, metod va texnologiyalarni jadal o'zlashtirishi va amaliyotga tatbiq qilishi natijasida vujudga keladigan majmualari muammolarni echishga qaratilgan faoliyat.

**Jismoniy tarbiya -o'qituvchisining innovatsion faoliyatini eng muhim tavsifi kreativlikdir.**

**Kreativlik** –ta'lim jarayoniga ijodiy yondoshuvdir.

**Kreativlikni tavsifi:**

- ✓ fikrining ravonligi;
- ✓ fikrni maqsadga muvofiq yo'llay olishi;
- ✓ o'ziga xoslik (originallik);
- ✓ qiziquvchanlik;
- ✓ farazlar yaratish qobiliyati;
- ✓ fantaziyasi.

**Jismoniy tarbiya fani o'qituvchisining kasbiy, metodik faoliyati va uni takomillashtirish yo'llari:**

**Intensiv yo'l** – trener-o'qituvchining pedagogik, metodik mahoratlari va texnikasini hamda kasbiy faoliyatni rivojlanishining motivatsiyalar hisobiga jadal suratlarda amalga oshirishi.


**Motiv** – insonni o'qishga yoki o'quv-trenerovka mashg'ulotlarida muayyan harakatlar(i)ni bajarishga undovchi ijobiy sabablar yig'indisi. Sportda shug'llanuvchining ma'lum ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq faoliyatga moyilligini rivojlantirish.

**Motivatsion ko'nikma** – shaxs motivlarining yig'indisi va shaxsning ijodiy, ilmiy, jismoniy mehnatga layoqatligining eng muhim belgisi.

**Ekstensiv yo'l** – trener-o'qituvchining pedagogik va metodik faoliyatini takomillashtirishda yangi modernizatsiya qilingan vositalar, jihozlar, texnologiyalardan mashqlar o'rgatish jarayonida maqsadli foydalanishi.

**Pedagogik innovatsiya yo'nalishlari** – innovatsion texnologiyalar,  
"Pedagogika va psixologiya" kafedrası

pedagogik yangiliklarni pedagogik jamoa tomonidan o'zlashtirish va baholash, amaliyotda qo'llash to'g'risidagi ta'limot bo'lib *to'rtta*: **pedagogik – neologiya, aksiologiya, praksologiya, akmeologiya** yo'nalishlariga ega.



2-rasm. Pedagogik innovatsiya yo'nalishlari

*Pedagogik neologiya* (yunoncha “neo” – yangi va “logos” – ta'lim bo'lib, yangilik haqidagi ta'limot) deyilib, bunda pedagogika sohasidagi har qanday yangiliklar o'rganiladi, umumlashtiriladi.

*Pedagogik aksiologiyada* (yunoncha “aksioma” – “isbotlanmaydigan ta'limot” ma'nosini anglatadi) pedagogik yangiliklar ichidan eng ishonchlisi va samaralisi tanlab olinadi.

*Pedagogik praksologiya* (yunoncha “praks” – “harakat va “logos” – ta'lim, ya'ni “amaliyotda qo'llash haqidagi ta'limot” ma'nosini anglatadi)- bunda tanlab olingan pedagogik yangiliklarni amaliyotda qo'llash, muayyan samaraga erishish masalalari tushuniladi.

*Pedagogik akmeologiya* – yunoncha oliy nuqta, o'tkir, gullagan, etuk, eng yaxshi davr degan ma'nolarni bildiradi.

### 3.2. Innovatsion ta'lim texnologiyasi va uning ahamiyati.

Mohiyatiga ko'ra innovatsion faoliyat ilmiy izlanishlar, ishlanmalar yaratish, tajriba-sinov ishlari olib borish, fan-texnika yutuqlaridan foydalanish asosida yangi takomillashtirilgan mahsulotni yaratishdan iborat.

Pedagogning innovatsion faoliyati quyidagilar bilan belgilanadi:

- yangilikni qo'llashga tayyorgarligi;
- pedagogik yangiliklarni qabul qilishi;
- novatorlik darajasi;
- kommunikativ qobiliyatning rivojlanganligi;
- ijodkorligi.

Innovatsion faoliyat pedagogning ruhiy, aqliy, jismoniy kuchini ma'lum maqsadga yo'naltirish asosida BKMni egallash, amaliy faoliyatni nazariy bilimlar bilan to'ldirib borish, bilish, loyihalash, kommunikativ nutq va tashkilotchilik mahoratini rivojlantirishni talab etadi.


M.Jumaniyozovanning e'tirof etishicha, pedagogik innovatsion faoliyati quyidagi belgilar asosida namoyon bo'ladi:

- ijodiy faoliyat falsafasini egallashga intilish;
- pedagogik tadqiqot metodlarini egallash;
- mualliflik konsepsiyalarini yaratish qobiliyati;
- tajriba-sinov ishlarini rejalashtirish va amalga oshira olish;
- o'zidan boshqa tadqiqotchi-pedagoglar tajribalarini qo'llay olish;
- hamkasblar bilan hamkorlik;
- fikr almashish va metodik yordam ko'rsata olishlik;
- ziddiyatlarning oldini olish va bartaraf etish;
- yangiliklarni izlab topish va ularni o'z sharoitiga moslashtirib borish.

V.Slasteninining fikriga ko'ra innovatsion yondashuv quyidagilarga ega bo'lishni ifodalaydi:


- ijodiy faollik;
- faoliyatga yangilik (o'zgartirish) kiritishga texnologik va metodologik jihatdan tayyorgarlik;
- yangicha fikrlash;
- yuksak muomala madaniyati.

Pedagogik innovatsiyalar tegishli sohada ijobiy o'zgarishlarni sodir etish, sifat jihatdan yuqori natijalarga erishish maqsadida qo'llaniladi. Bu turdagi innovatsiyalarni asoslash muayyan bosqichlarda kechadi.



**3-rasm. Innovatsiyalarni asoslash bosqichlari**

Innovatsiya jarayoni tarkibiy tuzilmalardan iborat bo'lish bilan birga muayyan qonuniyatlarga ham bo'ysunadi. Mazkur jarayon uchun quyidagi to'rtta qonuniyat xarakterli sanaladi (4-rasm):



**4-rasm. Pedagogik innovatsion jarayon qonuniyatlari**


Keskin beqarorlik qonuniyatiga ko'ra pedagogik jarayon va hodisalar to'g'risidagi yaxlit tasavvurlar o'zgaradi, shakllangan pedagogik yangilik baholanadi va bu yangilikning ahamiyati, qiymati e'tirof etiladi. Amalga oshish qonuniyati yangilikning hayotiyligini ifodalaydi, unga ko'ra yangi pedagogik

innovatsiyalar stixiyali yoki ongli ravishda o'ta tezkor yoki tezkor ravisha amaliyotga tatbiq etiladi. Qoliplashtirish (stereotiplashtirish) qonuniyati aksariyat pedagoglarda yangicha tafakkurning qaror topganligini va ularning innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq etish yo'lida faollik ko'rsatishlarini tavsiflaydi. Bu jarayonda dastlab innovatsion xarakter kasb etgan g'oyalar yanada ilg'or yangiliklarni amalga oshirish yo'lida to'siq bo'la boshlaydi. Pedagogik innovatsiyalarning davriy takrorlanishi va qaytarilishi qonuniyati yangiliklarning yangi, yanada qulay sharoitlarda qayta tiklanishini ifodalaydi.

Odatda pedagogik innovatsiyalarning amaliyotga tatbiq etilishi ikki xil kechadi:


1. Pedagogik innovatsiyalarning amaliyotga tatbiqi stixiyali kechadi, ya'ni, innovatsion jarayonda pedagogik yangiliklarga bo'lgan ehtiyoj hisobga olinmaydi, ularni amaliyotga tatbiq etishda mavjud shart-sharoitlar, metod va yo'llariga ongli munosabat bildirilmaydi.

2. Pedagogik innovatsiyalarning amaliyotga tatbiqi stixiyali kechadi, ya'ni, pedagogik yangiliklar innovatsion jarayonda ongli, maqsadga muvofiq, ilmiy asoslangan faoliyat mahsuli sifatida amaliyotga joriy etiladi. Ta'lim innovatsiyalarini pedagogik jarayonga tatbiq etish bir necha bosqichlarda kechadi. Ular quyidagilardir:



**5-rasm. Innovatsiyalarni pedagogik jarayonga tatbiq etish bosqichlari**

ega bo'lishlari muhim ahamiyatga ega. Pedagoglar tomonidan innovatsion faoliyat ko'nikma, malakalarini o'zlashtira olishlarida ularning innovatsion yondashuvga ega bo'lishlari talab etiladi. O'z mohiyatiga ko'ra pedagoglar tomonidan innovatsion faoliyat ko'nikma, malakalarining o'zlashtirilishi ularda innovatsion yondashuvni qaror topishi asosida kechadi. Pedagoglarda innovatsion yondashuvning qaror topishi ham murakkab jarayon bo'lib, u bir necha bosqichda kechadi. Ya'ni:



**6-rasm. Pedagoglarda innovatsion yondashuvni qaror toptirish bosqichlari**

Demak, ilm-fan, texnika, ishlab chiqarish va texnologiyaning rivojlanishi ta'lim tizimida ham tub o'zgarishlar sodir bo'lishiga olib keladi. Ta'lim tizimining modernizatsiyasi davlat va jamiyat malakali kadrlarga, shaxsning esa sifatli ta'lim olishga bo'lgan ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ro'y beradi. Ta'lim amaliyotida pedagogik texnologiyalarning qo'llanilishi ta'lim tizimi modernizatsiyasining tarkibiy elementi hisoblanadi. Zamonaviy sharoitda ta'lim-tarbiya jarayonlarini texnologiyalashtirish kam kuch va vaqt sarflagan holda kutilayotgan natijani qo'lga kiritishga imkon beradi, o'qitish sifatini yaxshilab, samaradorligini oshiradi. Pedagogik innovatsiyalar pedagogik faoliyatga yangiliklarning izchil olib kirilishini tavsiflaydi. Pedagogik innovatsiyalarning didaktik imkoniyatlariga ko'ra ta'lim tizimi va jarayoni rivojlanib boradi. O'qituvchining innovatsion faoliyati pedagogik jamoani harakatga keltiruvchi, olg'a undovchi, bunyodkorlikka rag'batlantiruvchi kuch sifatida namoyon bo'lib, ta'lim jarayonining sifatini



kafolatlaydi. Shu sababli har bir o'qituvchi innovatsiyalarning mohiyatini to'la tushungan holda o'z faoliyatiga izchil tatbiq eta olishi zarur.

### **NAZORAT SAVOLLARI**

1. Kasb-hunar ta'limi tizimida pedagogning innovatsion faoliyati bu-?
2. Innovatsion ta'lim texnologiyasi va uning ahamiyati?
3. Professional kompetentlikni rivojlantirish darajalarini to'g'ri ketma-ketlikda belgilang?
4. "Texnologiya" so'zining lug'aviy ma'nosi nimani anglatadi?
5. "Ta'lim shakllarini optimallashtirish maqsadida inson va texnika imkoniyatlari hamda ularning o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda o'qitish va o'zlashtirish jarayonini yaratish, qo'llash va aniqlash tizimi" deb nimaga ta'rif berilgan?

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

7. Akmalov A. Sport, malaka oshirish ta'limida innovatsiya va interfaol texnologiyalar – Toshkent: "Umid Dezgin" – 2022., 72b.
8. Avliyoqulov N.X. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari. –Toshkent: O'qituvchi, 2001. – 69 b.
9. Tursualiyev I.A., Amonov A.N., Yeldasheva G.V., Dexkambayeva Z.A. Murabbiy-o'qituvchning pedagogik kompetensiyasi va mahorati. Uslubiy qo'llanma.- T.: Ilmiy –texnika axborot-press nashriyoti, 2019 .- 92 b.
10. Yeldasheva G., Karimova G. Ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiya elementlaridan foydalanish. Metodik qo'llanma. / T.: Lesson press, 2020

## 4-MAVZU. SHAXSGA YO'NALTIRILGAN TA'LIM VA UNING TURLARI.

### Reja:

4.1. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning o'ziga xos xususiyatlari.

4.2. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim turlari.

### 4.1. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning o'ziga xos xususiyatlari.

Zamonaviy sharoitda ta'lim jarayonining barcha imkoniyatlariga ko'ra shaxsni rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va unda mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga yo'naltirilishi talab qilinmoqda. O'zida ana shu imkoniyatlarni namoyon eta olgan ta'lim shaxsga yo'naltirilgan ta'lim deb nomlanadi.

**Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim** – ta'lim oluvchining fikrlash va harakat strategiyasini inobatga olgan holda uning shaxsi, o'ziga xos xususiyatlari, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan ta'lim.

Sportda shaxsga yo'naltirilgan ta'limning o'ziga xos jihati *sportchi shaxsini tan olish, uni har tomonlama rivojlantirish uchun qulay, zarur muhitni yaratishdan* iborat.

Bu ta'lim o'quv-trenerovka muhitining sportchi imkoniyatlariga moslashtirilishini nazarda tutadi. Unga ko'ra o'quv-trenerovka ta'limi muhiti, o'quv-trenerovka shart-sharoitlari, o'quv-tarbiya jarayonini to'laligicha sportchining shaxsiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, qobiliyatini rivojlantirish, shaxs sifatida kamolotga etishini ta'minlash, tafakkuri va dunyoqarashini boyitishga qaratishni nazarda tutadi.

Bu turdagi o'quv-trenerovka sportchilarda mustaqillik, tashabbuskorlik, chaqqonlik, uddaburonlik, javobgarlik kabi sifatlar, shuningdek, mustaqil, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga xizmat qiladi.

Bu turdagi o'quv-trenerovka mashg'ulotini tashkil etishda trener-o'qituvchilardan har bir sportchiga imkon qadar individual yondashishni, uning shaxsini hurmat qilishni, unga ishonch bildirish taqozo etiladi. Qolaversa, sportda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim o'quv-trenerovka mashg'uloti jarayonining

ishtirokchilari trener-sportchi yoki sportchi-sportchi, sportchi-sportchilar guruhi, sportchi-sportchilar jamoasi tarzida o'zaro hamkorlikda o'quv-trenerovka qilish, shaxs sifatida kamol toptirish uchun o'quv-trenerovka mashg'uloti sharoitini yaratish zaruriyatini ifodalaydi.

Trener-o'qituvchi o'quv-trenerovka mashg'uloti jarayonida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim turlaridan foydalanar ekan, bir qator shartlarga qat'iy rioya etishi kerak.

- har bir sportchini alohida, o'ziga xos shaxs sifatida ko'ra olishi;
- sportchini hurmat qilishi;
- sportchining ruhiy holatini to'g'ri baholay olishi;
- sportchining xohish-istak, qiziqishlarini inobatga olishi;
- har bir sportchiga nisbatan tolerant munosabatda bo'lishi;
- sportchining kuchi, imkoniyati va intilishlariga ishonch bildirishi;
- har bir sportchi o'quv-trenerovka mashg'uloti asoslarini etarlicha o'zlashtira olishi uchun qulay ta'lim-tarbiya muhitini yaratishi;
- shug'ullanuvchilarning mustaqil yoki kichik guruhlariga erkin ishlashlari uchun imkoniyat yaratish;
- sportchilarni o'z faoliyatlarini mustaqil nazorat qilish, faoliyati samaradorligini aniqlash, yutuqlarning omillari va yo'l qo'yilgan xatolarning oqibatlarini tahlil qilish o'rgatish;
- o'quv-trenerovka mashg'uloti jarayonida hech bir shug'ullanuvchiga tazyiq o'tkazmaligi;
- alohida sportchining kamchiliklarini bo'rttirib ko'rsatmasligi;
- bordi-yu, sportchi tomonidan mashg'ulotlarni o'zlashtira olmaslik, o'quv-trenerovka mashg'uloti jarayonida o'zini odobsiz tutish holati qayd etilsa, u holda qat'iy xulosa chiqarmasdan, buning sabablarini aniqlash;
- aniqlangan sabablar asosida sportchining sha'ni, g'ururiga ziyon etkazmagan holda u tomonidan o'quv-trenerovka mashg'ulotlarini o'zlashtira

olmaslik, o'zini odobsiz tutish kabi holatlarni bartaraf etish;

- o'quv-trenerovka mashg'uloti jarayonida har bir sportchi uchun "muvaffaqiyat muhiti"ni yarata olish;

- har bir shug'ullanuvchiga o'quv-trenerovka mashg'uloti vaqtida muvaffaqiyatga erisha olishiga yordam berish;

- sportchining qobiliyatini o'stirish, shaxs sifatida rivojlanishiga yordam berish;

- sportchining shaxsini emas, balki uning aniq xatti-harakatlarini baholashi;

- trener-o'qituvchi sifatida har bir shug'ullanuvchining hurmati va ishonchini qozona olishi zarur

#### 4.2.Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim turlari.

Sportda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, sportchini o'quv-trenerovka mashg'uloti tizimiga moslashtirishni emas, aksincha, uning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda har tomonlama rivojlanishi, shaxs sifatida kamolotga etishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni nazarda tutadi. Bu turdagi o'quv-trenerovka mashg'uloti sportchilarni o'z-o'zini rivojlantirishga, mustaqil bilim olishga, o'zining ichki imkoniyatlari, qobiliyatlarini to'la namoyon eta olishi, bilish faolligini oshirish uchun zarur sharoitni vujudga keltirishi zarur. Sportchilar shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonida o'quv-trenerovka mashg'uloti materialini o'zlashtirishga ijodiy, tanqidiy yondoshishni, yangi g'oyalarni ilgari surish, ularni asoslash, o'z fikrini himoya qilish, musobaqa oldi va musobaqa jarayonlarida samarali echimni topish, bilim, ko'nikma, malakalarni o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

O'qituvchi tomonidan o'quv-mashg'ulot jarayonida innovatsion xarakterga ega turli faol metodlarning qo'llanilishi, shug'ullanuvchilarni rivojlantirish, qobiliyatlarini yanada o'stirishga xizmat qiladi. Xususan:

- sport o'yinlari, yakkakurash yoki ko'pkurash sport turlari bo'yicha

muammoli izlanish;

- jamoaviy sport turlari bo'yicha kichik tadqiqotlarni olib borish;
- debat;
- bahs-munozara;
- evristik suhbat;
- kichik guruhlarda ishlash va boshqalar.

O'quv-trenerovka mashg'ulotlarini tashkil etishda trener-o'qituvchilar o'quv axborotlarining sportchilar bilim, ko'nikma, malaka va tajribalariga tayangan holda ularni qiziqitira oladigan, fikrlashga, kreativ yondashishga undaydigan imkoniyatga ega bo'lishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratishlari zarur.

- turli shakl, metod, vosita va texnologiyalardan samarali, maqsadli foydalanish;

- o'quv-trenerovka topshiriqlarini bajarishda shug'ullanuvchilarga metodlarni mustaqil tanlash imkonini berish;

- sportchini juftlikda, kichik guruhda va jamoada ishlashini ta'minlash;

- o'quv-trenerovka mashg'ulotlarini loyihalashtirilishiga e'tiborning qaratilishi nafaqat mashg'ulot sifatini yaxshilaydi, samaradorligini oshiradi, shu bilan birga sportchilar shaxsining rivojlanishi uchun qulay sharoitni vujudga keltiradi.

Eng muhimi trener-o'qituvchilar o'quv-trenerovka mashg'ulotlarining nafaqat axborot berish, balki rivojlantirish xarakteriga ega bo'lishlariga e'tiborni qaratishlari zarur. Shuningdek, muhokama qilinayotgan masala, muammo, o'rganilayotgan mashq (ham texnik, ham taktik) yuzasidan shug'ullanuvchilarning mustaqil fikr bildirishlari (noto'g'ri bo'lsa-da, fikr bildirishlari)ga imkon berish, nima bo'lganda ham ularni o'ylashga, fikrlashga undash shaxsga yo'natirilgan ta'limga xos muhim belgilardan biri sanaladi.

O'quv-trenerovka mashg'uloti jarayonida quyidagilardan foydalanish

shaxsga yo'naltirilgan ta'limning yana bir belgisidir:

- kreativ topshiriqlar;
- kreativ yondashishni taqozo etuvchi vazifalar;
- musobaqa oldi muammoli vaziyatlar;
- rolli o'yinlar;
- bahs-munozara, debat;
- musobaqa ko'rinishidagi bellashuvlar.

***O'qitishning shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalariga quyidagi asosiy prinsiplar xos bo'ladi:***

- *insonparvarlik*, ya'ni insonga har tomonlama hurmat va muhabbat ko'rsatish, unga yordamlashish, uning ijodiy qobiliyatiga ishonch bilan qarash, zo'ravonlikdan to'la voz kechish;
- *hamkorlik*, ya'ni pedagog va ta'lim oluvchilar munosabatidagi demokratizm, tenglik, sheriklik;
- *erkin tarbiyalash*, ya'ni shaxsga uning hayot faoliyatini keng yoki tor doirasida tanlab olish erkinligi va mustaqillikni berish, natijalarni tashqi ta'sirdan emas, ichki hissiyotlardan keltirib chiqarish.

Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarning kommunikativ asosi - pedagogik jarayonda ta'lim oluvchiga insoniy-shaxsiy yondashuv hisoblanadi.

**Shaxsga yangicha qarash quyidagilardan iborat bo'ladi:**

- pedagogik jarayonda shaxs obekt emas, subekt hisoblanadi;
- har bir ta'lim oluvchi qobiliyat egasi, ko'pchiligi esa iste'dod egasi hisoblanadi;
- yuqori etik qadriyatlar (saxiylik, muhabbat, mehnatsevarlik, vijdon va boshqalar) shaxsning ustuvor xislatlari hisoblanadi.

**Munosabatlarni demokratlashtirish quyidagilarni o'z ichiga oladi:**


- ta'lim oluvchi va pedagog huquqlarini tenglashtirish,
- ta'lim oluvchining erkin tanlab olish huquqi;
- xatoga yo'l qo'yish huquqi;
- o'z nuqtai nazariga ega bo'lish huquqi
- pedagog va ta'lim oluvchi munosabatining asosi: ta'qiqlamaslik; boshqarish emas, birgalikda boshqarish; majburlash emas, ishontirish; buyurish emas, tashkil etish; chegaralash emas, erkin tanlab olishga imkon berish.

Yangi munosabatlarning asosiy mazmuni, hozirgi zamon sharoitida samarali natija bermaydigan va g'ayri insoniy hisoblanadigan majburlash pedagogikasidan voz kechishdir. Muammo bu yondashuvni mutlaqlashtirishda emas, balki uning oqilona mezonlarini aniqlashdadir. Umuman olganda tarbiya jarayonida majburlashdan voz kechish mumkin emas, ammo jazolash insonni kamsitadi, ezadi, rivojlanishini susaytiradi, unda so'zsiz itoatkorlik xususiyatlarini shakllantiradi.

***Shaxsiy yondashishda birinchi navbatda quyidagilar zarur bo'ladi:***

- har bir ta'lim oluvchi qiyofasida noyob shaxsni ko'rish, uni hurmat qilish, tushunish, qabul qilish, unga ishonish. Pedagogda barcha ta'lim oluvchilar iste'dodli degan ishonch bo'lishi kerak.
- shaxsga yutuqni ma'qullovchi, qo'llab-quvvatlovchi, xayrixoh vaziyatlar yaratish, ya'ni o'qish qoniqish va xursandchilikni olib kelishi kerak;
- bevosita majburlashga yo'l qo'ymaslik, qoloqlikka va boshqa kamchiliklarga urg'u bermaslik, uning nafsoniyatiga tegmaslik;
- pedagogik jarayonda, ta'lim oluvchilarga o'z qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishga imkoniyat yaratish va ko'maklashish.

Ayni vaqtda shaxsga yo'naltirilgan ta'limning quyidagi turlari farqlanmoqda



### Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning asosiy turlari

**Ta'lim tizimi uchun o'qitishning shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalariga quyidagilarni kiritish mumkin:**

- ✓ muammoli ta'lim;
- ✓ hamkorlik;
- ✓ o'yinli;
- ✓ tabaqalashtirilgan;
- ✓ yakka tartibda o'qitish;
- ✓ modulli o'qitish;
- ✓ kompyuterlashtirilgan;
- ✓ masofali ta'lim va boshqalar.

### NAZORAT SAVOLLARI

1. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning o'ziga xos xususiyatlari?
2. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim turlari?
3. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim qanday turlardan iborat?
4. Hamkorlik ta'limini qo'llashda ta'lim oluvchilar qanday shakllarda ta'lim oladi?



5. Pedagogik muammo nima?

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Akmalov A. Sport, malaka oshirish ta'limida innovatsiya va interfaol texnologiyalar – Toshkent: “Umid Dezgin” – 2022., 72b.
2. Avliyoqulov N.X. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari. –Toshkent: O'qituvchi, 2001. – 69 b.
3. Tursualiyev I.A., Amonov A.N., Yeldasheva G.V., Dexkambayeva Z.A. Murabbiy-o'qituvchning pedagogik kompetensiyasi va mahorati. Uslubiy qo'llanma.- T.: Ilmiy –texnika axborot-press nashriyoti, 2019 .- 92 b.
4. Yeldasheva G., Karimova G. Ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiya elementlaridan foydalanish. Metodik qo'llanma. / T.: Lesson press, 2020
5. Golish L.V. Ta'lim shakllari: mazmun, tanlash va amalga oshirish. - Toshkent: Tasis, 2001. – 43 b.
6. Golish L.V. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari: mazmun, loyihalashtirish va amalga oshirish - Toshkent: Tasis, 2001. – 59 b.
7. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'raev A. B. Innovatsion ta'lim texnologiyalari .- T.: “Sano standart” nashriyoti, 2015.
8. Muxamedov O'. X., Usmonboeva M. H., Rustamov S. S. Ta'limni tashkil etishda zamonaviy interfaol metodlar. o'quv-uslubiy tavsiyalar. – T.: 2012.
9. Ro'zieva D., Usmonboeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi. Met.qo'll. – T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013.

**5-MAVZU. MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA FOYDALANISH.**

**Reja:**

5.1.Muammoli ta'lim texnologiyasi mohiyati.

5.2.Muammoli vaziyatlarni yaratish

**5.1.Muammoli ta'lim texnologiyasi mohiyati.**

*“Texnologiya” - yunoncha ikki so'zdan – “texnos” (techne) – mahorat, san'at va “logos” (logos) – fan, ta'limot so'zlaridan tashkil topgan.*

Texnologiya deganda, subekt tomonidan obektga ko'rsatilgan ta'sir natijasida subektda sifat o'zgarishiga olib keluvchi jarayon tushuniladi. Texnologiya har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalanib, obektga yo'naltirilgan maqsadli amallarni muayyan ketma-ketlikda bajarishni ko'zda tutadi. Ushbu tushunchalarni o'quv jarayoniga ko'chiradigan bo'lsak, pedagogning o'qitish vositalari yordamida ta'lim oluvchilarga muayyan sharoitlarda ko'rsatgan tizimli ta'siri natijasida ularda jamiyat uchun zarur bo'lgan va oldindan

belgilangan ijtimoiy sifatlarni intensiv tarzda shakllantiruvchi ijtimoiy hodisa deb ta'riflash mumkin. Ta'riflar nazariyasi bo'yicha bunday ijtimoiy hoidisani pedagogik texnologiya, desa bo'ladi.

Pedagogik texnologiya - ilmiylikka asoslangan xolda vaqt va makonga nisbatan dasturlashtirilgan, muayyan belgilangan natijaga olib keluvchi, pedagogik jarayonlarga oid komponentlarning barchasini birdek ishga sola oluvchi tizim (*Pedagogik ensiklopediya*).

Pedagogik texnologiya atamasiga ko'pchilik olimlar o'z nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda ta'rif bergan. Hali bu tushunchaga to'liq va yagona ta'rif qabul qilinmagan. Ushbu ta'riflar ichida eng maqsadga muvofiq'i **YUNESKO** tomonidan berilgan ta'rif sanaladi.

**Pedagogik texnologiya** – ta'lim shakllarini optimallashtirish maqsadida inson va texnika imkoniyatlari hamda ularning o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda o'qitish va o'zlashtirish jarayonini yaratish, qo'llash va aniqlash tizimidir (*YUNESKO*).

Ta'lim oluvchilarda ijodiy izlanish, kichik tadqiqotlarni amalga oshirish, muayyan farazlarni ilgari surish, natijalarni asoslash, ma'lum xulosalarga kelish kabi ko'nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qiladigan ta'lim **muammoli ta'lim** deb ataladi.

Muammoli ta'limning ilk g'oyalari amerikalik psixolog va pedagog **J.Dyui** (1859-1952 yy.) tomonidan asoslangan. U 1894 yilda Chikagoda o'qitish o'quv rejasi bo'yicha emas, balki o'yin va mehnat asosida olib boriladigan tajriba maktabini tashkil etgan.

**J.Dyui** muammoli ta'lim asosi sifatida quyidagi yo'nalishlarni belgilagan:

- 1.** ijtimoiy;
- 2.** konstruktiv;
- 3.** badiiy ifodaviy;
- 4.** ilmiy-tadqiqot.

Muallif ko'rsatilgan yo'nalishlarda ta'limni tashkil etish uchun quyidagi

vositalardan foydalangan:

1. soʻz;
2. sanʼat asarlari;
3. texnik qurilmalar;
4. oʻyinlar;
5. mehnat.

Oʻtgan asrning 60-yillarida esa muammoli taʼlim **S.L. Rubinshteyn, M.I. Maxmutov, V.Okon, I.Y. Lerner** kabi tadqiqotchilarning qarashlari negizida yanada rivojlangan.

**S.L. Rubinshteyn**ning “Tafakkur muammoli vaziyatdan boshlanadi” degan gʻoyasi muammoli taʼlimning psixologik asosi sifatida qabul qilingan.

**Muammoli taʼlim turlari** (**M.N. Skatkin**):

1. Bilimlarni muammoli bayon qilish (muammoli maʼruza).
2. Muammoli topshiriqlarni hal qilish (muammoli amaliy mashgʻulot).
3. Kichik ilmiy tadqiqotlarni olib borish (muammoli tajriba).

Muammoli taʼlimning asosini **muammo** (yun. “toʻsiq”, “qiyinchilik”) yoki **muammoli vaziyat** tashkil etib, **muammoli TT** ularning echimini topishga xizmat qiladi. Koʻp holatlarda muammo va muammoli vaziyat sinonimlardek qabul qilinadi. Aslida esa ular bir-biridan farq qiladi.

Muammoning **tarkibiy qismlari**:

1. maʼlum bilimlar;
2. nomaʼlum bilimlar;
3. mavjud tajriba.

**Pedagogik muammo** – hal qilinishi zarur, biroq, hali echish usuli nomaʼlum

bo'lgan pedagogik xarakterdagi masala.

Muammoni qo'yish quyidagi **bosqichlarda** kechadi:

1. Muammoni izlash.
2. Muammoni qo'yish.
3. Muammoni hal qilish.

Ta'lim jarayonida muammoni qo'yish bir necha sathda kechadi. Ular:

### Muammoni qo'yish sathlari

<b>1-sath</b>	<b>O'qituvchi muammoni qo'yadi va ta'lim oluvchilarni uni hal qilishga yo'naltiradi</b>
<b>2-sath</b>	<b>O'qituvchi muammoli vaziyatni bayon qiladi va ta'lim oluvchilarning o'zlari mustaqil ravishda muammoni shakllantiradi</b>
<b>3-sath</b>	<b>O'qituvchi muammoni qo'rsatib bermaydi, balki unga ta'lim oluvchilarni ro'para qiladi. Ta'lim oluvchilar muammoni anglagan holda uni o'zlari shakllantirib, muammoni echish metodlarini tahlil qiladi</b>


**Muammoli vaziyat** – ta'lim oluvchilarning ma'lum topshiriqlarni bajarish (masalani echish, savolga javob topish) jarayonida yuzaga kelgan ziddiyatni anglashi bilan bog'liq ruhiy holati bo'lib, u hal etilayotgan masala bilan bog'liq yangi bilimlarni izlashni taqozo etadi.

Muammoli vaziyatlarni hal qilish **bosqichlari**:

1. Muammoli vaziyatni yaratish.
2. Vaziyatni tahlil qilish asosida muammoni qo'yish.
3. Farazlarni ilgari surish.
4. Echimni tekshirish.


Pedagogikada muammoli vaziyat metodi ham qo'llaniladi.

**Muammoli vaziyat metodi** – ta'lim oluvchilarni muammoli vaziyatga to'qnash kelishini ta'minlash asosida ularning bilish faoliyatini faollashtirishga asoslanadigan yo'l. Metodning mohiyati aniq vaziyatni tahlil qilish, baholash va uning echimi yuzasidan qaror qabul qilishdan iborat. Ta'lim jarayonida muammoli vaziyat metodi qo'llanilganda ta'lim oluvchilarning faoliyatlari quyidagi tizim asosida tashkil etiladi:



### Muammoli vaziyat metodi

Muammoli ta'lim jarayonini tashkil etishda o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan metodlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli o'qituvchilar ularni to'g'ri tanlashga e'tibor qaratishlari zarur. Quyidagilar muammoli ta'limning asosiy metodlari sanaladi:



### Muammoli ta'lim metodlari

Demak, zamonaviy sharoitda ta'lim amaliyotida loyiha hamda muammoli ta'lim texnologiyalarining qo'llanilishi o'qitish jarayonini samarali kechishini ta'minlash bilan birga ta'lim oluvchilarda mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Ta'lim sifatini yaxshilash va samaradorligini oshirishga nisbatan qo'yilayotgan ijtimoiy talablar o'qituvchilardan loyiha va muammoli ta'lim texnologiyalarini o'qitish jarayonida maqsadli, samarali qo'llashni talab etadi. Mazkur ta'lim texnologiyalarining mohiyatiga oid ma'lumotlar bilan tanishish malaka oshirish kurslari ta'lim oluvchilarining mavjud bilimlarini boyitish bilan birga amaliy ko'nikma, malakalarini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

#### 5.2. Muammoli vaziyatlarni yaratish.

Muammoli ta'lim, o'qitishning shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarga taalluqli, chunki bu yerda shaxs subekt sifatida qaraladi, muammoli vaziyatlarning maqsadi - pedagogik jarayonda o'ziga xos qiziqish uyg'otishdir.

Bugungi kunda, muammoli ta'lim deganda mashg'ulotlarda pedagog tomonidan yaratiladigan muammoli vaziyatlar va ularni yechishga qaratilgan ta'lim oluvchilarning faol mustaqil faoliyati tushuniladi. Buning natijasida ta'lim oluvchilar kasbiy bilimlarga, ko'nikmalarga, malakalarga ega bo'ladilar va fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi.

Muammoli ta'lim texnologiyalari ta'lim oluvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Muammoli ta'lim texnologiyasining asosi - ta'lim oluvchining fikrlashi muammoli vaziyatni hal etishdan boshlanishi hamda uning muammolarni aniqlash, tadqiq etish qobiliyatiga ega ekanligidan kelib chiqadi. Muammoli ta'lim ta'lim oluvchilarning ijodiy tafakkuri va ijodiy qobiliyatlarini o'stirishda jiddiy ahamiyatga ega.

Muammoli ta'limning bosh maqsadi - ta'lim oluvchilarning muammoni to'liq tushunib yetishiga erishish va ularni hal eta olishga o'rgatishdan iborat.

Muammoli ta'limni amaliyotda qo'llash asosiy masalalardan biri o'rganilayotgan mavzu bilan bog'liq muammoli vaziyat yaratishdan iborat. Turli o'quv fanlari bo'yicha pedagoglar darslar jarayonida muammoli vaziyatlar hosil qilishni va ularni yechish metodlarini oldindan ko'zda tutishlari kerak.

**Muammoli vaziyat yaratish metodlari:**

- pedagog ta'lim oluvchilarda dars mavzusi bilan bog'liq ziddiyatli holatni tushuntiradi va uni yechish yo'lini topishni taklif qiladi;
- bir masalaga doir turli nuqtai-nazarlarni bayon qiladi;
- muammoli vaziyatlarni hal etish darajalari:
- pedagog muammoni qo'yadi va o'zi yechadi;
- pedagog muammoni qo'yadi va uning yechimini ta'lim oluvchilar bilan birgalikda topadi;
- ta'lim oluvchilarning o'zlari muammoni qo'yadilar va uning yechimini topadilar.

**Muammoli vaziyatni yechishda qo'llaniladigan metodlar:**

- muammoni turli nuqtai-nazardan o'rganish, tahlil qilish;
- solishtirish, umumlashtirish; faktlarni aniqlash va qiyoslash;
- vaziyatga bog'liq xulosalar chiqarish;
- ta'lim oluvchilarning o'zlari aniq savollar qo'yishi va boshqalar.

Muammoli ta'lim texnologiyasi juda qadim zamonlardan buyon shakllanib kelmoqda. Jumladan, qadimgi Gretsiyada muammoli savol-javoblar, qadimgi Xindiston va Xitoyda muammoli baxs-munozaralardan keng foydalanilgan.

Muammoli ta'limni amerikalik psixolog, faylasuf va pedagog DJ.Dyui 1894 yilda Chikagoda tashkil etgan tajriba maktabida qo'llagan. XX asrning 60-yillarida bu yo'nalishda tadqiqotlar olib borildi. 70-80-yillarga kelib, amaliyotga keng joriy etildi.

Muammoli ta'limning asosiy g'oyasi bilimlarni ta'lim oluvchilarga tayyor holda berish emas, ular tomonidan dars mavzusiga tegishli muammolar bo'yicha o'quv-tadqiqotlarini bajarish asosida o'zlashtirilishini ta'minlashdan iborat.

**Muammoli ta'lim samaradorligining to'rtta bosh sharti mavjud:**

- muammo mazmuniga qarab yetarli qiziqish uyg'otishni ta'minlash;
- muammo yechimidagi har bir bosqichda paydo bo'ladigan ishlarni bajara olish mumkinligini ta'minlash (ma'lum va noma'lumlar nisbatining maqbulligi);
- muammo yechimida olinadigan axborotni ta'lim oluvchilar uchun muhimligi;
- pedagog va ta'lim oluvchi orasidagi munosabat xayrixohlik ruhida kechishi, ya'ni ta'lim oluvchilar tomonidan bildirilgan barcha fikr va farazlar e'tiborsiz va rag'batsiz qolmasligi zarur.

**Muammoli ta'limning bosh psixologik-pedagogik maqsadlari quyidagilardan iborat:**

- ta'lim oluvchining fikrlash doirasi va qobiliyatlarini o'stirish, ijodiy ko'nikmalarini rivojlantirish;
- muammoni mustaqil yechishda va faol izlanish davrida olingan bilim va ko'nikmalarni ta'lim oluvchilar tomonidan o'zlashtirilishi, buning natijasida ushbu bilim va ko'nikmalar an'anaviy o'qitishdagidan ko'ra ancha mustahkam bo'lishi;
- nostandart muammolarni ko'ra oluvchi, qo'ya oluvchi va yecha oluvchi ta'lim oluvchining faol ijodiy shaxsini tarbiyalash;
- kasbiy muammoli fikrlashni rivojlantirish – har bir aniq faoliyatda o'zining xususiyatlariga egaligi.



### *Hamkorlik ta'lim texnologiyasi*

**Hamkorlik ta'limi texnologiyalari** – o'quv jarayonida ta'lim oluvchilarning jamoada, kichik guruh va juftlikda bilimlarni birgalikda o'zlashtirishlari, o'zaro rivojlanishlari, shuningdek, “pedagog-ta'lim oluvchi(lar)” munosabatining hamkorlikda tashkil etilishini ta'minlovchi ta'limiy xarakterdagi texnologiyalar.

#### **Hamkorlik ta'limi o'zida muayyan belgilarni namoyon etadi.**

##### *Ular:*

- ta'lim oluvchi shaxsi, individualligiga e'tibor qaratish;
- tayyor bilimlarni o'zlashtirish va ularni qayta ishlab chiqishni inkor qilish;
- ta'lim oluvchilarda mustaqil va tanqidiy tafakkurni rivojlantirish;
- pedagogga va tengdoshlarga nisbatan ijobiy munosabatning yuzaga kelishini ta'minlash;
- ta'lim oluvchilarda madaniy muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish;
- hamkorlik va o'zaro tenglikka asoslangan muhitni yaratish.

#### **Hamkorlik ta'limini qo'llashda ta'lim oluvchilar quyidagi shakllarda ta'lim oladi:**

- 1) jamoada;
- 2) kichik guruhda;
- 3) juftlikda.

1. Jamoada ta'lim olish. Har bir ta'lim oluvchining yutuqlaridan jamoa xabardor bo'ladi, chunki jamoa har bir ta'lim oluvchi tomonidan o'quv materialining muvaffaqiyatli o'zlashtirilishidan manfaatdor. Zero, jamoaning muvaffaqiyati har bir ta'lim oluvchi va uning yutug'iga, jamoa oldiga qo'yilgan muammoning yechimiga bog'liq.

2. Kichik guruhda ta'lim olish. Ta'lim oluvchilar 4-5 nafardan bo'lib, kichik guruhlarga birlashib, blok hoida berilgan o'quv materialini ustida ishlaydi. Har bir ta'lim oluvchi material ustida alohida ishlaydi. So'ngra bir guruhdagi ta'lim oluvchilar boshqa guruhlarga 1 nafardan bo'lib o'tishadi va o'zlari o'rgangan material bo'yicha ekspert sifatida tengdoshlariga ma'lumot bergandan so'ng o'z guruhlarga qaytirib, tengdoshlaridan o'zlashtirgan ma'lumotlar bilan o'z jamoasi

a'zolarini tanishtiradi. Bunda sheriklarni diqqat bilan tinglash, zarur ma'lumotlarni o'z daftarlariga qayd etib borish talab qilinadi. Mashg'ulot so'nggida pedagog istalgan ta'lim oluvchidan o'rganilgan mavzu bo'yicha savollarga javob berishini so'raydi.

3. Juftlikda ishlash. Ta'lim oluvchilar juftliklarga bo'linadi. Har bir juftlik yaxlit mavzu bo'yicha alohida topshiriq oladi. Birgalikda ishlash asosida juftlik a'zolari o'zlariga berilgan materialni o'zlashtiradi. So'ngra bu haqida jamoa oldida axborot beradi.

**Hamkorlik ta'limini tashkil etishda ta'lim oluvchilardan quyidagilar talab etiladi:**

- sherigi va guruhdoshlari bilan hamkorlikka erishish;
- faol ishlash, topshiriqqa nisbatan mas'uliyatli yondashish;
- sherigi yoki guruhdoshlariga ijobiy munosabatda bo'lish;
- nafaqat o'z yutug'i, balki sherigi va guruhining muvaffaqiyati uchun javobgarlikni his qilish;
- juftlikda va guruhda ishlash–jiddiy va mas'uliyatli mehnat ekanligini his qilish.

### ***O'yin texnologiyasi***

Ta'lim jarayonidagi ta'lim oluvchining faolligi, didaktikaning asosiy prinsiplaridan biri bo'lib kelgan va shunday bo'lib koladi. Ta'lim oluvchining faolligi, maqsadli yo'naltirilgan boshqaruvchi pedagogik ta'sirlar va pedagogik muhitning tashkil etilishi natijasidir. Ta'lim oluvchilarning faolligini ta'minlovchi, o'qitish texnologiyalaridan biri - pedagogik o'yin hisoblanadi. O'yin faoliyatiga qiziqish, ta'lim oluvchilarning o'z-o'zini ifoda etish, ro'yobga chiqarish kabi ehtiyojlarini qondiruvchi, musobaqalashish elementlari orqali ta'minlanadi.

O'yinning ajoyib xususiyati shundaki, u bir vaqtning o'zida ham rivojlanish, ham o'rganish hisoblanadi.

Pedagogik o'yin, o'qitishning aniq qo'yilgan maqsadi va unga tegishli pedagogik natija bilan belgilanadi. Bu natijalar asoslangan va o'quv tayyorgarlik faoliyatiga ega bo'ladilar.

Pedagogik o'yinlar o'yin uslubiga ko'ra quyidagicha tavsiflanadi: syujetli, ishbilarmonlik, rolli, imitatsion, dramalashtirilgan o'yinlar.

Hozirgi paytda ta'lim va tarbiya vositasi sifatida ko'pgina pedagoglarning e'tiborini o'ziga tortib borayotgan bu o'yinlar ham pedagog, ham ta'lim oluvchida katta qiziqish uyg'otmoqda, chunki hamma ham o'yinga qiziqadi, bu esa o'yin jarayonida nazariy bilim va amaliy ko'nikma hamda malakalarni shakllantirishga va rivojlantirishga, ta'lim oluvchilar fikrlash qobiliyatini o'stirishga, jamoani uyg'unlashtirishga va shaxsiy fazilatlarni shakllantirishga yordam beradi.

Ta'lim berish nuqtai-nazaridan o'yin bilim, ko'nikma va malakalar bilan bir qatorda jamoa bo'lib masalalarni hal qilish yo'llari to'g'risidagi bilimlarni, turli xildagi topshiriqlarni yechish yo'llarini qidirish jarayonida o'zaro muloqot qilish shakllari va metodlarini shakllantiradi. O'yin ish o'rnini mustaqil rejalashtirish, ishlab chiqarish texnologik meyorlarini muvaffaqiyatli bajarish ko'nikmalarini, o'quv-ishlab chiqarish ishlarini bajarishning ilg'or metodlarini o'rganishni ham shakllantiradi.

Tarbiyalash nuqtai-nazaridan esa o'yin hamrohlar fikrini hurmat qilish, uni ishda qo'llab-quvvatlashga intilish, o'zining o'quv-bilish imkoniyatlariga ishonch kabi shaxsiy fazilatlarni shakllantiradi.

O'yinning rivojlantiruvchi tomoni ta'lim oluvchilarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish bilan bog'liq bo'ladi.

Osongina o'ynaladigan o'yinlar orqali ta'lim oluvchilar dars jarayoniga qiziqib, o'tilgan mavzularni takrorlab mustahkamlaydilar, olgan bilim va ko'nikmalarining darajasini tekshirishni hal qiladilar, ish jarayonining qanday bajarilganligi ta'lim oluvchilarning o'zlari tomonidan kuzatiladi va baholanadi, o'yin jarayonida o'zaro nazorat tizimi tuziladiki, u ta'lim-tarbiya jarayonining yuksalishi uchun juda kerakdir.

O'yin texnologiyasining ta'lim-tarbiya berishdan boshqa tomoni ham bor: o'yin davomida har bir ta'lim oluvchining ichki qobiliyati va layoqati, faolligi bevosita ko'rinadi.

---

***Tabaqalashtirib o'qitish texnologiyasi***

Tabaqalashtirib o'qitish o'quv jarayonini tashkil etishning shakli sifatida umumiy didaktika prinsipariga asoslangan bo'lib, maxsus tashkil ettirilgan ta'lim oluvchilarning gomogen guruhlarida, o'quv jarayonini ixtisoslashtirishni ta'minlaydi

O'qitishni tabaqalashtirish – uslubiy, psixologik-pedagogik va tashkiliy-boshqaruv tadbirlar majmuasi asosida tuzilgan turli xildagi gomogen guruhlarda o'qitish uchun turli xil shart-sharoitlarni yaratish demakdir.

O'qitishning eng yuqori oliy pog'onasi individual o'qitish hisoblanadi.

Umumta'lim maktablarida ta'lim oluvchilarning aqliy rivojlanish darajasi bo'yicha tabaqalashning ijobiy tomonlari bilan bir qatorda salbiy tomonlari ham mavjud bo'ladi.

### ***Yakka tartibda o'qitish texnologiyasi***

Ta'lim oluvchining mavjud shaxsiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqarishini ta'minlash, zamonaviy o'quv jarayoniga qo'yiladigan jadallashgan ilmiy-texnikaviy taraqqiyotining talabidir. Bunga individual va individuallashtirilgan o'qitish orqali erishish mumkin.

Individual o'qitish – bu o'quv jarayonining tashkil etishning shakli bo'lib, bunda pedagog ta'lim oluvchilar bilan yakkama-yakka shug'ullanadi, ta'lim oluvchi o'quv vositalari (kitoblar, kompyuter va h.k.) yordamida uzluksiz mustaqil ta'lim oladi.

Individual o'qitishning afzalliklari: pedagogik jarayonning ta'lim oluvchi qobiliyatlariga moslashuvchanligi imkoniyatidir. Bunda ta'lim oluvchining bilim olish darajasi doimiy monitoringini amalga oshirish va zaruriy tuzatishlar kiritish natijasida maqbul pedagogik jarayon tashkil etiladi

Individual yondashish – bu pedagogik prinsipga ko'ra, pedagogik jarayonda pedagogning ta'lim oluvchilar bilan o'zaro munosabati, ularning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda quriladi va butun guruh hamda har bir alohida ta'lim oluvchining rivoji uchun psixologik-pedagogik muhit yaratiladi.

Individuallashtirilgan o'qitish bunday o'quv jarayonini tashkil etishda individual yondashish asosida o'qitish yo'llari, metodlari, sur'ati tanlanadi va turli

---

“Pedagogika va psixologiya” kafedrası

o'quv-uslubiy psixologik-pedagogik hamda tashkiliy boshqaruv tadbirlari orqali ta'minlanadi.

*Yakka tartibda o'qitish texnologiyasi* – bunda o'quv jarayonini tashkil etishda individual yondashish va o'qitishning individual shakli ustuvor hisoblanadi. O'qitishning barcha shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarida u yoki bu darajada individual yondashish qo'llaniladi, ammo individuallashtirilgan o'qitishda, individuallashtirish, o'quv maqsadlariga erishishning asosiy vositasi hisoblanadi. Individuallashtirilgan o'qitishning asosi, ta'lim oluvchining individual-pedagogik xususiyatlarini o'rnatish hisoblanadi. Olingan natijalar asosida, o'qitish metodi tanlanadi. Qabul qilingan texnologiyalar, qoidalar va prinsiplarga ko'ra o'qitish jarayoni amalga oshiriladi.

### *Masofaviy o'qitish texnologiyasi*

Ilmiy texnik taraqqiyotning xususiyatlari mustaqil ishlash ko'nikma va malakalarini shakllantirish va uzluksiz, ijodiy bilimlarni egallashni talab qiladi. Bunday ta'lim xizmatlarini ko'rsatish istiqbolli, zamonaviy o'quv tizimlari uchun quyiladigan talablardan biridir. YUNESKO "Ta'limni axborotlash instituti" mutaxassislarining fikricha, ta'lim jarayonini rivojlantirish-ning asosiy yo'nalishlaridan biri dunyo aholisiga axborotlash-tirish va telekommunikatsiya texnologiyalardan foydalangan holda, masofaviy o'qitish va mustaqil o'qish imkoniyatlaridan keng foydalanish ta'minotini yaratishdir.

**Masofaviy o'qitish** – bu masofadan turib o'qitish, qaysiki o'quv mashg'ulotlarining barchasi yoki ko'p qismi telekommunikatsion va zamonaviy axborotlashtirish texnologiyalar asosida olib boriladi.

#### *Masofaviy o'qitish, ayniqsa:*

- o'qitishning an'anaviy metodlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lmagan, bu jarayon imkoniyatlarining chegaralanganligi tufayli o'qish va ishlashni birgalikda amalga oshira olmaydiganlar uchun;
- turg'un sharoitda o'qish imkoniyatlariga ega bo'lmagan, imkoniyatlari tibbiy shart- sharoitlar tufayli chegaralanganlar uchun;

- pedagoglar va boshqa soha mutaxassislarining qayta tayyorlash va malakasini oshirishda;
- chet el o'quv muassasalarida ta'lim olishni istaydiganlar uchun;
- ikkinchi mutaxassislikni egallashni istaydiganlar uchun juda dolzarb bo'lishi mumkin.

Istiqbolli zamonaviy o'qitish tizimlari har bir shaxsning o'zi istagan ta'lim olish huquqidan foydalana olish imkoniyatini berishi kerak. Masofaviy o'qitish aynan shunday o'qitish shakli bo'la oladi.

### NAZORAT SAVOLLARI

1. Muammoli ta'lim texnologiyasi mohiyati?
2. Muammoli vaziyatlarni yaratish?
3. Lug'aviy jihatdan "innovatsiya" tushunchasi qanday ma'noni ifodalaydi?
4. Texnologiya" so'zining lug'aviy ma'nosi nimani anglatadi?
5. Hamkorlik ta'limini qo'llashda ta'lim oluvchilar qanday shakllarda ta'lim oladi?

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

8. Akmalov A. Sport, malaka oshirish ta'limida innovatsiya va interfaol texnologiyalar – Toshkent: "Umid Dezg'in" – 2022., 72b.
9. Avliyoqulov N.X. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari. –Toshkent: O'qituvchi, 2001. – 69 b.
10. Dexkambayeva Z.A., Pulatov J.A. Sport ta'limida innovation pedagogik texnologiyalar. T.: Printerhaus, 2021 .- 134 b.
11. Golish L. V. Ta'limning faol usullari: mazmuni, tanlash, amalga oshirish. – Toshkent: Tasis, 2001. – 69 b.
12. Golish L.V. Ta'lim shakllari: mazmun, tanlash va amalga oshirish. - Toshkent: Tasis, 2001. – 43 b.
13. Golish L.V. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari: mazmun, loyihalashtirish va amalga oshirish - Toshkent: Tasis, 2001. – 59 b.
14. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'raev A. B. Innovatsion ta'lim texnologiyalari .- T.: "Sano standart" nashriyoti, 2015.
15. Muxamedov O'. X., Usmonboeva M. H., Rustamov S. S. Ta'limni tashkil etishda zamonaviy interfaol metodlar. o'quv-uslubiy tavsiyalar. – T.: 2012.
16. Ro'zieva D., Usmonboeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi. Met.qo'll. – T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013.
17. Tursualiyev I.A., Amonov A.N., Yeldasheva G.V., Dexkambayeva Z.A. Murabbiy-o'qituvchning pedagogik kompetensiyasi va mahorati. Uslubiy qo'llanma.- T.: Ilmiy –texnika axborot-press nashriyoti, 2019 .- 92 b.
18. Yeldasheva G., Karimova G. Ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiya elementlaridan foydalanish. Metodik qo'llanma. / T.: Lesson press, 2020

**6-mavzu. Jismoniy tarbiya darslarida interfaol ta'lim.****Reja:**

6.1. Interfaol ta'lim va uning imkoniyatlari.

6.2. Jismoniy tarbiya darslarida qo'llaniladigan interfaol metodlar.

**6.1. INTERFAOL TA'LIM VA UNING IMKONIYATLARI.**

**“Aqliy hujum” metodi.** “Aqliy hujum” metodi – o'quvchilarning mavzu xususida boshlang'ich bilimlarini aniqlash va ularning o'z tasavvurlari, g'oyalaridan ijobiy foydalanishga asoslangan metod. Bu metod mashg'ulot ishtirokchilarini muammo xususida keng va har tomonlama fikr yuritish hamda o'z tasavvurlari va g'oyalaridan ijobiy foydalanish borasida ma'lum ko'nikma hamda malakalarni hosil qilishga rag'batlantiradi. Bu metod guruhlarda yangi g'oyalar ishlab chiqish samaradorligini sezilarli darajada oshirishni ta'minlaydi.

“Aqliy hujum” metodi qatnashchilarni o'z tasavvurlari, mustaqil fikr yuritishlari, izlanishlari va ijodlaridan samarali foydalanishga undaydi. U berilgan har qanday muammo, vaziyat, topshiriq va vazifalarni, muammolarni hal qilishda hamda berilgan vaziyatlarda qanday yo'l tutish mumkin, berilgan vazifani qanday metodlar orqali yechimini topish mumkin, ushbu to'siqni qanday bartaraf qilish kabi holatlarning yechimlarini topishda o'quvchilarning yakka, juftlikda va guruh bo'lib muhokamalar, fikr-mulohazalar yuritishlari natijasida har qanday muammo va savollari, boshqotirmalarning yechimlarini topishda yaqindan yordam beradi.

Istalgan fan bo'yicha dars mashg'ulotlarida o'tiladigan mavzuni, turli xil tomonlarini, qirralarini, sinf o'quvchilarining mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish, ulardagi qarma-qarshiliklarni ko'rsata olish, o'zaro bahs-munozara yuritish, muloqotga chaqirish, yakka tartibda, juftlikda yoki kichik guruhlardagi o'z mustaqil fikrlarini, munosabatlarini bildirib, uni himoya eta olish, asoslab berish, boshqa ishtirokchilarni fikrini eshita olish, darsni yakunida dars bo'yicha bilimni o'quvchilar tomonidan qanchalik qabul qilinganligi, o'zlashtirilganligini bilish va ular egallagan bilim miqdorini aniqlash uchun o'quvchilarning ta'lim tayyorgarlik darajasini ballar bilan baholash maqsadida “Aqliy hujum”ni qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Shundan so'ng, har bir kichik guruh a'zolari o'z

guruhlarida ishlab chiqilgan g'oya haqida axborot beradilar va o'qituvchi rahbarligida ular xulosa qilinadi.

**“Pinbord” metodi (inglizchadan: pin - mustahkamlash, board - doska).**


Bu o'qitish metodining mohiyati shundan iboratki, unda munozara yoki o'quv suhbatini amaliy metod bilan bog'lanib ketadi. Uning afzallik funksiyalari-rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi vazifadir: o'quvchilarda muloqat yuritish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi, o'z fikrini faqat og'zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko'nikmasi rivojlanadi.

**“Klaster” metodi.** “Klaster” metodi - g'uncha, to'plam, bog'lam kabi ma'nolarni anglatib, ilgari surilgan g'oyalarni umumlashtirish, ular o'rtasida aloqalarni topish imkoniyatini yaratadigan grafik organayzer.

Ushbu metod ta'lim oluvchilarga ixtiyoriy muammo xususida erkin, ochiq o'ylash va shaxsiy fikrlarni bemalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Mazkur metod turli xil g'oyalar o'rtasidagi aloqalar to'g'risida fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. “Klaster” metodi aniq obektga yunaltirilmagan fikrlash shakli sanaladi. Unday foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog'liq ravishda amalga oshiriladi. Ushbu metod muayyan mavzuning ta'lim oluvchilar tomonidan chuqur hamda puxta o'zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromida bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi.

G'oyaga muvofiq ishlab chiqilgan “Klaster” metodi puxta o'ylangan strategiya bo'lib, undan ta'lim oluvchilar guruh asosida tashkil etilgan mashg'ulotlari jarayonida foydalanish mumkin. Guruh asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarda ushbu metod guruh a'zolari tomonidan ilgari surilgan g'oyalarni o'yg'unlashtirish hamda ular o'rtasidagi aloqalarni topa olish imkoniyatini yaratadi.





### Klaster metodining tuzilishi


#### “Klaster” metodini amalga oshirish qoidalari:

1. Nimaniki o‘ylagan bo‘lsangiz, shuni qog‘ozga yozing. Fikringizning sifati to‘g‘risida uylab o‘tirmay, ularni shunchaki yozib boring.
2. Yozuvingizning orfografiyasi yoki boshqa jihatlariga e‘tibor bermang.
3. Belgilangan vaqt nixoyasiga yetmaguncha, yozishdan to‘xtamang. Agar ma‘lum muddat biror bir g‘oyani o‘ylay olmasangiz, u holda qog‘ozga biror narsaning rasmini chiza boshlang. Bu harakatni yangi g‘oya tug‘ilguncha davom ettiring.
4. Muayyan tushuncha doirasida imkon qadar ko‘proq yangi g‘oyalarni ilgari surish hamda mazkur g‘oyalar o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik va bog‘liqlikni ko‘rsatishga harakat qiling. G‘oyalar yig‘indisining sifati va ular o‘rtasidagi aloqalarning ko‘rsatishini cheklamang.

**“FSMU” metodi.** Ushbu metod munozarali masalalarni hal etishda, bahs-munozara o‘tkazishda yoki o‘quv reja asosida biron bo‘lim o‘rganib bo‘lingach qullanilishi mumkin, chunki bu metod ta‘lim oluvchilarni o‘z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o‘z fikrini boshqalarga o‘tkazishga, ochiq holda baxslashishga, shu bilan qatorda Ta‘lim oluvchilarni, o‘quv jarayonida egallagan bilimlarni tahlil etishga, qay darajada egallaganliklarini baholashga hamda tinglavcholarni bahslashish madaniyatiga o‘rgatadi. Ushbu metod tarqatilgan oddiy qog‘ozga o‘z fikrlarini aniq, qisqa xolatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi. Bu metod ko‘yidagicha

amalga oshiriladi: Mashg'ulotda avval har bir ta'lim oluvchi yakka tartibda berilgan vazifani bajaradi, keyin esa kichik guruhlarda ish olib boradi va dars ohirida jamoa bo'lib ishlaydilar.

Har bir ta'lim oluvchiga FSMU metodining 4 bosqichi yozilgan qog'ozlar tarqatiladi:



### “FSMU” metodi

Har bir ta'lim oluvchi yakka tartibda tarqatilgan qog'ozdagi FSMU ning 4 bosqichini o'z fikrlarini yozma bayon etadi. So'ngra ta'lim oluvchilar kichik guruhlariga ajratiladi va guruhlariga FSMU yozilgan katta qog'oz beriladi. Kichik guruhda har bir ta'lim oluvchi o'zining yozgan javobini o'qib tanishtiradi, so'ngra guruh azolari birgalashib muhokama qilib, umumiy javoblarini yozadilar va uni himoya qiladilar.

**“Toifalash jadvali” metodi.** “Toifalash jadvali” metodi - ajratilgan belgilarga ko'ra olingan ma'lumotlarni birlashtirishni ta'minlab, tizimli mushohada qilishni, ma'lumotlarni tizimlashtirish ko'nikmasini rivojlantiradi.

Toifali sharhni tuzish qoidalari bilan tanishiladi. Ta'lim oluvchilarni kichik guruhlariga ajratiladi. Ta'lim oluvchilar bajarish uchun vazifalar beriladi va bajarish tartibi tushuntiriladi. Guruhlarga qog'ozlar to'plami va yozishlari uchun markerlar beriladi va belgilan muddatgacha berilgan vazifani qog'ozlarga yoziladi. Ta'lim beruvchi javoblarni toifalash uchun har bir guruhga bittadan vatmon

qog'oz beriladi. Kichik guruhlar bajargan vazifalarini o'zlari ishab chiqqan ya'ni ajratgan toifalariga qarab vatmonga yopishtiradilar. Kichik guruhlar taqdimot qiladi va muhokama qilinadi. Eng ko'p toifaga ajratgan guruh g'olib deb topiladi.

TOIFALAR		

**“Toifalash jadvali” metodining afzaligi:**

- ✓ ta'lim oluvchilarning faolligini oshiradi;
- ✓ mustaqil fikrlashi rivojlanadi;
- ✓ umumlashtirish va tizima keltirish bo'yicha ko'nikmalari oshadi;
- ✓ hamkorlikda ishlash malakalari rivojlanadi.

**“Toifalash jadvali” metodining kamchiligi:**

- ko'p vaqt talab etilishi;
- toifalarga ajratishda ba'zi bir qiyinchiliklarga duch kelishi mumkinligi;
- toifalash jarayonida guruhlar o'rtasida kelishmovchiliklar bo'lishi mumkin.

**“KEYS-STADI” metodi.** “Keys-stadi” - inglizcha so'z bo'lib, (“case” – aniq vaziyat, hodisa, “stadi” – o'rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o'rganish, tahlil qilish asosida o'qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qayerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari:

1-bosqich: Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishtirish

- yakka tartibdagi audio-vizual ish;
- keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda);
- axborotni umumlashtirish;

➤ axborot tahlili;

➤ muammolarni aniqlash

2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o'quv topshirig'ni belgilash

➤ individual va guruhda ishlash;

➤ muammolarni dolzarblik iyerarxiasini aniqlash;

➤ asosiy muammoli vaziyatni belgilash

3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o'quv topshirig'ining yechimini izlash, hal etish yo'llarini ishlab chiqish

➤ individual va guruhda ishlash;

➤ muqobil yechim yo'llarini ishlab chiqish;

➤ har bir yechimning imkoniyatlari va to'siqlarni tahlil qilish;

➤ muqobil yechimlarni tanlash

4-bosqich: Keys yechimini yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.

➤ yakka va guruhda ishlash;

➤ muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash;

➤ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash;

➤ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish

Keys-stadi metodini turli holatlarni o'rganishda qo'llash - hayotdan olingan odatdagi vaziyatlarni o'rganishni tashkil etish yoki sun'iy yaratilgan vaziyatlarga asoslangan holda ta'lim oluvchilardan tegishli muammolarning maqsadga muvofiq yechimlarini izlashni talab qilishga qaratilgan ta'lim jarayonidan iborat. Bu metod ta'lim oluvchilarga mavzuga tegishli xayotiy vaziyatni tashxis qilish, farazlarni ifodalash, muammolarni aniqlash, qo'shimcha axborotlarni yigish, farazlarga aniqlik kiritish va muammolarni yechish hamda ularni bajarishning aniq bosqichlarini loyixalash bo'yicha amaliy faoliyatlarini modellashtirish imkonini beradi. Muayyan xayotiy vaziyatlarga bagishlangan keyslardan foydalanish ta'lim jarayonini haqiqiy hayot bilan bog'laydi.


## 6.2. JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA QO'LLANILADIGAN INTERFAOL METODLAR.

“**Interfaol**” tushunchasi ingliz tilidagi “interact” (rus tilida “interaktiv”) soʻzidan olingan boʻlib, lugʻaviy nuqtai nazardan “inter” – oʻzaro, “act” – harakat qilmoq, yaʼni oʻzaro harakat qilmoq degan maʼnoni anglatadi.

**Interfaol taʼlim** – bilim, koʻnikma, malaka va muayyan ahloqiy sifatlarni oʻzlashtirish yoʻlidagi oʻzaro harakatlarini tashkil etishga asoslanuvchi taʼlim.

**Interfaollik** – taʼlim jarayoni ishtirokchilarining bilim, koʻnikma, malaka hamda muayyan axloqiy sifatlarni oʻzlashtirish yoʻlida birgalikda, oʻzaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etish layoqatiga egaliklari.

Taʼlim sohasida faoliyat yuritayotgan har bir mutaxassis yaxshi biladiki, anʼanaviy taʼlim ham suhbat (dialog)ga asoslangan va bu suhbat quyidagi oʻzaro munosabatlar shakllarida tashkil etiladi:



### 12-rasm. Suhbat asosidagi oʻzaro munosabatlar

Anʼanaviy taʼlimda ham tabiiy ravishda suhbat asosini axborot tashkil etadi. Ammo axborot uzatishning asosiy manbai pedagogning tajribasi boʻlib, bu jarayonda u yetakchilik qiladi, yaʼni u darsning asosiy vaqtida bilimlarni ogʻzaki tarzida taʼlim oluvchilarga yetkazib berishga intiladi. Faollik koʻrsatish pedagoggagina xos boʻlib, taʼlim oluvchilar bu vaziyatda sust tinglovchi boʻlib qoladi. Ularning asosiy vazifasi pedagogni tinglash, zarur oʻrinlarda yozish, savollar bilan murojaat qilinganida javob qaytarish, kam holatlarda (ruxsat etilganidagina) soʻzlashdan iboratdir.

Amerikalik psixolog olimlar R.Karnikau va F.Makelrouning oʻrganishlariga koʻra, shaxsning tabiiy fiziologik-psixologik imkoniyatlari muayyan shakllarda

o'zlashtirilgan bilimlarni turli darajada saqlab qolish imkonini beradi.

***Ya'ni shaxs:***

- ✓ manbani o'zi o'qiganida 10 %;
- ✓ ma'lumotni eshitganida 20 %;
- ✓ sodir bo'lgan voqea, hodisa yoki jarayonni ko'rganida 30 %;
- ✓ sodir bo'lgan voqea, hodisa yoki jarayonni ko'rib, ular to'g'risidagi ma'lumotlarni eshitganida 50 %;
- ✓ ma'lumot (axborot)larni o'zi uzatganida (so'zlaganida, bilimlarini namoyish etganida) 80 %;
- ✓ o'zlashtirilgan bilim (ma'lumot, axborot)larni o'z faoliyatiga tatbiq etganida 90 % hajmdagi ma'lumotlarni yodda saqlash imkoniyatiga ega ekan.

An'anaviy ta'lim berishdan farqli o'laroq, interfaol o'qitish "ta'lim jarayonining asosiy ishtirokchilari – pedagog, ta'lim oluvchi va ta'lim oluvchilar guruhi o'rtasida yuzaga keladigan hamkorlik, qizg'in bahs- munozara, o'zaro fikr almashish imkoniyatiga egalik asosida tashkil etiladi, ularda erkin fikrlash, shaxsiy qarashlarini ikkilanmay bayon etish, muammoli vaziyatlarda yechimlarni birgalikda izlash, o'quv materiallarini o'zlashtirishda ta'lim oluvchilarning o'zaro yaqinliklarini yuzaga keltirish, "pedagog – ta'lim oluvchi – ta'lim oluvchilar guruhi"ning o'zaro bir-birlarini hurmat qilishlari, tushunishlari va qo'llab quvvatlashlari, samimiy munosabatda bo'lishlari, ruhiy birlikka erishishlari kabilar bilan tavsiflanadi".

Zamonaviy ta'lim, jumladan uning tobora ommalashib borayotgan shakli – interfaol o'qitishda suhbat (dialog) quyidagi shaxslar o'rtasida tashkil etiladi:

**Interfaol ta'limdagi suhbat ishtirokchilari:**

- ta'lim oluvchi – ta'lim oluvchilar jamoasi (sinf, guruh jamoasida ishlash);
- ta'lim oluvchi – ta'lim oluvchilarning juftlikda ishlashi;
- ta'lim oluvchi – axborot-kommunikatsion texnologiyalar;
- ta'lim oluvchi – ta'lim oluvchilar guruhi (guruh yoki kichik guruhda ishlash).

Interfaol ta'lim, o'z mohiyatiga ko'ra, suhbatning "ta'lim oluvchi – axborot-kommunikatsion texnologiyalar" shaklida tashkil etilishi ta'lim oluvchilar tomonidan mustaqil ravishda yoki pedagog rahbarligida axborot texnologiyalari yordamida bilim, ko'nikma, malakalar o'zlashtirilishini anglatadi.

O'qitishning interfaol ta'limga asoslanishi bir qarashda nihoyatda oddiy, sodda va hatto "bolalar o'yini" kabi taassurot uyg'otadi. Biroq, bunda pedagogning ma'lum darajada quyidagi omillarga ega bo'lishi talab qilinadi:

**Asosiy omillar**

***Ish tajribasi***

- tayanch pedagogik-psixologik bilimlar;
- didaktik vositalar (axborot, tarqatma materiallar, dars jihozlari)ga ega bo'lish;
- ta'lim oluvchi va ta'lim oluvchilar guruhining o'zaro hamkorlikka erisha olishi;

***Metodik malaka***

- tashkilotchilik qobiliyati;
- ta'lim oluvchi va ta'lim oluvchilar guruhi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning ishonch va hurmatga asoslanishi;
- ta'lim jarayonida demokratik g'oyalarning ustuvor o'rin tutishi.

Shu bilan birga, o'qitishda interfaol ta'limning samara-dorligi quyidagi ikkilamchi omillarga ham bog'liq:

**Ikkilamchi omillar**

- ta'lim oluvchilarning darsga psixologik ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish tayyorliklari;
- ta'lim oluvchilarning muayyan darajada hayotiy tajribalarga egaliklari;
- ta'lim oluvchilarning pedagog tomonidan qo'yiladigan talablarga bo'ysunish xohishiga egaliklari;
- ta'lim oluvchilarning tengdoshlari va pedagog bilan hamkorlik qilishga moyilliklari;
- ta'lim oluvchilarning darsga mas'uliyat bilan yondashishlari, burchlarini anglay olishlari.

Pedagog ta'lim jarayonida interfaol ta'lim yordamida ta'lim oluvchi larning qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqillik, o'z-o'zini nazorat, o'z-o'zini boshqarish, samarali suhbat olib borish, tengdosh- lari bilan ishlash, ularning fikrlarini tinglash va tushunish, mustaqil hamda tanqidiy fikrlash, muqobil takliflarni ilgari surish, fikr-mulohazalarini erkin bayon qilish, o'z nuqtai nazarlarini himoya qilish, muammoning yechimini topishga intilish, murakkab vaziyatlardan chiqa olish kabi sifatlarni shakllantirishga muvaffaq bo'ladi. Eng muhimi, interfaol metodlarni qo'llash orqali pedagog ta'lim oluvchilarning aniq ta'limiy maqsadga erishish yo'lida o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatlarini tashkil etish, yo'naltirish, boshqarish, nazorat va tahlil qilish orqali xolis baholash imkoniyatini qo'lga kiritadi.

**Odatda interfaol metodlarga asoslangan ta'limiy harakatlar quyidagi shakllarda tashkil etiladi:**

- juftlikda ishlash;
- kichik guruhlarda ishlash;
- jamoa bilan ishlash.

**Interfaol ta'lim jarayonida ta'lim oluvchilar:**

- guruh yoki jamoa bilan hamkorlikda ishlash;
- tengdoshlari orasida o'z g'oyalarini erkin bayon qilish, bilimlarini hech qanday ruhiy to'siqlarsiz namoyish etish;
- muammoni hal qilishga ijodiy yondashish;
- guruh yoki jamoadoshlari bilan ruhiy yaqinlikka erishish;
- o'z ichki imkoniyat va qobiliyatlarini to'liq namoyon qila olish;
- fikrlash, fikrlarni umumlashtirish va ular orasidan eng muhimlarini saralash;
- o'z faoliyatini nazorat qilish va mustaqil baholash;
- o'z imkoniyatlari va kuchiga ishonch hosil qilish;
- turli vaziyatlarda harakatlanish va murakkab vaziyatlardan chiqa olish.

**Interfaol ta'lim:**

- ta'lim oluvchilarda bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishni uyg'otadi;



- ta'lim jarayonining har bir ishtirokchisini rag'batlantiradi;
- har bir ta'lim oluvchining ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi;
- o'quv materialining samarali o'zlashtirilishi uchun qulay sharoit yaratadi;
- ta'lim oluvchilarga ko'p tomonlama ta'sir ko'rsatadi;
- ta'lim oluvchilarda o'rganilayotgan mavzular bo'yicha fikr hamda munosabatni uyg'otadi;
- ta'lim oluvchilarda hayotiy zarur ko'nikma, malakalarni shakllantiradi;
- ta'lim oluvchilarning xulq-atvori ijobiy tomonga o'zgarishini ta'minlaydi.

**Interfaol ta'limning asosiy belgilari quyidagilardan iborat:**

**Asosiy belgilar:**

- ko'p fikrlilik;
- fikrlashga asoslangan faoliyat;
- tanlash imkoniyatining mavjudligi;
- suhbat (dialog);
- g'oyalarning yaratilishi (ilgari surilishi);
- muvaffaqiyatli vaziyatlarni hosil qilish;
- refleksiya

Refleksiya (**lotincha “reflexio” – ortga qaytish, aks etish**) - kishining o'z xatti-harakatlari, ularning asoslarini tushunib yetishi, fahmlashiga qaratilgan nazariy faoliyati; bilishning alohida faoliyati; shaxsiy kechinmalari, his-tuyg'ulari va o'y-xayollari mohiyatini fikrlash orqali anglash.

**Interfaol ta'lim quyidagi tamoyillarga asoslanadi:**

- mashg'ulot – ma'ruza emas, balki jamoaning umumiy ishi;
- guruhning tajribasi pedagogning tajribasidan ko'p ta'lim oluvchilar yoshi, ijtimoiy mavqe va tajribaga ko'ra o'zaro teng;
- har bir ta'lim oluvchi o'rganilayotgan muammo yuzasidan o'z fikrini aytish huquqiga ega;
- mashg'ulotda ta'lim oluvchi shaxsi tanqid qilinmaydi (fikr tanqid qilinishi mumkin);

- bildirilgan g'oyalar ta'lim oluvchilarning faoliyatini boshqarmaydi, balki fikrlash uchun axborot (ma'lumot) bo'lib xizmat qiladi.

**Asosiy shartlar:**

- jamoadagi barcha ta'lim oluvchilarning ta'lim jarayoniga to'la qamrab olinishi;
- ta'lim oluvchilar sonining ko'p bo'lmasligi (25–30 nafar ta'lim oluvchi bilan kichik guruhlarda ishlash samaralidir);
- topshiriqni bajarish, materiallarni taqdim etish, guruhlarning ishlanmalarini muhokama qilish uchun vaqtning aniq belgilanishi;
- ta'lim oluvchilarning mashg'ulotlarga ruhan tayyorliklarini inobatga olish;
- o'quv xonasining jihozlanishi (stullar doira, archa, "Jonli chiziq" kabi shakllarda joylashtiriladi);
- ta'lim oluvchilarning kichik guruhlarga mohirona biriktirilishi (har bir guruhda faol va nafaol ta'lim oluvchilarning teng miqdorda bo'lishi).

Bugungi kunda jahon ta'lim tizimida interfaol o'qitishning quyidagi shakllarda amalga oshirilayotganligi barchaga ma'lum:

**Asosiy shakllar:**

- ijodiy topshiriqni bajarish kichik guruhlarda ishlash
- test o'tkazish;
- masofaviy ta'lim;
- muammoli vaziyatlarni hal qilish;
- didaktik o'yinlar (ishbilarmonlik va rolli o'yinlar, imitatsiya, trenajyorlar vositasida tashkil etiladigan o'yinlar);
- ijtimoiy zaxiralardan foydalanish (mutaxassislarni taklif etish, tabiiy va ijtimoiy obektlarga ekskursiyalar uyushtirish);
- qaytar aloqa;
- treninglar o'tkazish;
- ijtimoiy loyiha (musobaqa, intervyu, forum, aksiya, tomosha va ko'rgazma) larni amalga oshirish;
- yangi materialni o'rganish va mustahkamlash (interfaol ma'ruza, ko'rsatmali

qurollar bilan ishlash, video va audiomateriallardan foydalanish).


Ta'lim metodlari ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar faoliyatining xususiyatini belgilaydi, ta'limning maqsadi va mazmuniga bog'liq bo'ladi.

Ta'lim metodlari tevarak-atrofdagi dunyoni bilishning umumiy qonuniyatlarini tushunishga bog'liqdir, ya'ni ular falsafiy metodologik asosga egadir va ta'lim jarayonidagi qarama-qarshiliklarni, ta'lim jarayonining mohiyati va tamoyillari to'g'ri anglash natijasidir.

Ta'lim metodlari nazariy jihatdan yaxshi asoslangan bo'lishi, pedagogik nazariyadan kelib chiqishi kerak, ammo, ta'lim metodlari amalda qo'llanilmasa, foydasiz bir narsaga aylanadi.


Shaxsga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyada ta'lim metodlari 3 turga ajratiladi: nofaol, faol va interfaol.

Nofaol metodlarda o'qituvchi tushuntiradi, ko'rsatadi, bayon qiladi, o'quvchi esa tinglaydi, kuzatadi, ko'radi, ya'ni passiv holatda bo'ladi (13- rasm).




### Nofaol metodlarda o'qituvchi-o'quvchi faoliyati

Faol metodlarda o'qituvchi ham, o'quvchi ham faol holatda bo'ladi. Faol metodlar qo'llanilganda, ta'limni tashkil etishning yakka tartibda ishlash shaklidan foydalaniladi



### Faol metodlarda o'qituvchi-o'quvchi faoliyati

Interfaol metodlarda nafaqat o'qituvchi va o'quvchi faol bo'ladi, balki o'quvchilar ham o'zaro bir-birlari bilan hamkorlikda faoliyat olib borishadi. Bunda asosan jamoaviy, kichik guruhlarda va juftlikda ishlash shakllaridan foydalaniladi



### Interfaol metodlarda o'qituvchi-o'quvchi faoliyati

Ta'lim jarayonida ta'lim oluvchilar hamda pedagog o'rtasida hamkorlikni qaror toptirish, faollikni oshirish, ta'lim oluvchilar tomonidan bilimlarni samarali o'zlashtirish, ularda shaxsiy sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladigan metodlar interfaol metodlar deb ataladi. Interfaol ta'lim asosini faol va interfaol metodlar tashkil etadi.

Barcha metodlar o'quv materialining didaktik vazifasi, shart-sharoitlar va vaqtni e'tiborga olgan holda tanlanadi. To'g'ri tanlangan uyg'unlashgan metodlar ta'lim oluvchining diqqatini uzoqroq saqlab turish va uning faolligini oshirish imkoniyatini beradi. Bu esa o'z navbatida ta'lim samaradorligining oshishiga olib keladi.

**“MUAMMOLI VAZIYAT” METODI**

**“Muammoli vaziyat” metodi** - ta'lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning yechimini topish bo'yicha ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metoddir.

“Muammoli vaziyat” metodi uchun tanlangan muammoning murakkabligi ta'lim oluvchilarning bilim darajalariga mos kelishi kerak. Ular qo'yilgan muammoning yechimini topishga qodir bo'lishlari kerak, aks holda yechimni topa olmagach, ta'lim oluvchilarning qiziqishlari so'nishiga, o'zlariga bo'lgan ishonchlarining yo'qolishiga olib keladi. “Muammoli vaziyat” metodi qo'llanilganda ta'lim oluvchilar mustaqil fikr yuritishni, muammoning sabab va oqibatlarini tahlil qilishni, uning yechimini topishni o'rganadilar.


**“Muammoli vaziyat” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:**

1. Ta'lim beruvchi mavzu bo'yicha muammoli vaziyatni tanlaydi, maqsad va vazifalarni aniqlaydi. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarga muammoni bayon qiladi. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarni topshiriqning maqsad, vazifalari va shartlari bilan tanishtiradi.
2. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarni kichik guruhlariga ajratadi.
3. Kichik guruhlar berilgan muammoli vaziyatni o'rganadilar. Muammoning kelib chiqish sabablarini aniqlaydilar va har bir guruh taqdimot qiladi. Barcha taqdimotdan so'ng bir xil fikrlar jamlanadi.
4. Bu bosqichda berilgan vaqt mobaynida muammoning oqibatlari to'g'risida fikr-mulohazalarini taqdimot qiladilar. Taqdimotdan so'ng bir xil fikrlar jamlanadi.
5. Muammoni yechishning turli imkoniyatlarini muhokama qiladilar, ularni tahlil qiladilar. Muammoli vaziyatni yechish yo'llarini ishlab chiqadilar. Kichik guruhlar muammoli vaziyatning yechimi bo'yicha taqdimot qiladilar va o'z variantlarini taklif etadilar.
6. Barcha taqdimotdan so'ng bir xil yechimlar jamlanadi. Guruh ta'lim beruvchi bilan birgalikda muammoli vaziyatni yechish yo'llarining eng maqbul variantlarini tanlab oladi.

## “QARORLAR SHAJARASI” METODI

“Qarorlar shajarasi” metodi muayyan fan asoslari borasidagi bir qator murakkab mavzularni o‘zlashtirish, ma’lum masalalarni har tomonlama, puxta tahlil etish asosida ular yuzasidan muayyan hulosalarga kelish, bir muammo xususida bildirilayotgan bir necha xulosalar orasidagi eng maqbul hamda to‘g‘risini topishga yo‘naltirilgan texnik yondoshuvdir.

Ushbu metod, shuningdek, avvalgi vaziyatlarda qabul qilingan qaror (xulosa)lar mohiyatini yana bir bora tahlil etish va uni mukammal tushunishga xizmat qiladi. Guruh ta'lim oluvchilari asosida qo‘llaniladigan “Qarorlar shajarasi” ta'lim oluvchilarning bilimlari natijasini aniqlash, ularning fikrlarini jamlash va baholash imkonini beradi. Ta'lim jarayonida mazkur metodning qo‘llanilishi muayyan muammo yuzasidan oqilona qaror qabul qilish (xulosaga kelish)da ta'lim oluvchilar tomonidan bildirilayotgan har bir variant, ularning maqbul hamda nomaqbul jihatlarini batafsil tahlil etish imkoniyatini yaratadi. Mashg‘ulot jarayonida ta'lim oluvchilar quyidagi chizma asosida tuzilgan jadvalni to‘ldiradilar (yoki ushbu tartibdagi faoliyatni olib borishda yozuv taxtasidan foydalanadilar):



“Qarorlar shajarasi” boshqichlari

“Qarorlar shajarasi” quyidagi shartlar asosida qo‘llaniladi:

1. Ta'lim beruvchi mashg'ulot boshlanishdan oldin munozara, tahlil uchun mavzuga oid biron muammoni belgilaydi. Guruhlar tomonidan qabul qilingan xulosa (qaror)larni yozish uchun plakatlarni tayyorlaydi.

2. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarni 4 yoki 6 nafardan iborat kichik guruhlariga ajratadi. Muammoning hal etilishi, u borada eng maqbul qarorning qabul qilinishi uchun muayyan vaqt belgilanadi.

3. Qarorni qabul qilish jarayonida guruhlarining har bir a'zosi tomonidan bildirilayotgan variantlarning maqbullik hamda nomaqbullik darajalari batafsil muhokama qilinadi. Har bir variantning afzallik va kamchilik jihatlari yozib boriladi. Bildirilgan variantlar asosida muammoni ijobiy hal etishga xizmat qiluvchi metod xususida guruh a'zolari bir to'xtamga kelib oladilar.

4. Munozara uchun ajratilgan vaqt nihoyasiga yetgach, har bir guruh a'zolari o'z guruhi qarori borasida axborot beradilar. Zarur hollarda ta'lim beruvchi rahbaligida barcha ta'lim oluvchilar bildirilgan xulosa (qaror)larni bir-biri bilan qiyoslaydilar. Muammo yuzasidan bildirilgan qarorlar borasida savollar tug'ulgudek bo'lsa, ularga javoblar qaytarilib boriladi, noaniqliklarga aniqlik kiritiladi. Agarda barcha guruxlar tomonidan muammo yuzasidan bir xil qarorga kelingan bo'lsa, ta'lim beruvchi buning sababini izohlaydi.

**“Qarorlar shajarasi” metodi quyidagi loyihaga asoslanadi:**

UMUMIY MUAMMO					
1-qaror varianti		2-qaror varianti		3-qaror varianti	
Afzalligi	Kamchiligi	Afzalligi	Kamchiligi	Afzalligi	Kamchiligi
<b>Qaror:</b>					

**“Qarorlar shajarasi” metodi loyihasi**

**“ROLI O‘YIN” METODI**

**“Rolli o‘yin” metodi** - ta'lim oluvchilar tomonidan hayotiy vaziyatning har xil shart-sharoitlarini sahnalashtirish orqali ko'rsatib beruvchi metoddir. Rolli o'yinlarning ishbop o'yinlardan farqli tomoni baholashning olib borilmasligidadir.

Shu bilan birga “Rolli o‘yin” metodida ta'lim oluvchilar ta'lim beruvchi tomonidan ishlab chiqilgan ssenariydagi rollarni ijro etish bilan kifoyalanishsa, “Ishbop o‘yin” metodida rol ijro etuvchilar ma'lum vaziyatda qanday vazifalarni bajarish lozimligini mustaqil ravishda o'zlari hal etadilar.

Rolli o'yinda ham ishbop o'yin kabi muammoni yechish bo'yicha ishtirokchilarning birgalikda faol ish olib borishlari yo'lga qo'yilgan. Rolli o'yinlar ta'lim oluvchilarda shaxslararo muomala malakasini shakllantiradi.

“Rolli o‘yin” metodida ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilar haqida oldindan ma'lumotga ega bo'lishi lozim. Chunki rollarni o'ynashda har bir ta'lim oluvchining individual xarakteri, xulq-atvori muhim ahamiyat kasb etadi. Tanlangan mavzular ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasiga mos kelishi kerak. Rolli o'yinlar o'quv jarayonida ta'lim oluvchilarda motivatsiyani shakllantirishga yordam beradi.

**“Rolli o‘yin” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:**

1. Ta'lim beruvchi mavzu bo'yicha o'yinning maqsad va natijalarini belgilaydi hamda rolli o'yin ssenariysini ishlab chiqadi.
2. O'yinning maqsad va vazifalari tushuntiriladi.
3. O'yinning maqsadidan kelib chiqib, rollarni taqsimlaydi.
4. Ta'lim oluvchilar o'z rollarini ijro etadilar. Boshqa ta'lim oluvchilar ularni kuzatib turadilar.
5. O'yin yakunida ta'lim oluvchilardan ular ijro etgan rolni yana qanday ijro etish mumkinligini izohlashga imkoniyat beriladi. Kuzatuvchi bo'lgan ta'lim oluvchilar o'z yakuniy mulohazalarini bildiradilar va o'yinga xulosa qilinadi.

Ushbu metodni qo'llash uchun ssenariy ta'lim beruvchi tomonidan ishlab chiqiladi. Ba'zi hollarda ta'lim oluvchilarni ham ssenariy ishlab chiqishga jalb etish mumkin. Bu ta'lim oluvchilarning motivatsiyasini va ijodiy izlanuvchanligini



oshirishga yordam beradi. Ssenariy maxsus fan bo'yicha o'tilayotgan mavzuga mos ravishda, hayotda yuz beradigan ba'zi bir holatlarni yoritishi kerak. Ta'lim oluvchilar ushbu rolli o'yin ko'rinishidan so'ng o'z fikr-mulohazalarini bildirib, kerakli xulosa chiqarishlari lozim.

### **“ISHBILARMONLIK O‘YINI” METODI**

Ishbilarmonlik o'yini ishtirokchilariga o'yin syujeti taklif etiladi. Unda, bayon qilingan hayotiy vaziyat bo'yicha, ishtirokchilar oldiga faoliyatning bitta umumiy maqsadi qo'yiladi: taklif qilingan muammoni yechish.

Shu bilan bir vaqtda, har bir ishtirokchi alohida rolli maqsadni bajarish kerak. Shuning uchun, yechimni ishlab chiqish jarayoni individual – guruhli xarakterga ega: har bir ishtirokchi, avval o'zining rolli maqsadiga muvofiq qaror qabul qiladi, keyingisi guruh bilan maslaxatlashadi. Ushbu shaxsiy rolli maqsadni bajarilishi butun guruh a'zolarining natijalariga bog'liqdir. Odatda ishbilarmonlik o'yini davomida muammoni yechish bir nechta bosqichda sodir bo'ladi (2-3tadan 10tagacha o'yini mobaynida).

Qatnashchilar faoliyatini baholash yakuniy va oraliq davrdagi ko'rsatkichlar bo'yicha amalga oshiriladi. Oraliq baholash o'yin davomida qatnashchilar faoliyatiga ta'sir ko'rsatish, oldiga qo'ygan vazifalarni mustaqil amalga oshirishga imkon beradi. Yakuniy baholashda talabalarining tashkiliy faoliyati va ular tomonidan o'yinning rolli maqsadlarini bajarilishini hisobga olinadi. Natijalarining ko'rsatishicha, talabalar ilmiy dunyoqarashini yuksaltirishga ishbilarmon o'yinni qo'llash quyidagicha qator ta'limiy afzalliklarni qo'lga kiritish imkoniyatini berar ekan:

- o'qitishning ijodiy muhiti yaratiladi;
- talaba sifatli va ishonchli o'quv-didaktik va intellektual ma'lumotlar bilan ta'minlanadi, ya'ni ular shug'ullanayotgan sohasi bo'yicha o'zlari ilm-fan va texnika-texnologiyalarning eng so'nggi yutuqlaridan xabardor bo'ladi;
- ishbilarmonlar o'yini barcha turdagi o'quv mashg'ulotlarida kompyuter dasturlarining qo'llanilishini ta'minlashga imkoniyat yaratadi;

- mustaqil ta'lim olishlariga sharoit yaratadi, ya'ni ularning kasbiy faoliyatida, mustaqil holda, bilimlar egallashlarida ishonchli usullardan bo'lib, o'zlashtirish lozim bo'lgan bilim ko'nikma va malakalarni shakllantiradi.

Misol uchun, mashq yoki mashqlar kombinatsiyasining to'g'ri bajarilishini ko'rsatish uchun ko'proq qobiliyatli o'quvchi taklif qilinadi. Boshqa o'quvchilar tomosha qiladi va eslab qoladi. Shundan so'ng, mashqni yoki bir nechta mashqlarni ko'rsatgan o'quvchi boshqalar topshiriqni qanday bajarayotganini kuzatadi, xatolarini ko'rsatadi va ularni tuzatishga yordam beradi. Bunda guruhni baholash ham qo'llaniladi. Bir o'quvchi mashqni bajarganida, boshqalari tomosha qiladilar, xatolar sonini ko'rsatadilar va birgalikda ball qo'yadilar.

Bu metodda o'quvchi trener-o'qituvchining unga nisbatan noxolis munosabatda bo'lishi mumkinligi haqida gumon qilmasligiga va bahoning haqqoniy ekanligiga erishiladi. Va eng muhimi, ular mashqni iloji boricha yaxshiroq bajarishga harakat qilishadi.

Sport o'yinlari darslarida o'quvchilar mustaqil ravishda o'yin jarayoniga hakamlik qiladilar. Ko'proq tayyorgarlikka ega o'quvchilar sport o'yinlari texnikasini o'zlashtirishga yordam beradi.

Ushbu mashg'ulotlar o'quvchilar bilan ishbilarmonlik munosabatlariga asoslanadi. Trener-o'qituvchi ushbu metod orqali qobiliyatli o'quvchilarga hakamlik qilishni ishonib topshirilishi orqali yaxshi o'zlashtira olmayotgan o'quvchilar bilan ishlash uchun imkoniyat yaratiladi.

Bunday o'yinning diqqatga sazovor tomoni shundaki, bo'lajak mutaxassis o'z kasbiy faoliyatini takomillashtirishga ongli va ijodiy holatda yondashadi.

### **“DAVRA SUHBATI” METODI**

**Davra suhbatlari**- o'quvchilar o'rtasida va kichik guruhlarda aylana stol atrofida o'z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o'qitish metodidir.

“Davra suhbatlari” metodi qo'llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir o'quvchining bir-biri bilan “ko'z aloqasi”ni o'rnatib turishga yordam beradi. Davra suhbatining og'zaki va yozma shakllari mavjuddir. Davra suhbatida ta'lim beruvchi mavzuni boshlab beradi va o'quvchilardan ushbu

mavzu bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bildirishlarini so'raydi va aylana bo'ylab har bir o'quvchi o'z fikr-mulohazalarini og'zaki bayon etadilar. So'zlayotgan o'quvchini barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo'lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo'lingandan so'ng muhokama qilinadi. Bu esa o'quvchilarning mustaqil fikrlashishiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi.

#### **“Davra suhbatı” metodining afzalliklari:**

- ✓ ta'lim oluvchilarning faolligi oshishi;
- ✓ ta'lim oluvchilarning aqliy va refleksiv qobiliyatlarini rivojlantirilishi;
- ✓ o'quv materialini o'zlashtirish darajasini kompleks tekshirish;
- ✓ ta'limni individuallashtirish va differensiyalash imkoniyati;
- ✓ yutuqlar motivatsiyasini shakllantirish.

#### **“Davra suhbatı” metodining kamchiliklari:**

- ✓ ta'lim oluvchilar mavzu bo'yicha yetarli darajada materiallar to'play olmasligi mumkin;
- ✓ motivatsiya uyg'otish past bo'lishi;
- ✓ baholash murakkabligi.

#### **“VIDEOTOPISHMOQ” METODI**

So'nggi yillarda pedagogik faoliyatda turli axborot-kommunikatsiya vositalari (kompyuter, monitor doska, proektor, multimedia materiallari, televidenie, radio, slayd, videolar) yordamida ta'lim jarayoni tashkil etilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'qituvchilar oldida ta'lim jarayonida turli axborot vositalaridan o'rinli va maqsadga muvofiq foydalanish vazifasi turibdi.

O'qituvchi zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalanish orqali quyidagi bir qancha vazifalarni amalga oshirishi mumkin:

- ta'limning bunday usuli o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini faollashtiradi va o'quv materialini o'zlashtirilishining samaradorligi yanada oshadi;
- namoyish qilinishi qiyin yoki murakkab bo'lgan jarayonlarni modellashtirish va ko'rish imkoniyatini beradi;
- o'quv materiallarini o'zlashtirilishi faqat darajasiga ko'ra emas, balki

o'quvchilar erishgan mantiq va qabul qilishlarining darajasiga ko'ra ham samarali hisoblanadi;

- o'quvchilarga mustaqil izlanish yo'li bilan materiallarni izlash, topish hamda muammoli masalalarga javob topish orqali ma'lum tadqiqot ishlarini bajarish uchun imkoniyat yaratiladi;

- o'quvchilarning yangi mavzuni o'zlashtirishi, o'quv materiallari bilan mustaqil tanishish, tanlash va axborot hamda ma'lumotlarni tahlil etish kabi masalalarni tez bajarish uchun sharoit yaratiladi.

Videotopishmoq metodidan foydalanishda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

- o'quvchilarga o'rganilayotgan mavzu mohiyatini tasviriy yoritishga yordam beruvchi izohlarsiz bir nechta videolavha namoyish etiladi;

- o'quvchilar har bir lavhada qanday jarayon aks ettirilganligini izohlaydilar;

- jarayonlarning mohiyatini tahlil etadilar;

- trener-o'qituvchi tomonidan berilgan savollarga javob beradilar.

### **“BUMERANG” METODI**

“Bumerang” metodi ta'lim oluvchilarni mashg'ulot jarayonida berilgan topshiriqni mustaqil o'rganish va boshqalarni o'rgatishga qaratilgan metod hisoblanadi.

Ushbu metodda berilgan topshiriq va vazifalar o'quvchilar tomonidan yakka va guruh holatida o'zlashtiriladi hamda kuzatish, o'zaro suhbat, bahs-munozara, turli savollar orqali ular topshiriqni qay darajada o'zlashtirilganligi nazorat qilinadi va kichik guruhlarning faolliklari va o'zlashtirish darajalari tezkor baholanadi.

Ushbu metodda nechta kichik guruh shakllantirilsa, har bir kichik guruhda shuncha nafar o'quvchi ishtirok etishi lozim. Ya'ni, 4 ta kichik guruh shakllantirilsa, har birida 4 nafardan ta'lim oluvchi ishtirok etishi, ya'ni jami 16 nafar o'quvchi ishtirok etishi shart. Boshqa o'quvchilar ekspert sifatida ishtirok etishi mumkin.

### **“SWOT -TAHLIL” METODI**

**“SWOT-tahlil” metodi** - ta'lim oluvchilarni mavjud holatni tahlil qilish va baholashni o'rgatadi. Tahlil va sintez qilish yo'li bilan biror bir mantiqiy qaror qabul qilishga o'rgatadi.

**“SWOT”**- inglizcha so'z bo'lib, to'rtta so'zning bosh harflaridan olingan.

**Strengths** - kuchli tomonlar;

**W-Weakness** - kuchsiz tomonlar;

**O-Opportunities** - imkoniyatlar;

**T-Threats** – tahdidlar (ziddiyatlar).

Ushbu metod o'tilgan mavzuga nisbatan tahliliy yondashishni, uni tahlil qilish va har tomonlama ko'rib chiqish imkonini beruvchi metoddir. Metodni yakka tartibda, kichik guruhlarda amalga oshirish mumkin. “SWOT” tahlili metodidan o'quv jarayonida qo'llanilganda ta'lim oluvchilarning faolligi oshadi, mustaqil fikrlash ko'nikmalari shakllanadi hamda guruhlarda ishlash malakalari rivojlanadi.



### **“SWOT-tahlil” metodining tuzilishi**

“SWOT – tahlil” metodi g'oya, jarayon, tajriba hamda ish natijalarini tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarini topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, analitik tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ya'ni muayyan ob'ekt (vaziyat, tadqiqotga nisbatan ilmiy yangilik)ning kuchli tomonlari – ayni vaqtda mavjud ustunliklari; shu kuchli tomonlarni inkor etuvchi kuchsiz jihatlari; yangilikni amalga oshirgandan keyin paydo bo'ladigan imkoniyatlar va shu imkoniyatlar ta'sirida kelib chiqishi mumkin bo'lgan xavf-

xatarlar prognoz qilinadi. SWOT-tahlil o'rganilayotgan ob'ektning eng dolzarb muammolarini topish, uning oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan taxdid, xavf-xatarlarni aniqlash maqsadida olib boriladi. Bundan tashqari kuchli tomonlarni mustahkamlash, kuchsiz jihatlarni kamaytirish, imkoniyatlardan samarali foydalanish va ularni kengaytirish va tahdidlarga qarshi choralarni ko'rishga uchun tegishli takliflar ishlab chiqishda qo'l keladi.

Metodning rasmiylashtirilish jadvali quyidagicha:

<b>Kuchli jihatlar</b>	<b>Kuchsiz jihatlar</b>
1. 2. 3. . .	1. 2. 3. . .
<b>Imkoniyatlar</b>	<b>Havf-xatarlar</b>
1. 2. 3. . .	1. 2. 3. . .

### NAZORAT SAVOLLARI

1. Interfaol ta'lim va uning imkoniyatlari?
2. Jismoniy tarbiya darslarida qo'llaniladigan interfaol metodlar?
3. Lug'aviy jihatdan "interfaol" tushunchasi qanday ma'nosini anglatadi?
4. Bilim, ko'nikma, malaka va muayyan ahloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lidagi o'zaro harakatlarini tashkil etishga asoslanuvchi ta'lim bu.....?
5. Metod so'zining lug'aviy jihatdan qanday ma'noni anglatadi?
6. Ta'lim oluvchilar faoliyatiga ko'ra ta'lim metodlari qanday tavsiflanadi?

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

19. Avliyoqulov N.X. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari. –Toshkent: O'qituvchi, 2001. – 69 b.
20. Dexkambayeva Z.A., Pulatov J.A. Sport ta'limida innovation pedagogik texnologiyalar. T.: Printerhaus, 2021 .- 134 b.
21. Golish L. V. Ta'limning faol usullari: mazmuni, tanlash, amalga oshirish. – Toshkent: Tasis, 2001. – 69 b.
22. Golish L.V. Ta'lim shakllari: mazmun, tanlash va amalga oshirish. - Toshkent: Tasis, 2001. – 43 b.
23. Golish L.V. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari: mazmun, loyihalashtirish va amalga oshirish - Toshkent: Tasis, 2001. – 59 b.

## TESTLAR TO'PLAMI

**“Innovatsion ta'lim texnologiyalar”  
moduli bo'yicha test savollari**

- 1. Lug'aviy jihatdan “innovatsiya” tushunchasi qanday ma'noni ifodalaydi?**
  - a) yangilik kiritish
  - b) qo'shimcha kiritish
  - c) o'zgartirish kiritish
  - d) taklif kiritish
- 2. Faoliyat qisqa muddatli, faqatgina tizimdagi ayrim elementlarni o'zgartirishga xizmat qilsa u nima deb yuritiladi?**
  - a) novatsiya
  - b) evrika
  - c) innovatsiya
  - d) ijodkorlik
- 3. Muayyan tizimning rivojlanishiga yoki uni tubdan o'zgartirishga xizmat qiladigan faoliyat natijasi qanday nomlanadi?**
  - a) innovatsiya
  - b) texnologiya
  - c) novatsiya
  - d) ijodkorlik
- 4. Yangi g'oyalar, tizim yoki faoliyat yo'nalishini o'zgartirishga qaratilgan aniq maqsadlar, noan'anaviy yondashuvlar, ilg'or ish uslublari nimaning ko'rinishlari hisoblanadi?**
  - a) innovatsiyaning
  - b) texnologiyaning
  - c) metodikaning
  - d) loyihalashning
- 5. Ta'lim sohasida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qo'llanilishi nima deb nomlanadi?**
  - a) ta'lim innovatsiyalari
  - b) ta'lim texnologiyalari
  - c) o'qitish metodikasi
  - d) ta'limni loyihalashtirish



**6. “Kreativlik” tushunchasining lug‘aviy ma’nosi nimani bildiradi?**

- a) yaratish
- b) yangilik kiritish
- c) taklif kiritish
- d) o‘zgartirish kiritish

**7. “Texnologiya” so‘zining lug‘aviy ma’nosi nimani anglatadi?**

- a) “texne”- san’at, mahorat, “logos”- fan, ta’limot
- b) ishlab chiqish jarayoni
- c) “texne”- texnika, “logos”- ta’limot
- d) ta’limni loyihalashtirish

**8. “Ta’lim shakllarini optimallashtirish maqsadida inson va texnika imkoniyatlari hamda ularning o‘zaro ta’sirini hisobga olgan holda o‘qitish va o‘zlashtirish jarayonini yaratish, qo‘llash va aniqlash tizimi” deb nimaga ta’rif berilgan?**

- a) pedagogik texnologiya
- b) pedagogik innovatsiya
- c) pedagogik tizim
- d) pedagogik jarayon

**9. Ta’lim oluvchining fikrlash va harakat strategiyasini inobatga olgan holda uning shaxsi, o‘ziga xos xususiyatlari, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan ta’lim bu.....?**

- a) shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim
- b) muammoli ta’lim
- c) hamkorlik ta’limi
- d) masofaviy ta’lim

**10. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim qanday turlardan iborat?**

- a) muammoli, hamkorlik, o‘yinli, tabaqalashtirilgan va boshqalar
- b) an’anaviy, noan’anaviy va boshqalar
- c) avtoritar, muammoli, majburiy ta’lim, masofaviy va boshqalar
- d) aqliy hujum, klaster, pinbord, keys stadi va boshqalar

**11. Hamkorlik ta’limini qo‘llashda ta’lim oluvchilar qanday shakllarda ta’lim oladi?**

- a) jamoada, kichik guruhlarda, juftlikda
- b) jamoada, kichik guruhlarda, yakka tartibda
- c) kichik guruhlarda, juftlikda, yakka tartibda
- d) ommaviy, jamoada, yakka tartibda

**12. Pedagogik muammo nima?**

- a) hal qilinishi zarur, biroq, hali echish usuli noma'lum bo'lgan pedagogik xarakterdagi masala
- b) ma'lum topshiriqlarni bajarish jarayonida yuzaga kelgan ziddiyatni anglash bilan bog'liq ruhiy holat
- c) bilish faoliyatini faollashtirishga asoslanadigan yo'l
- d) muammoli ta'lim jarayonini tashkil etishda o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan metodlar

**13. "Muammo" qanday tarkibiy qismlardan iborat?**

- a) ma'lum bilimlar, noma'lum bilimlar, mavjud tajriba
- b) jamoaviy, kichik guruhlar, individual
- c) bilish, tushunish, echim
- d) rejalashtirish, amalga oshirish, nazorat

**14. Lug'aviy jihatdan "interfaol" tushunchasi qanday ma'nosini anglatadi?**

- a) o'zaro harakat qilmoq
- b) o'zaro yordam bermoq
- c) o'zaro tajriba almashmoq
- d) o'zaro kelishib olmoq

**15. Bilim, ko'nikma, malaka va muayyan ahloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lidagi o'zaro harakatlarini tashkil etishga asoslanuvchi ta'lim bu.....?**

- a) interfaol ta'lim
- b) muammoli ta'lim
- c) shaxsga yo'naltirilgan ta'lim
- d) masofaviy ta'lim

**16. Metod so'zining lug'aviy jihatdan qanday ma'noni anglatadi?**

- a) yunoncha so'zdan olingan bo'lib, "bilish yo'li" degan ma'noni anglatadi
- b) lotincha so'zdan olingan bo'lib, "jarayon" degan ma'noni anglatadi
- c) inglizcha so'zdan olingan bo'lib, "yangilik kiritish" degan ma'noni anglatadi
- d) yunoncha so'zdan olingan bo'lib, "men o'rgataman" degan ma'noni anglatadi

**17. Ta'lim oluvchilar faoliyatiga ko'ra ta'lim metodlari qanday tavsiflanadi?**

- a) nofaol, faol, interfaol
- b) avtoritar, demokratik, liberal
- c) jamoaviy, kichik guruhlar, individual
- d) og'zaki, ko'rgazmali, amaliy

**18. “Kompetentsiya” so‘zining lug‘aviy ma’nosi nima ?**

- a) lotincha so‘zdan olingan bo‘lib, “mos kelmoq” degan ma’noni anglatadi
- b) inglizcha so‘zdan olingan bo‘lib, “yangilik kiritish” degan ma’noni anglatadi
- c) arabcha so‘zdan olingan bo‘lib, “mahorat” degan ma’noni anglatadi
- d) yunoncha so‘zdan olingan bo‘lib, “men o‘rgataman, men o‘qitaman” degan ma’noni anglatadi

**19. Kompetentsiyaga berilgan ta’rifni toping.**

- a) olingan nazariy bilim, amaliy ko‘nikma, malaka va shaxsiy fazilatlar majmuasini amaliyotga qo‘llay olish qobiliyati va layoqati
- b) ta’lim tizimini isloh qilish jarayonlarida amalga oshirilayotgan o‘zgartirishlar va yangiliklarni qo‘llash
- c) o‘z sport turini chuqur bilish, pedagogik jarayonlarda o‘quvchilarning faolligini oshirishga alohida ahamiyat qaratish
- d) pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish qobiliyati

**20. “Kompetentlik” deganda nima tushuniladi?**

- a) aniq vaziyatda kompetentni namoyon qilish
- b) pedagogik jarayonlarni nazorat qilish
- c) o‘z-o‘zini rivojlantirish
- d) yangiliklarni tatbiq etish

**21. “Professional kompetentlik” deb qanday faoliyatga aytiladi?**

- a) kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olinishi;
- b) ta’lim beruvchi tomonidan aniq maqsad asosida yosh avlodni har tomonlama o‘stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni
- c) ijtimoiy munosabatlarda faollik ko‘rsatish ko‘nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda subyektlar bilan muloqotga kirisha olish.
- d) izchil ravishda kasbiy o‘shishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o‘z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish

**22. Professional kompetentlik qanday sifatlardan iborat?**

- a) ijtimoiy, shaxsiy, texnologik, ekstremal, maxsus
- b) shaxsiy, kasbiy, innovatsion, ekstremal, maxsus
- c) ijtimoiy, kommunikativ, kreativ, texnologik, maxsus
- d) texnologik, metodik, psixologik, ekstremal, maxsus

**23. Psixologik, metodik, informatsion, innovatsion, kommunikativ, kreativ kompetentliklar professional kompetentlikning qaysi sifatiga tegishli?**

- a) maxsus kompetentlikka
- b) shaxsiy kompetentlikka

- c) ijtimoiy kompetentlikka
- d) ekstremal kompetentlikka

**24. “Ektremal kompetentlik” deganda nimani tushunasiz?**

- a) favqulodda vaziyatlarda, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to'g'ri harakatlanish
- b) kasbiy-pedagogik bilim, ko'nikma va malakani boyitadigan ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish
- c) ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari bilan samimiy muloqotda bo'lish, ularga ijobiy ta'sir ko'rsata olish
- d) pedagogik faoliyatga nisbatan tanqidiy va ijodiy yondoshish, o'zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish

**25. Professional kompetentlikni rivojlantirish darajalarini to'g'ri ketma-ketlikda belgilang.**

- a) malakasiz → rivojlanayotgan → tajribali → ilg'or → professional
- b) malakasiz → tajribali → rivojlanayotgan → ilg'or → professional
- c) rivojlanayotgan → malakasiz → tajribali → ilg'or → professional
- d) malakasiz → rivojlanayotgan → ilg'or → tajribali → professional



## GLOSSARIY

## GLOSSARIY

**Metod** - (yunoncha soʻzdan olingan boʻlib, “yoʻl” degan maʼnoni anglatadi) maqsadga erishish yoʻlini bildiradi.

**Metodik kompetentlik** – pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, taʼlim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini toʻgʻri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qoʻllay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qoʻllash.

**Muammoli taʼlim** - taʼlim oluvchilarda ijodiy izlanish, kichik tadqiqotlarni amalga oshirish, muayyan farazlarni ilgari surish, natijalarni asoslash, maʼlum xulosalarga kelish kabi koʻnikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qiladigan taʼlim

**Muammoli vaziyat** – taʼlim oluvchilarning maʼlum topshiriqlarni bajarish (masalani echish, savolga javob topish) jarayonida yuzaga kelgan ziddiyatni anglashi bilan bogʻliq ruhiy holati boʻlib, u hal etilayotgan masala bilan bogʻliq yangi bilimlarni izlashni taqozo etadi.

**Muammoli vaziyat metodi** – taʼlim oluvchilarni muammoli vaziyatga toʻqnash kelishini taʼminlash asosida ularning bilish faoliyatini faollashtirishga asoslanadigan yoʻl.

**Novatsiya** - faoliyat qisqa muddatli, yaxlit tizim xususiyatiga ega boʻlib, faqatgina tizimdagi ayrim elementlarni oʻzgartirishga xizmat qiladi

**Hamkorlik taʼlimi texnologiyalari** – oʻquv jarayonida taʼlim oluvchilarning jamoada, kichik guruh va juftlikda bilimlarni birgalikda oʻzlashtirishlari, oʻzaro rivojlanishlari, shuningdek, “pedagog-taʼlim oluvchi(lar)” munosabatining hamkorlikda tashkil etilishini taʼminlovchi taʼlimiy xarakterdagi texnologiyalar.

**Ijtimoiy kompetentlik** – ijtimoiy munosabatlarda faollik koʻrsatish koʻnikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda subʼektlar bilan muloqotga kirisha olish.

**Individual oʻqitish** – bu oʻquv jarayonining tashkil etishning shakli boʻlib, bunda pedagog taʼlim oluvchilar bilan yakkama-yakka shugʻullanadi, taʼlim oluvchi oʻquv vositalari (kitoblar, kompyuter va h.k.) yordamida uzluksiz mustaqil taʼlim oladi.

**Individuallashtirilgan o'qitish texnologiyasi** – bunda o'quv jarayonini tashkil etishda individual yondashish va o'qitishning individual shakli ustuvor hisoblanadi.

**Aqliy hujum metodi** – o'quvchilarning mavzu xususida boshlang'ich bilimlarini aniqlash va ularning o'z tasavvurlari, g'oyalardan ijobiy foydalanishga asoslangan metod.

**Ekstensiv yo'l** – trener-o'qituvchining pedagogik va metodik faoliyatini takomillashtirishda yangi modernizatsiya qilingan vositalar, jihozlar, texnologiyalardan mashqlar o'rgatish jarayonida maqsadli foydalanishi.

**Ektremal kompetentlik** – favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to'g'ri harakatlanish malakasiga egalik

**Informatsion kompetentlik** – axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma'lumotlarni izlash, yig'ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o'rinli, samarali foydalanish.

**Innovatsion faoliyat** – yangi ijtimoiy talablarning an'anaviy me'yorlarga mos kelmasligi yoki yangi shakllanayotgan g'oyalarning mavjud g'oyalarni inkor etishi natijasida vujudga keladigan majmual muammolarni echishga qaratilgan faoliyat

**Innovatsion kompetentlik** – pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta'lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g'oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etish.

**Innovatsion ta'lim (ingl. "innovation" – yangilik kiritish, ixtiro)** – ta'lim oluvchida yangi g'oya, me'yor, qoidalarni yaratish, o'zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg'or g'oyalar, me'yor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta'lim

**Innovatsiya** - ingliz tilidan tarjima qilinganda ("*innovation*") "yangilik kiritish" degan ma'noni anglatadi. Innovatsiya – muayyan tizimning ichki tuzilishini o'zgartirishga qaratilgan faoliyat.

**Intensiv yo'l** – trener-o'qituvchining pedagogik, metodik mahoratlari va

---

texnikasini hamda kasbiy faoliyatni rivojlanishining motivatsiyalar hisobiga jadal suratlarda amalga oshirishi.

**Interfaol** - ingliz tilidagi “interaction” (rus tilida «interaktiv») soʻzidan olingan boʻlib, lugʻaviy nuqtai nazardan «inter» – oʻzaro, “act” – harakat qilmoq degan maʼnolarni anglatadi.

**Interfaol taʼlim** – bilim, koʻnikma, malaka va muayyan ahloqiy sifatlarni oʻzlashtirish yoʻlidagi oʻzaro harakatlarini tashkil etishga asoslanuvchi taʼlim

**Interfaollik** – taʼlim jarayoni ishtirokchilarining bilim, koʻnikma, malaka hamda muayyan axloqiy sifatlarni oʻzlashtirish yoʻlida birgalikda, oʻzaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etish layoqatiga egaliklari

**Keys-stadi** - inglizcha soʻz boʻlib, (“case” – aniq vaziyat, hodisa, “stadi” – oʻrganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni oʻrganish, tahlil qilish asosida oʻqitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi.

**Klaster metodi** - gʻuncha, toʻplam, bogʻlam kabi maʼnolarni anglatib, ilgari surilgan gʻoyalarni umumlashtirish, ular oʻrtasida aloqalarni topish imkoniyatini yaratadigan grafik organayzer.

**Kommunikativ kompetentlik** – taʼlim jarayonining barcha ishtirokchilari, jumladan, taʼlim oluvchilar bilan samimiy muloqotda boʻlish, ularni tinglay bilish, ularga ijobiy taʼsir koʻrsata olish.

**Kompetentlik** (ingl. “competence” – “qobiliyat”) – faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish.

**Kreativ kompetentlik** – pedagogik faoliyatga nisbatan tanqidiy va ijodiy yondoshish, oʻzining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish.

**Kreativlik** (ingl. “create ” – yaratish, “creative ” – “yaratuvchi”, “ijodkor”) – individning yangi gʻoyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati.

**Masofaviy oʻqitish** – bu masofadan turib oʻqitish, qaysiki oʻquv mashgʻulotlarining barchasi yoki koʻp qismi telekommunikatsion va zamonaviy axborotlashtirish texnologiyalar asosida olib boriladi.



**Maxsus kompetentlik** – kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash, BKMni izchil rivojlantirib borish bo‘lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko‘zga tashlanadi.

**Pedagogik akmeologiya** – yunoncha oliy nuqta, o‘tkir, gullagan, etuk, eng yaxshi davr degan ma’nolarni bildiradi.

**Pedagogik aksiologiyada** (yunoncha “aksioma” – “isbotlanmaydigan ta’limot” ma’nosini anglatadi) pedagogik yangiliklar ichidan eng ishonchlisi va samaralisi tanlab olinadi.

**Pedagogik innovatsiya yo‘nalishlari** – innovatsion texnologiyalar, pedagogik yangiliklarni pedagogik jamoa tomonidan o‘zlashtirish va baholash, amaliyotda qo‘llash to‘g‘risidagi ta’limot bo‘lib to‘rtta: pedagogik – neologiya, aksiologiya, praksologiya, akmeologiya yo‘nalishlariga ega.

**Pedagogik kreativlik** (lot. “creatio” – “yaratish”) – pedagogning an’anaviy pedagogik fikrlashdan farqli ravishda ta’lim va tarbiya jarayonini samaradorligi ta’minlashga xizmat qiluvchi yangi g‘oyalarni yaratish, shuningdek, mavjud pedagogik muammolarni ijobiy hal qilishga bo‘lgan tayyorgarligini tavsiflovchi qobiliyati

**Pedagogik neologiya** (yunoncha “neo” – yangi va “logos” – ta’lim bo‘lib, yangilik haqidagi ta’limot) deyilib, bunda pedagogika sohasidagi har qanday yangiliklar o‘rganiladi, umumlashtiriladi.

**Pedagogik praksologiya** (yunoncha “praks” – “harakat va “logos” – ta’lim, ya’ni “amaliyotda qo‘llash haqidagi ta’limot” ma’nosini anglatadi)- bunda tanlab olingan pedagogik yangiliklarni amaliyotda qo‘llash, muayyan samaraga erishish masalalari tushuniladi.

**Pedagogik refleksiya** (lot. “reflexio” – “ortga qaytish”, “aks etish”) – pedagogning shaxs ongi mohiyati va vazifalarini, shu jumladan, qadriyatlarini, qiziqishlari, rag‘batlantiruvchi omillar, fikrlash, idrok, qarorlar qabul qilish, hissiy

---

“Pedagogika va psixologiya” kafedrası

ta'sirlanish, xatti-harakatlari va boshqalarning mohiyatini anglab etishi

**Pedagogik texnologiya** - ta'lim shakllarini optimallashtirish maqsadida inson va texnika imkoniyatlari hamda ularning o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda o'qitish va o'zlashtirish jarayonini yaratish, tatbiq etish va aniqlash tizimidir (YUNESKO).

**Pedagogik tizim** - o'zaro bog'liq bo'lgan vositalar, usullar va jarayonlar yig'indisi bo'lib, shaxsdagi muayyan sifatlarini shakllantirishga pedagogik ta'sir etishni maqsadga muvofiq tarzda amalga oshiradi.

**Professional kompetentlik** – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishi.

**Rolli o'yinlar** – ma'lum bir shaxsning vazifa va majburiyatlarini bajarishdagi ruhiy holatlari xatti-harakati ishlanadi, rollar majburiy mazmuni.

**Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi** - ta'lim oluvchining fikrlash va harakat strategiyasini inobatga olgan holda uning shaxsi, o'ziga xos xususiyatlari, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan ta'lim.

**Shaxsiy kompetentlik** – izchil ravishda kasbiy o'sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o'z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish

**Sport ta'lim muassasasi trener-o'qituvchisining innovatsion faoliyati** - zamonaviy innovatsion g'oya, me'yor, loyiha, metod va texnologiyalarni jadal o'zlashtirishi va amaliyotga tatbiq qilishi natijasida vujudga keladigan majmualar muammolarni echishga qaratilgan faoliyat.

**Ta'lim innovatsiyalari** – ta'lim sohasi yoki o'quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondoshuv asosida yechish maqsadida qo'llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar.

**Ta'lim metodi** – bu ta'lim jarayonida pedagog va ta'lim oluvchilarning aniq maqsadga erishishga qaratilgan birgalikdagi faoliyatidir.



## ADABIYOTLAR RO'YXATI

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

**I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari:**

1 Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild / Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2020. – 400 b.

2. Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi / Sh.M. Mirziyoev. – Toshkent: “O'zbekiston” nashriyoti, 2021. – 464 b.

**II. Normativ-huquqiy hujjatlar**

11.O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta'lim to'g'risida”gi O'RQ-637-son Qonuni.

12.O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 4-sentabrdagi O'RQ-394-son “Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida”gi Qonuni

13.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-martdagi “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5368-sonli farmoni

14.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi “O'zbekiston Respublikasida Jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5924-sonli farmoni

15.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktabrdagi “Sog'lom turmish tarzini keng tadbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-6099-sonli farmoni

16.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-noyabrdagi PQ-5280-son “Sport-ta'lim muassasalari faoliyatini 2025-yilgacha rivojlantirish dasturi to'g'risida”gi qarori

17.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60 sonli farmoni

**III. Maxsus adabiyotlar**

24. Akmalov A. Sport, malaka oshirish ta'limida innovatsiya va interfaol texnologiyalar – Toshkent: “Umid Dezgin” – 2022., 72b.

25. Avliyoqulov N.X. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari. –Toshkent: O'qituvchi, 2001. – 69 b.

26. Dexkambayeva Z.A., Pulatov J.A. Sport ta'limida innovation pedagogik texnologiyalar. T.: Printerhaus, 2021 .- 134 b.

27. Golish L. V. Ta'limning faol usullari: mazmuni, tanlash, amalga oshirish. – Toshkent: Tasis, 2001. – 69 b.

28. Golish L.V. Ta'lim shakllari: mazmun, tanlash va amalga oshirish. - Toshkent: Tasis, 2001. – 43 b.

29. Golish L.V. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari: mazmun, loyihalashtirish va amalga oshirish - Toshkent: Tasis, 2001. – 59 b.

30. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'raev A. B.

Innovatsion ta'lim texnologiyalari .- T.: “Sano standart” nashriyoti, 2015.

31. Muxamedov O‘. X., Usmonboeva M. H., Rustamov S. S. Ta’limni tashkil etishda zamonaviy interfaol metodlar. o‘quv-uslubiy tavsiyalar. – T.: 2012.

32. Ro‘zieva D., Usmonboeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi. Met.qo‘ll. – T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013.

33. Tursualiyev I.A., Amonov A.N., Yeldasheva G.V., Dexkambayeva Z.A. Murabbiy-o‘qituvchning pedagogik kompetensiyasi va mahorati. Uslubiy qo‘llanma.- T.: Ilmiy –texnika axborot-press nashriyoti, 2019 .- 92 b.

34. Yeldasheva G., Karimova G. Ta’lim-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiya elementlaridan foydalanish. Metodik qo‘llanma. / T.: Lesson press, 2020

35. Yoqubova D.M., Usmanova Sh.Sh. Jismoniy tarbiya va sport pedagogikasi. O‘quv qo‘llanma. – T.:Ilmiy texnika axboroti – press nashriyoti, 2020.- 200 b.

36. Андриади И.П. Основы педагогического мастерства / 2-э изд. – М.: НИТС ИНФРА-М, 2016. – 200 с. – ИСБН 978-5-16-011222-0

37. Крючкова Л.Н. Педагогическое мастерство тренера. Учебно-методическое пособие: — Саратов, 2011.-37 с.

38. Печеркина А.А. Развитие профессиональной компетентности педагога: теория и практика: монография / А.А. Печеркина, Э.Е. Симанюк, Э.Л. Умникова. – Екатеринбург: Урал. гос. пед. ун-т., 2011. – 233 с.

39. Ямалетдинова Г.А. Педагогика физической культуры и спорта: курс лекций: – Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та, 2014. - 244 с.

#### **IV. Elektron ta'lim resurslari**

1. <http://edu.uz/>
2. <http://eduportal.uz/>
3. <http://lex.uz/>
4. <http://minsport.uz/>
5. <http://natlib.uz>
6. <http://sportedu.uz/>